TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TURKMAN MUMTOZ SHE'RIYATI ANTOLOGIYASI

98

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TURKMAN MUMTOZ SHE'RIYATI ANTOLOGIYASI

98

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.164-1
KBK 84(5Tur)-5
T 89

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Bahodir Karim, Rustam Musurmon,
Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi

Bahodir Karimov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.

Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8721-5-8

©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

TURKMAN MUMTOZ SHE'RIYATI GULSHANIDAN GULDASTA

Xalq og'zaki ijodiyotidan boshlangan turkman adabiyoti tarixida barcha turkiy xalqlari uchun qadrli bo'lgan "Kitobi Dada Qurqut", "O'g'uzxon", "Go'ro'g'li", "Shohsanam-G'arib", "Sayot va Hamro", "Layli va Majnun", "Yusuf va Zulayho" kabi dostonlarning turli namunalari mavjud. Ushbu asarlarning ayrimlari sujetiga mos ravishda ko'plab turkman shoirlari turli davrlarda o'z dostonlarini ham yozishdi.

Turkiy xalqlar madaniyatida o'z nufuziga ega bo'lgan turkman mumtoz adabiyotining tarixi boy va rang-barangdir. Deylik, Maxtumqulining otasi Davlatmammat Ozodiyning donishmand shoir bo'lgani, g'azal va ruboiylar yozgani ma'lum: uning "Va'zi Ozod" masnaviysi mashhur. Turkiy xalqlar adabiyoti tarixida Maxtumquli Firog'iy o'z ijodiyoti bilan juda katta shuhrat qozondi. Uning ijodi bilan turkman adabiyoti tarixida yangi davr boshlandi. Sharq mumtoz adabiyoti namoyandalari orasida Maxtumqulidek iste'dodli shoirning borligi — bu adabiyotning baxtidir. Shoir she'rlari halihanuz sevib o'qiladi. Qo'shiq qilib kuylanadi. Ko'pgina turkman shoirlarining qo'lyozmalari, ijod namunalari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi.

Markaziy Osiyoga kelgan sayyohlar, taniqli olimlar milliy-adabiy manbalarga juda katta qiziqish bilan qarashdi. Mustashriqlar orasida adabiy durdonalarni qo'lga kiritib, ular xususida tadqiqotlar, tarjimalar qilganlari ham bor. Deylik, XIX asrdayoq turkman she'riyatining gultojisi bo'lgan Maxmutquli asarlarini Yevropaning yuragiga joylagan mojar olimi Hyerman Vamberi "Turkman tili va Maxtumquli "Devoni" nomli maqola yozadi va ("Germaniya kunchiqar jamiyati jurnali", 1879-yil, Leypsig) shoir ijodiga yuksak baho beradi. She'rlaridan namunalarni turkman tilidan nemis tiliga tarjima qiladi. Aslida Maxtumquli Sharqning ulkan donishmandlari Ahmad Yassaviy, Fuzuliy, Nasimiy, Alisher Navoiy, Bobur, So'fi

Olloyor, Mashrablar qatorida turadi. Maxtumqulining fikricha, o‘sha ulug‘ zotlar mansub bo‘lgan yo‘ldan borishning o‘z shartlari bor, ya’ni “haqiqat yo‘liga kirgan darveshlar” uchun murshid kerak. “So‘zim nasihatdir” degan shoir o‘z hikmatomuz she’rlari bilan odamlarni yaxshilikka chaqiradi, yomonlikdan qaytaradi. Ayni jihatdan H. Vamberining “Maxtumquli” g‘azallarida ko‘pincha din va axloq nuqtayi nazari yetakchilik qiladi” degan fikri asoslidir. To‘g‘risi, Maxtumquli ijodining tagzaminida Qur’on oyatlari va hadisi sharif mazmuni mujassamdir. Shoirning “Umidli bo‘l Yusufdek”, “Sabrli bo‘l Ayubdek”, “Xalil o‘g‘li Ismoil, Qurbondadir, qurbonda”, “Ins-u jinga podshoh bo‘lgan Sulaymon”, “As’hobi Kahf yotar qoim” kabi misralarini faqatgina qur’oniy qissalar yordamida to‘g‘ri anglash mumkin. Sobiq sho‘rolar zamonida diniy tushunchali she’rlar chetga surildi, barcha sharq she’riyatidagi ayni jihatlar tanqid ham qilindi. Maxtumqulining shu tipda yozilgan she’rlari bosilmadi. Istiqlol yillaridagina mumtoz shoirlar ijodidagi Qur’oni karim oyatlari, hadisi sharif ta’sirida yozilgan asarlarga to‘g‘ri, xolis va adolatli ilmiy baho berish imkoni paydo bo‘ldi.

Jumladan, ushbu majmuadan o‘rin olgan turkman shoirlarining she’rlari bir tomondan milliy o‘ziga xoslikka, barcha e’tirof etgan adabiy mavzularga ega bo‘lsa, ikkinchi tomondan, aynan diniy-ma’rifiy tamoyillari ifodasiga ko‘ra sharq mumtoz adabiyoti namoyandalari ijodi bilan uyg‘unlik kasb etadi. Zero, umuminsoniy mavzularning badiiy talqinida dunyoqarashlari, irfoniy tushunchalari o‘zaro yaqin bo‘lgan shoirlar ijodida ko‘p mushtarak qirralar bo‘ladi. Sharq mumtoz she’riyati Qur’oni karim va hadisi sharifdek umrboqiy buloqlardan oziqlangan ekan, bu jihat turkman mumtoz adabiyotiga ham begona emas.

XVII asrda yashab ijod etgan turkman shoiri Mahmud G‘oyibiy yozadi:

“Muhammad payg‘ambar dinga yo‘l ochdi,
Bilol azon aytdi, kofirlar qochdi”.

Axloqiy-didaktik yo‘sinda yozilgan ko‘plab shoirlarning she’rlarida maxtumquliyona pafos seziladi. Deylik, qator g‘azal

va dostonlar bitgan mumtoz turkman shoiri Saidnazar Sayidiy yozadi:

"Bu dunyo, bilsangiz, qattiqdir toshdan
Umring kamaytirar yoz ila qishdan.
Nafsi oshsa ketar aqldan-hushdan,
Ul nafsi shaytonni urgan g'animat".

Nafsni tergash, o'zlikka diqqat, dunyo holiga boqish, shaytonni dushman bilish — bularning barchasi o'z ko'lami bilan inson fitrati, tiynatini aks ettiradi. Dunyoviy va diniy, orifona va oshiqona — umuminsoniy mavzular talqinida, har bir shoir so'zida uslubiy o'ziga xosliklar seziladi. Bir shoir o'z qarashlarini ishqiy yo'sinda, oshiq-ma'shuq, yor va ag'yor obrazlari vositasida bayon qilsa, boshqa biri o'z biografik ma'lumotlar bilan mushtarak ravishda ifodalash yo'lidan boradi.

Umuman olganda, turkman xalqining jahon adabiyoti xazinasiga qo'shilgan o'ziga xos munosib hissasi bor. Bu adabiy meros turkman xalqining badiiy tafakkur tarzini, qalbini, ko'ngil kechinmalarini ko'rsatadi.

Har bir xalqning og'zaki va yozma adabiyoti ulkan ummonga mengzaladi. Zamonlar osha bu ummon tiniqlashib, tubidagi dur-javharlar nur sochadi. Asrlardan asrlarga o'tib, insoniyatning ma'naviy mulkiga aylanadi. Qayta-qayta nashr bo'ladi. Tabiiyki, ushbu kitobga jamlangan ko'plab turkman shoirlari ijodidan ayrim namunalar ilk bor o'quvchilar hukmiga havola qilinmoqda. Shu bilan birga turkman adabiyoti tarixida haligacha dunyo yuzini ko'rmagan, qo'lyozma fondlarida saqlanayotgan shoirlar ijodi o'z tadqiqotchilarini kutib turgan bo'lsa ajabmas. O'quvchilar ushbu kitob vositasida Shaydoyi, Ma'rufiy, Mahmud G'oyibiy, Murod Tolibiy, Kamina, Sayidiy, Gurt o'g'li, Zinhoriy, Kotibiy, Zaliliy, Do'stmammat, Matajiy, Oshiqiy, Miskinqilich, Orif va boshqa mumtoz turkman shoirlari ijodidan tanlab olingan adabiy namunalardan bahramand bo'ladi. Shuningdek, ayrim turkiy xalqlar adabiyoti tarixida bo'lganidek turkman shoirlari orasida ham zullisonaynlari bor edi. Deylik, Jahonshoh Haqiqiy, Bayramxon, Abdu-

rahimxon Turkman, Davlatmamat Bolqizil, Abdusattor Qozi kabi ayrim turkman shoirlari fors tilida ham she'rlar yozgani ma'lum. Turkman adabiyoti tarixi, xususan, she'riyatiga xos bo'lgan xususiyatlarni, turkman shoirlarining sharq mumtoz adabiyoti xazinasiga qo'shgan hissasi, sharq adabiyotidan ta'sirlanish omillarini tasavvur qilish uchun ham mazkur majmua yordam berishi tabiiy. Darvoqe, turkman mumtoz shoirlaridan Ozodiy, Maxtumquli, Mullanafas, Andaliblar uchun ushbu loyiha doirasida alohida jildlar ajratilgani bois ayni kitoda boshqa turkman mumtoz shoirlarining she'rlari xronologik asosda jamlandi.

To'plamga kiritilgan turkman mumtoz she'riyati bilan bog'liq ko'plab ma'lumotlar, she'rlarning tarjimalari Turkmanistonning Dosho'g'uz viloyati, Dosho'g'uz tumanida yashab ijod qilgan tarjimon, jurnalist va pedagog Olim To'rayev (1945–2015) qalamiga mansub. Shu bilan birga kitobdan Muzaffar Ahmad, Ergash Ochilovlarning tarjimalari ham o'rin oldi.

Ko'pmingyillik turkman adabiyoti gulshanidan terib olingan ushbu guldasta muhtaram she'riyat muhiblariga manzur bo'lishi tabiiy.

Bahodir Karimov,
filologiya fanlari doktori, professor

JAHONSHOH HAQIQIY

Qoraqo'yunli turkmanlariga shohlik qilgan Jahonshoh Haqiqiy o'z davrida davlat ishlaridan tashqari she'rlar yozib shoirlikni yuksak darajaga ko'tara olgan shaxsdir.

Qoraqo'yunlilar davlatiga Qora Yusuf asos solgan. Uning o'g'li Jahonshoh Haqiqiy 1405-yilda tug'ilgan. 1437-yilda u Qoraqo'yunlilar davlatining yo'lboshchisi bo'ladi. Asli bir avloddan bo'lsa ham, qoraqo'yunli turkmanlari bilan oqquyunli turkmanlar orasida ziddiyatlar bo'lib turgan... Shoir 1467-yilda Mush cho'lida 62 yoshida vafot etadi.

Jahonshoh Haqiqiy asosan g'azal janrida ijod qilgan. Bir qancha ruboiylari ham bor. Zamondoshi Abdurahmon Jomiy bilan do'st tutingan.

MOLINA

Tushma zamona fikrining dardisari xayolina,
Bo'lma xirsli dunyoning ganj ila mulk-u molina.

Jannati visoli dilbar kel talab et Allohdan,
Jannatga vosil bo'lmagan yetmas aning visolina.

Xulq ila jamol odamda yaratdi ul menligi,
Ofarin, ul Jamilaning xulqina va jamolina.

Og'ziga va miyoniga bir nechakim boqsam dedim,
Yetmadi zarracha ham aqlim uning xayolina.

Lam'ai husni suvrati tanai aftoda etar,
Qudrat ila chekar qalam qoshlarining hilolina.

Xilqatining turobiga orifon sujudg'a kel,
To yetarsan bu hilqatning ma'rifati kamolina.

Lutfi jamol vaslini kel talab et Haqiqiyga,
Shubhalar qilmagil uning lutfi-yu jamolina.

HAYRONIDIR

Ey, ruhing gulzori jannat sochlaring rayhonidir,
Vey, dudog‘ing obi hayvon jon uning hayronidir.

Suvrating lavhinda haq chekmish kamoli qudratin,
Ahsani surat kamoli qudrati rahmonidir.

Mo‘minning qalbindadir ahli “yo-hu”ning ravzasi,
Orifi asrori Haq shul ravzaning rizvonidir.

Ey, ki husningdir kamoli qudrati rahmonimiz,
Qudrati rahmona hayron bo‘lmagan shaytoniydir.

Dilbaring yo‘linda gar ahli san bo‘lgil jon fido,
Tarki jon etmak bu yo‘lda umri jovidonidir.

Kel, ki yondirdi meni hasratda ishqing otashi,
Sharbati vasling bu dardli hastaning darmonidir.

Ey Haqiqiy, Haq senga bo‘ldi zi fazli mustaqim,
Shukr ayyomi visolg‘a rahmati Rabbonidir.

AYLADI XAROB

Kel, kelki tushdi so‘zi firoqinda jonga tob,
Xilvatsaroy ko‘nglimni hijr ayladi xarob.

Yo Rab, ne dard emishki g‘ami ishqing oshiqqa,
Ne fikri dunyo qo‘ydi, ne fikri din-u xob.

Partavi jamolingdin chu ey nuri chashmi dil,
Monandi charx bo‘lmisham az ishqi ofitob.

Yo Rab vujud-u zotinga vosil bo‘lmasin ki rind,
Nasib o‘lsin dushmanig‘a ta’bi tob .

To shona qildi turrai anbar afshon sochini,
Aflokiyoni ishq anga tutdi mushki nob.

Bo‘ldi asir donai xolina jon qushi,
Domi baloga soldi meni zulfi pech-u tob.

Kel, kelki sendan ayro Haqiqiy bu so‘zi dil,
Chekdi firoqi otashin hajrinda bas azob.

NE YERDA BOR

Qadding kabi sutuda sanobar ne yerda bor,
Anbarafshon soching kabi anbar ne yerda bor.

Xati ruhing ki oyatga zarbulmasal emush,
Bu husn ila hututi muabbir ne yerda bor.

Shirin labing hadisi ki jon baxshi olam ast,
Bu zavq ichinda holi muqarrar ne yerda bor.

Husni bayozig'a tushdi donayi siyoh,
Bu tavr ichinda holi mudavvar ne yerda bor.

Ul qalamki qudrati chekmish jamolinga,
Naqqoshi Chinda bo'yla musavvir ne yerda bor.

Bodi saboda nekxati zulfi ruhing kibi,
Rizvon ichinda bo'yi muattar ne yerda bor.

Ichdi Haqiqiy jomi labing xamrini dedi,
Bu davr ichinda mohi muanbar ne yerda bor.

JOHI KO‘NGLIMNING

Ey soching, zulmat ruhing mehr ila mohi ko‘nglimning,
Hoki dargohindadir iqboli johi ko‘nglimning.

Vojib o‘lmushki menga qilmoq musahhar olamni,
Chun ikki olamdin sensan podshohi ko‘nglimning.

Ey, xotin, shoninda munzal, oyati ummul kitob,
Lavhi mahfuzingdadir Haqdan guvohi ko‘nglimning.

Hasratining dardi meni yoqdi firoqing norina,
Jannati vaslinda o‘ldi uzrxohi ko‘nglimning.

Ey, Toji xisravdir sening, zulfingdan ey sultoni husn,
Farr-u iqboli saodatdin kulohi ko‘nglimning.

Oftobi surating zulfi parishoningdadur,
Shul sababdan ravshan o‘lmishki siyohi ko‘nglimning.

G‘amzai xunrez bilan qilding musaxxar olamni,
Chun xat-u holingdadur lashkar sipohi ko‘nglimning.

Vahdating uyinda mahv o‘ldi Haqiqiy to abad,
Turi ishqingdir azaldan takyagohi ko‘nglimning.

AHLI JANNATNING

Ey, jamoling surati rahmoni ahli jannatning,
Ey, dudog‘ing chashmayi hayvoni ahli jannatning.

Kufri zulfing istivosidir sirotal mustaqim,
Orazing nurindadir iymoni ahli jannatning.

Sadradir sarvi gulandoming ruhining osmoni xush,
Lavhi mahfuzindadir Qur’oni ahli jannatning.

Ey, xating ummul kitobi rahnamosi olamning,
Vey, visoling ravzayi rizvoni ahli jannatning.

Domani vaslindadir dorul huludi oshiqning,
Domi zulfing bandidir zindoni ahli jannatning.

Dilbarning ishqinda gar meng aylasa zohid meni,
Vojib o‘lmish dardimda shaytoni ahli jannatning.

Chun Haqiqiy kimki kashf aylar jamoling oyatin,
Sharhi anfosindadir burhoni ahli jannatning.

MENING

To azaldan tushdi ul yor bilan bozorim mening,
Furqatidan arshga chiqdi nolayi zorim mening.

Rozi ishqing jonimning ichinda saqladim vale,
Oqibat fosh bo'ldi pinhon ganji asrorim mening.

Dilbarning yo'linda qurbon bo'lgali ey muttaqiy,
Bo'lmagil nosih ki bordir unda iqrorim mening.

Ravzayi rizvon muattar bo'ldi az bo'yi labash,
To guli handoninni ko'rsatdi gulzorim mening.

Shul mukarram pokiza gavharki yo'qdir qimmati,
Kim durur olamda ul yori vafodorim mening.

Sendan ayro yo, Rab, bo'lmasin bu charxi ro'zigor,
Kel, ki sensan dunyo-yu uqboda dildorim mening.

Chun haqiqiy ko'rdi ul ma'shug'ining ruxsorini,
Davlati iqbolga yetdi baxti bedorim mening.

RUBOIYLAR

1

Ey visoling ravzayi rizvonimiz,
Ham dudog‘ing chashmayi hayvonimiz,
Iki olamda o‘zingsan jonimiz,
Kufri zulfing sharhidir iymonimiz.

2

Dushmaning daf’iga chora jang bo‘lur,
Qochsa kim mardlik yo‘linda lang bo‘lur,
Yor bilan, kim dovyurak, hamrang bo‘lur,
Anglamay johilning aqli tang bo‘lar.

3

Yori dilbar ul buti ayyor[1] emish,
Kokili anbar, yuzi gulnor emish,
Dardida oshiqning ishi zor emish,
Vasli bog‘i ravzayi gulzor emish.

4

Barhayot oftob kabi senda jamol,
Yuzlaring oy, ikki qoshingdir hilol,
Lablaringning chashmasi obi zilol,
Oyati Haqdir yuzingda xatt-u xol.

[1] **Buti ayyor** — go‘zal mahbuba.

5

Lablaring la'lini xandon istaram,
Lablaringdan obi hayvon[1] istaram,
Har iki olamda bir jon istaram,
Jonni men yo'lingda qurbon istaram.

6

Shum jahonga sen-da ag'yor[2] bo'l, ko'ngil,
Yoringga yori vafodor bo'l, ko'ngil,
Jon fido et — mahkumi dor bo'l, ko'ngil,
Vahdat[3] ko'yida xummor bo'l, ko'ngil.

7

Gul yuzing sham'ina jon parvonadir,
Dil visoling ganjiga vayronadir,
Ahli ishqning mayli chun sen jonadir,
Shu tufayli ko'ngli hasratxonadir.

8

Xusrava[4] ko'p zulm-u bedod aylama,
Oshig'ing monandi Farhod aylama,
Azmi hijron, jabr bunyod aylama,
Shum raqibning ko'nglini shod aylama.

---

[1] **Obi hayvon** — tiriklik suvi, obi hayot.

[2] **Ag'yor** — begonalar; dushmanlar.

[3] **Vahdat** — Olloh taoloning birligi, yagonaligi. Bu tushunchaga ko'ra borliq yagona bir vujuddan, olamdagi barcha narsalar uning tajalliysi — namoyon bo'lishidan iborat.

[4] **Xusrav** — "Farhod va Shirin" dostonlari qahramoni bo'lgan eronlik hukmdor.

9

Ey soching zilli[1] Ilohning soyasi,
Har so‘zing olamning sarmoyasi,
Aql pirining bo‘libsan poyasi[2]
Sendadir irfoni ishqning doyasi.

10

Ber ko‘ngil ul gul’uzora toabad,
Qo‘y boshingni poyi dora toabad.
Bu jahon-u oxirat bo‘lsin harom,
Bo‘lmasa kim lol u yora toabad.

11

Ey xat-u xolingda xoling fitnasi,
Qoba qavsayning[3] hiloling fitnasi,
Nargisi mastingda oling[4] fitnasi,
Tutdi olamni jamoling fitnasi.

12

Sirri hikmat kuntu kanzan[5] rozidir,
Vahdat orifi uning hamrozidir,
Ishqbozlik qil, na shatranjbozidir[6],
Nafsiga kim bo‘lsa ustun qozidir.

---

[1] **Zill** — soya.

[2] **Poya** — daraja, martaba, maqom.

[3] **Qoba qavsayn** — ikki yoy oralig‘i. Me’roj kechasi qurb manzilida Alloh taolo va Muhammad alayhissalom yoki yo‘lda Payg‘ambar va Jabroil farishta oralaridagi masofani bildiradi. Ikki qoshning yoki ko‘z oq-u qorasining bir-biriga yaqinligiga ham ishora qilinadi.

[4] **Ol** — makr, hiyla, firib.

[5] **Kuntu kanzan** — Hadisi qudsiyning boshlanish so‘zlari bo‘lib, uning to‘la tarjimasi shunday: “Ey odam farzandi, albatta, men (Iloh) bir yashirin xazina edim, o‘zimni oshkor qilayin deb, butun xalqni yaratdim”.

[6] **Shatranjboz** — shaxmat o‘ynovchi.

13

Kimki bilmas ul jahonning zotini[1],
So‘rmagil undan uning isbotini,
O‘ynamas shatranji ishqing otini,
Ko‘rmagan bu ruq’aning[2] shoh motini.

14

Ey mukammas suratu husn-u jamol,
Davlating davrinda bo‘ldi jon visol,
Ravzayi rizvonu hur ul-ayn[3] sening
Bo‘ldi husning oldida hayron-u lol.

15

Kel, dilimni tilding, ey jon porasi,
Sendadir bu zaxm-u dardim chorasi,
Qildi jonimni ado g‘am porasi,
Toqatim yo‘qdir yana yolborasi.

16

Toki men azmi dilorom ayladim,
Tarki fikr-u sabr-u orom ayladim,
Bevafo savdolari xom ayladim,
O‘zni bu olamda neknom[4] ayladim.

17

Ey malak mulkinda husning oftob,
Qomating — sidra[5], yuzing — ummul-kitob[6].

---

[1] Zot deganda tasavvuf ahli Mutlaq ruhning o‘zini, ilohiyot olamining javhari, ya’ni abadiy va azaliy Vahdatning mohiyatini tushunganlar.

[2] **Ruq’a** — xat, maktub.

[3] **Hur ul-ayn** — oq yuzli, qora sochli, qora ko‘zli go‘zal.

[4] **Neknom** — yaxshi nom olgan.

[5] **Sidra** — yettinchi osmondagi daraxt.

[6] **Umm ul-kitob** — kitoblar onasi, ya’ni Qur’oni karim.

Jonimi g‘am yoqdi hijroningda tob,
Shavqi ishqing qildi bag‘rimni kabob.

18

Ey ikki olamda husnung oftob,
Mus’hafi[1] yuzing emish umm ul-kitob,
Tushdi jonga otashi hajringda tob,
Shavqi ishqing qildi bag‘rimni kabob.

19

Ey visoling jannatobodi ko‘ngil,
Ey sening ko‘yinda bunyodi ko‘ngil,
Bo‘ldi mehri ishqing ustodi ko‘ngil,
Tutdi olamni surur — shodi ko‘ngil.

20

Avval-u oxirda chun bir zot emish,
Vahdoniyat[2] sha’nina isbot emish,
Mus’haf — xatt-u yuzi — oyot[3] emish,
Gul yuzisiz hammasi barbod emish.

21

Ey labing mayi tahuri[4] ko‘ngliming,
Soyai sochingda nuri ko‘ngliming,
Yo‘qdir ishqingda qusuri ko‘ngliming,
Shu jihatidandir huzuri ko‘ngliming.

---

[1] **Mushaf** — Qur’on.

[2] **Vahdoniyat** — birlik, yagonalik.

[3] **Oyot** — oyatlar.

[4] **Mayi tahur** — pok, musaffo may.

22

Ey xating majmuai xayr ul-kalom[1],
Yuzlaring tegrasida mohi Siyom[2],
Ey dudog'ing kavsari[3] yuhyil-izom[4],
Ka'bai Haqdir, jamoling, vassalom!

23

Ey hadising[5] nuktayi[6] xayr ul-kalom,
Shavqi la'lingdan jahonni tutdi jom,
Yuzlaring tegrasida Bayt ul-harom[7],
Qoshlaring mehrobdir, yuzing imom.

24

Ey hadising mazhari[8] kavn-u makon[9],
"Vaz-zuho"[10], "Val-layl"[11], "Vash-shams"[12] va
"Duxon"[13],

---

[1] **Xayr ul-kalom** — so'zlarning yaxshisi.

[2] **Mohi Siyom** — Siyom oyi. Rivoyatga ko'ra Muqanna nomi bilan mashhur bo'lgan Hakim Ibn Ato simob va boshqa shu kabi moddalar aralashmasidan yasagan va Siyom tog'i etagidagi chohdan ikki oy mobaynida har kecha chiqaradigan va go'yo nuri to'rt farsang (24 km) ga yetadigan oy. U Naxshab va Muqanna oyi nomlari bilan ham yuritiladi.

[3] **Kavsar** — jannatdagi hovuz, buloq. Uning suvi asaldan shirin, qor va sutdan oq bo'lib, ichgan kishi abadulabad tashnalik nimaligini bilmaydi.

[4] **Yuhyil-izom** — suyaklarni tiriltirish.

[5] **Hadis** — so'z, nutq.

[6] **Nukta** — chuqur ma'noli so'z; hikmat.

[7] **Bayt ul-harom** — Ka'ba.

[8] **Mazhar** — ko'rinish, aks. Biror narsaning zuhr yetadigan eri.

[9] **Kavn-u makon** — olam, borliq.

[10] **"Vaz-zuho"** — Qur'oni karimning 93-surasi: "Choshgoh vaqtiga qasam".

[11] **"Val-layl"** — Qur'oni karimning 92-surasi: "Kechaga qasam".

[12] **"Vash-shams"** — Qur'oni karimning surasi: "Quyoshga qasam".

[13] **"Duxon"** — Qur'oni karimning 44-surasi. Muqaddas kitobga shak-shubha bilan qaragan mushriklar osmondan tutun — g'ubor yog'iladigan kun bilan ogohlantirilganlari uchun sura "duxon" — "tutun" deb atalgan.

Ey sifotingdan[1] kalomi Haq bayon,
Lavhi mahfuzingda[2] kashf bo‘ldi ayon.

25

Oy yuzing Bayt ul-haromi ko‘ngliming,
Ko‘zlaring nozi imomi ko‘ngliming,
Kavsari yuhyil-izomi ko‘ngliming,
Lablaring may birla jomi ko‘ngliming.

26

Oy yuzing mohtobi tobi[3] ko‘ngliming,
Bu jamoling oftobi ko‘ngliming,
Ey xating umm ul-kitobi ko‘ngliming,
Surating yovm ul-hisobi[4] ko‘ngliming.

27

Vahdat nuri yuzing mahtobidir,
Kechaning sirri soching itnobidir[5],
Bodai kavsar labing sharobidir,
Masti ishq ul bodaning g‘arqobidir.

28

Ey yuzing asmo’i[6] maqsudoti g‘ayb,
Ey sifoting zoti mavjudoti g‘ayb,

---

[1] **Sifot** – sifatlar. Ilohiy zotning ayonlashuvi, uning qudrat va xususiyatlari. Barcha ruhiy va moddiy olamlar, jumladan inson ham shu sifatlardan iborat.

[2] **Mahfuz** — saqlangan, yashirilgan, muhofaza qilingan.

[3] **Mohtobi tob** — porloq oy.

[4] **Yovm ul-hisob** — hisob kuni, qiyomat.

[5] **Itnob** — batafsil, sharh-u izoh bilan gapirish.

[6] **Asmo** — ismlar. Bu erda asmoi husna — Allohning go‘zal ismlari ko‘zda tutilmoqda – ular 99 ta.

Shohid-u mashhud[1] misoling zoti g‘ayb,
Senga vojib bo‘lmish isboti g‘ayb.

29

Masnadi iqboli davlat bo‘lmisham,
To sening ko‘yingda qo‘ydim yuz yera.
Sharh-u tavsifi jamoling so‘ylasam,
Ko‘rsatar bir damda ma’ni yuz yera.

30

Ey kiyib ishqi libos-u zirhini[2],
Aslini bilmas ne bilsin far’ini[3],
Yor yo‘lida, ey ko‘ngil, bo‘l ustuvor,
Kel, bayon ayla bu sevgi sharhini.

31

Vahdat mohtobi tobidir yuzing,
Zulmat kashfi hijobidir[4] yuzing,
Tavhid ahli kitobidir yuzing,
Orif yovm ul-hisobidir yuzing.

32

Nuktayi[5] tavhid kanz ul-Alloh[6] emish,
Vahdat ko‘yida tanho shoh emish,

---

[1] **Shohid** — hozir, dalil, qalbdagi holat, g‘oyib bo‘lgan narsani ko‘rsatadigan va qalbga huzur baxsh etadigan narsa. **Mashhud** — shohidning ko‘rsatgani, ko‘rinadigan tajalliy.

[2] **Zirh** — sovut.

[3] **Far’** — qism, bo‘lak.

[4] **Hijob** — parda.

[5] **Nukta** — nozik va teran ma’noli so‘z, hikmat.

[6] **Kanz ul-Alloh** — Allohning xazinasi.

Olmagan tan ishqini gumroh emish,
Ko‘ngli mo‘minning unga ogoh emish.

33

Suvidan Kavsarni labing suvi sof,
Sajda ahli husning aylar tavof,
Makr-u hiyla bo‘ldi ma’nida xilof,
Yetdi mo‘minga Xudodan la taxof[1].

34

Ishq o‘tidan tushmisham biryona men,
Men qachon bu ishq o‘tidan topaman?
To abad ishqing o‘tin tark etmagum,
Gar bu hasrat otashida yonaman.

[1] **La taxof** — qo‘rqmaslik.

BAYRAMXON TURKMAN

(1497–1561)

Hind zaminida yashab turkmanlarning shon-sharafini yuksaltirgan Bayramxon ajoyib shoir va jasur sarkardaligi bilan el orasida hurmat qozongan buyuk insondir. Muhammad Bayramxon Turkman taxminan 1497-yili Badaxshon viloyatining "Qal'ai zafar" degan joyida, Sayfalibeg oilasida tug'ilgan. Uning bobosi Yorlibeg va otasi Sayfalibeg ham Muhammad Bobur qo'shinida xizmat qiladi. Ularning Boburga bo'lgan sadoqatini keyinchalik Bayramxon davom ettirgan. U uddaburonligi, botirligi, kurash sirlariga mohirligi, odamiyligi bilan Bobur shohning ko'nglidan joy oladi.

Shu bois Bobur uni o'z o'g'li shahzoda Humoyunning qo'riqchisi qilib tayinlagan. Bayramxon jangdagi jasoratlari, qo'shinni ahil, ko'tarinki ruhda saqlay olganligi uchun Xonlar xoni degan nomga ega bo'lgan. Turkiy va forsiy tillarda ijod qilgan. 1561-yil boshida dushmanlari tomonidan qatl qilinadi.

XIROMONGINAM

Ey, chamani jon aro sarvi xiromonginam,
Umrim gulistonida g‘unchayi xandonginam.

Ko‘zga meni ilmagan, bir bor nazar qilmagan,
Ko‘nglim olib bilmagan dilbari xandonginam.

Ham o‘zi yaxshigina, ham ko‘zi yaxshigina,
Ham so‘zi yaxshigina yori suxandonginam.

Ey, yuzi gul-gulgina, sochlari sunbulgina,
Qilma tag‘ofilgina, bo‘lma pushaymonginam.

Ey, qaddi chobukkina, vey labi nozikkina,
Vey, so‘zi o‘trukkina, va’dasi yolg‘onginam.

Vositai davlati vasling agar bo‘lmasa,
Mehnati hijron aro chiqqusidir jonginam!

YOR ILGIDAN

Bodayikim, ichdim ul sho‘xi sitamkor ilgidan,
To hayotim bordurur kayfiyatim bor ilgidan.

Ilgima olib ayoq hushimni berdim bir yo‘la,
Sharob ich deb chun ishorat qildi izhor ilgidan.

Shisha yanglig‘ qon to‘kub, sog‘ar kabi qondur ichim,
To bilibdur shisha-yu, sǫg‘ar namudor ilgidan.

Ko‘rmayin ilgiga har dam el ko‘zi tushmagin deb,
Bordurur ko‘zim hamisha xunbor ilgidan.

Mast-u loya’ḳil bo‘lur ermish tamomi umrida,
Bedili kim qatrayi may no‘sh etsa dildor ilgidan.

FARYOD QILAY

Necha hijron g‘amidin nola-yu faryod qilay,
Hosili umrni faryod ila barbod qilay.

Necha ko‘z lavhida tasvir etibon suvratini,
Dam-badam xotir onin ko‘rmagidin shod qilay.

Necha vaslini tilab, hajrida xursand bo‘lay,
Necha umidi birla jonima bid’at qilay.

Necha g‘urbat aro bekaslik oti birla kuyib,
Motamiylar kabi o‘z holima faryod qilay.

Necha jonima firoqida o‘t tushib,
Ani besabrligimdan kuyinib yod qilay.

Necha ishqida buzib sabr-u salomat vatanin,
Necha anduh-u malomat uyin obod qilay.

Necha zulfiga giriftor bo‘lub zor bo‘lay,
Kelki, o‘zni bu balo qaydidan ozod qilay.

Bayram-o, yorg‘a vafo rasmi odat emas,
Endi jonimni jafosiga mo‘tod qilay.

ASAR ANDAN

Ko‘zim uchadur, to ko‘ra olgay asar andan,
Ko‘nglim o‘sadurkim ola olgay xabar andan.

Vohkim, nazarim o‘trusida jilvagar ermas,
Ulkim, ko‘tara olmas edim bir nazar andan.

La’li o‘ti gulgun sirishkimni qilur tez,
Zohir bo‘ladur qatrayi xuni jigar andan.

Bunyodi balo qilmadi to‘foni sirishkim,
Kim yer birla ko‘k bo‘lmadi zer-u zabar andan.

Bayram ki so‘rog‘ aylar edi og‘zi nishoni,
La’lini so‘rib bo‘ldi so‘zi muxtasar andan.

BENAVOLARGA

Xush ulkim, sarvinozim rahm qilgay benavolarga —
Nechukkim podisholar marhamat aylar gadolarga.

Agar ul shohi xubon lutf ila bo‘lsa xaridorim,
Gadoyiman, ki istig‘no sotarman podisholarga.

Latofatlik go‘zallar umr yanglig‘ bevafodirlar,
Mening jonimdur ulkim o‘xshamaydur bevafolarga.

Demakim noz ila ikki labi vasfin ado qilgay,
Masiho bo‘lsa ham jon bergay ul nozik adolarga.

Balolardur menga ul ko‘z bila zulfu qadd-u kokil,
Ne balo ko‘y edikim, uchradim mundog‘ balolarga.

TOPILMAS

Men zorga sendek yana bir yor topilmas,
Sen yorga mendek yana bir zor topilmas.

Ko‘p zor sanga bo‘ldi giriftor lekin,
Mendek yana bir zori giriftor topilmas.

Olamda go‘zal ko‘p topiluru lek seningdek,
Berahim-u jafojo‘-yu dilozor topilmas.

Vah, vah, bu ne so‘zdurki ko‘ngul mastlik ichra,
Husn ahli aro sen kabi dildor topilmas.

Yo rab, manga tole’i bargashta tururkim,
Sargashta bo‘lib izlasam yor topilmas.

Eldin ta’mai mehr-u vafo aylama Bayram,
Chun olam aro yori vafodor topilmas.

HIJRON EMISH

Yorsiz jonimni olg‘on mehnati hijron emish,
Mehnati hijron demangkim, baloi jon emish

Xanjarin shavqi, yuzung mehri-yu la’ling hajridin,
Ko‘kragim choku, yurak yuz pora, bag‘rim qon emish.

Komi la’lingdin visol ayyomida dushvor edi,
Yo‘qsa jon bermak firoqing sha’mida oson emish.

Na balodurkim, qutulmoq yo‘q zamona hajridin,
Qismatim go‘yo azaldin mehnati hijron emish.

Besar-u somon debon Bayramni, ey nosih anga,
Pand etma, kima parvoyi jon-u jahon emish.

BO‘LMADI HARGIZ

Fig‘onki yor menga yor bo‘lmadi hargiz,
Anisi xotiri afgor bo‘lmadi hargiz.

Kichik yoshda giriftor g‘amin ne bilar,
Ki hech g‘amga giriftor bo‘lmadi hargiz.

Ne ayb forig‘ agar bo‘lsa zorlar g‘amindin,
Birov firoqinda chun zor bo‘lmadi hargiz.

Menga muxolifat izhori qilma kim mendin,
Bejiz muvaffaqiyat izhor bo‘lmadi hargiz.

Ne holdirkim Bayram jafo chekib umri,
Inoyatingga sazovor bo‘lmadi hargiz.

SOCHING

Qoshinga tushgali ey sarvi guluzor soching,
Meni yel esgandek qildi beqaror soching.

Firoqi yor-tuni bo‘ldi subhi ravshan vasl,
Tararda tushgali yuzingga tor-tor soching.

Ochilsa bir nafasga mushk isi taralgandek,
Muattar ayladi olamni mushkbor soching.

May ichra obi hayot ayladi nihon og‘zing,
Gul ichra sunbuli tar qildi oshkor soching.

Asiri ishqing emas o‘zligi bilan Bayram,
Solibdir uni bu savdoga ey nigor soching.

KO‘ZLARING

Aylab shior shevayi bedod ko‘zlaring,
Olamni qatl ayladi jallod ko‘zlaring.

Islom kishvarinda beruftod ayladi,
Ayini adl-u qoidai dod ko‘zlaring.

Yetmasmidi burung‘i balosi ki g‘amzadin,
Kasb ayladi tariqayi bedod ko‘zlaring.

Ahli huzur xotirini sayd qildilar,
Sayyodlik tariqida ustod ko‘zlaring.

Bo‘ldi yaqin zuhuri qiyomatki bo‘ldilar,
Ikki g‘izol, yana ikki sayyod ko‘zlaring.

Xush ul zamonki bir nazari marhamat izhor,
Qilgan ko‘ngili qayg‘udan ozod ko‘zlaring.

Chun tark ayladi nazari lutf odatin,
Bayramni qildi g‘am ila mu’tod ko‘zlaring.

GADOLARG‘A

Xush ulkim sarvinozim rahm qilg‘ay benavolarg‘a,
Nechukkim podsholar marhamat aylar gadolarg‘a.

Agar ul shohi xo‘bon lutf ila bo‘lsa xaridorim,
Gadoyiman ki istig‘no sotarman podsholarg‘a.

Latofatlig‘ yigitlar umr yanglig‘ bevafodirlar,
Mening jonimdir ulkim o‘xshamaydir bevafolarg‘a.

Damikim noz ila ikki labi vasfin ado qilg‘ay,
Masig‘o bo‘lsa ham jon bergay ul nozik adolarg‘a.

Balolardir menga ul ko‘z bila zulf, qadd-u kokil,
Baloko‘yi edikim uchradim mundog‘ balolarg‘a.

Yuzin ko‘rsatdi, ko‘nglim olib yoshurdi ruxsorin,
Ki mundin so‘ng ko‘ngilni bermagaymen dilrabolarg‘a.

Gadoyi benavodir Bayram yo‘lingda haq bo‘lgan,
Tariqi mehr ila gohi guzar qil benavolarg‘a.

Bilmadim zamon sultoni, bilmadim shohi diyor dil,
Goh mehr ko‘rsatur yuz ruxsorlig‘ asorlarg‘a.

Ilohi to diyor Rumdan nom-u nishon bo‘lg‘ay,
Ani farmonravo qil jami farmonravolarg‘a.

BO‘LG‘AYMEN

Necha ey, gul visoling bazmidin mahrum bo‘lg‘aymen,
Tilar men Tangridinkim bir yo‘la ma’lum bo‘lg‘aymen.

Gulistoni jamoling birla el masrur vah tokay,
Bo‘lib ag‘yori mahram men ne deb mahrum bo‘lg‘aymen.

Vafog‘a ot chiqordim ko‘p jafo tortib zihi davlat,
Ki ahli ishq aro bu ishimg‘a mavsum bo‘lg‘aymen.

Base g‘amlar ko‘rib, jonlar chekib majhulmen Bayram,
Magar jon topshirib yor oldida ma’lum bo‘lg‘aymen.

* * *

Izlaring Ka'badir saodat menga,
Yuzlaring qibladir ibodat menga.
Xush bo'lar bo'shatsang gar bandilikdan,
Etib ixlos ila inoyat menga.

* * *

Shaharda shovqu bor bozor xush o'lsa,
Oqar suv shildirab bog'lar xush bo'lsa.
Bugun payshanbada Ansoriy pirga,
Tavof etsak agar chog'lar xush bo'lsa.

* * *

Foniyda baland ham past bo'lganlar bor,
Boqiylik jomidan mast bo'lganlar bor.
Bor narsa hammasi yo'q bo'lar bir kun,
Ammo boqiy qolar do'st bo'lganlar bor.

* * *

Yuzlaringda sof oynani ko'rarman,
Jilolangan oq yaylovni ko'rarman.
Bugun quyosh oldin to'sibdir bulut,
Endi netib men lolani ko'rarman.

* * *

Ey, barcha insonning fikrini bilgan,
Xohishini bilgan shukrini bilgan.

Tillarda sanodir muborak oting,
Tillar sanolidir zikringni bilgan.

* * *

Ey, ko‘kning falagi bir gavhar toshsiz,
Shohlar saf tutishib oldingda kuchsiz.
Bizni buyuk qildi yopgan sarupong,
Kim buyuk bo‘libdi sarposiz tojsiz.

* * *

Oshiq bulbullarning qiblasi sensan,
Yuz jon orzu qilar lablaring emsam.
Barcha atrofingda go‘yo kapalak,
Muqaddas ruh kabi ravshan shamsan.

* * *

Zulfining har tori yuragim bog‘i,
Yuragim har bog‘i zulfining tori.
Har nega boqsamda senga o‘xshamas,
Hech kim topa olmas sen kabi yori.

* * *

O‘zingni tanimoq istasang hargiz,
Allohga shukr et kecha-yu kunduz.
Darvishlar talabi yetar kamolga,
Talab et, talash et, darvish bo‘l yolg‘iz.

ZAFARNOMA

(Qandahor fathnomasi)

Zafar nuri bu dunyoga sochildi,
Do‘st yor ko‘ngli shul sababdan ochildi.

Xudoga ming shukur yana bo‘ldik shod,
Do‘sti yor yuziga boqib kuldik shod.

Do‘stlarning murodga yetganin ko‘rdik,
Zafar bog‘laridan mevalar terdik.

Bugun navro‘z kuni to‘ydir bayram tur,
Do‘st yorlarning ko‘ngillari beg‘amdir.

Mudomo ko‘ngli shod bo‘lsin yorning,
Qayg‘u g‘amdan xalos bo‘lsin diyorim.

Maqsad asboblari tayyor yetishdi,
Ko‘ngil yor visolin ishqiga tushdi.

Endi qachon qonib yor visolidan,
Qachon gul yig‘armiz visol bog‘idan.

Sening kamolingdan quloq shod bo‘lar,
Sening jamolingdan ko‘z yog‘dulanar.

Borib sening huzuringda o‘tirsak,
Vaqtimizni qayg‘u-g‘amsiz o‘tirsak.

Undan so‘ngra Sind fikrini etaylik,
Hind yurtini olmoq uchun ketaylik.

Bu ishlarning choralari ko‘rilsin,
Kashmir diyoriga tezda yurilsin.

Yopiq eshiklarning bari ochilsin,
Istaklardan ham ko‘p rahmat sochilsin.

Zamondan ham zamondoshdan istagim,
Makondan ham makondoshdan istagim.

Yo iloho, yetkaz o‘zing tilakka,
Jumla jahon eltsin bizni yuksakka.

RUBOIYLAR

* * *

Ko‘ying seni Ka’bai saodat bizga,
Yuzing seni qiblai ibodat bizga.
Koshki O‘zing qo‘llasang-u etmasa hukm
Dunyo mehri-yu rasm-u odat bizga.

* * *

Maydan tila bu jahon quvonchin zinhor,
May deydi jahonda har mast-u hushyor.
May bo‘lmasa gar yaratilish vositasi,
May nega azal kuni dedi: “Yo Jabbor!”[1]

* * *

Shahr ichra agar ko‘cha-yu bozor xushdir,
Zeb bergusi har daraxt-u anhor xushdir.
Kun payshanba, havo latifdir g‘oyat,
Bul kunda tavofi piri Ansor xushdir[2].

* * *

Arbobi fano[3] — baland-u past o‘zlaridir,
Har lahza baqo mayi-la mast o‘zlaridir.
Bir kun bu jahon boshdan oyoq yo‘q bo‘ladi,
Boqiy u jahonga payvast o‘zlaridir.

---

[1] **Jabbor** — asmo’i husna — Alloh taoloning go‘zal ismlaridan biri: bandalari ishini isloh etuvchi.

[2] Bu ruboiy Bayramxonning Humoyun Mirzo bilan Eronga borayotganida Hirotda mashhur tariqat piri Abdulloh Ansoriy mozorini ziyorat qilish orzusi bilan yozilgan. – *E.O.*

[3] **Arbobi fano** — oriflar, valiylar.

* * *

Soch qadr tuni-yu qosh hayit oyi bu choq,
Ezgu yuzidan yomon ko‘z bo‘lsin uzoq.
Har qancha yangi ochilgan gul lazzatbaxsh,
Yoqmas unga yangi do‘stlar so‘zi biroq.

* * *

Chehrang poklik ko‘zgusidir – ko‘rsa edim,
Jo unda butun shu’la-yu nur – ko‘rsa edim.
Sen misli quyoshsan bu bulutli kunda,
Bormi sira chorasiki, bir ko‘rsa edim.

* * *

Ey tab’i latif-u ko‘ngli poksan shu qadar,
Ishq ahli tayanchisan-u arbobi nazar.
Yuzimdan agar huzur nurini tilasang,
Hijron tog‘ini tez o‘rtadan ayla badar[1].

* * *

Ey poktab’lar shohi-yu pokiza guhar[2],
Arbobi nazar ichinda eng pok nazar.
Chehramda namoyon et huzur nurini,
Shoyadki, firoq zulmati bo‘lsa badar.

* * *

Bir toifa orif – haqiqat unga mayoq,
Bir toifa Haqning yo‘lidan tushgan uzoq,
Bir toifa qo‘ygan ikki dunyoga taloq,
Har toifa der o‘z yo‘lini to‘g‘ri biroq.

---

[1] **Badar** – nom-nishonsiz ketmoq, dom-daraksiz ketmoq, g‘oyib bo‘lmoq.

[2] **Guhar** – gavhar. Bu yerda: asl, nasl-nasab, kelib chiqish ma’nosida.

* * *

Ey barcha nihon sirlar O‘zingga ayon,
Sen barcha siridan elni(ng) vofiq begumon,
Zikring sira elning tilidan tushmas, ishon,
Ey, ezgu noming qildi tumor har dil-u jon.

* * *

Bu charx mudom aylanadi, aylanadi,
Shohlar-da uning qulligiga shaylanadi.
Men shukr etaman ust-boshimni butligiga,
Bilsang, shu uchun-da bandasi saylanadi.

* * *

Oshiq eli eshiging gadosi, ey yor,
Har lahza shirin labing fidosi, ey yor.
Parvona kabi charx urib atrofingda,
Yuzing shamining barcha adosi, ey yor.

* * *

Ey barcha ilohiy sirlar koni diling,
Ham manbai nurlarning – oshyoni diling,
Dunyo ko‘zi qorachig‘idek o‘rtada bo‘l,
Dunyo ko‘zi qorachig‘i maydoni diling.

* * *

Ey barcha ilohiy sirni bilguchi zot,
Ey barcha nihon sirni kashf qilguchi zot,
Rahm et kuygan, tashna oshiqlaringga,
Ey ko‘ngli hayot suviga teng kelguchi zot.

* * *

Har lahza meni atay faromush etasan,
Ahding unutish bilan diling xush etasan.

Yuz marta rizoman ko‘r-u kar bo‘lmoqqa
Ko‘rmog‘-u eshitmoqni agar tush etasan.

* * *

Mahzun bu dilimga har nafas hamdamsan,
Xulqing kabi o‘zing-da go‘zal, ko‘rkamsan.
Men seni o‘ylagan sari xursandman,
Sen bo‘lsa unutganing sari xurramsan.

* * *

Haq davlati soyasidasan xurram-u shod,
Vasf etsam har qancha, sen undan-da ziyod.
Hajringda kunim qanday o‘tar bilgaysan,
Holimni so‘raysan yana – dod ustiga dod!

* * *

Dilda sochining har halqasidan bir band,
Har bandini jonimga qilibdi payvand.
Har yoqqa nazar qilmay – yo‘q monand unga,
Monandini ko‘rdi kim? Yo‘q unga monand!

* * *

Gar ma’rifat izlab, ilmga esh bo‘lasan,
Tinmay kecha-kunduz, koni tashvish bo‘lasan.
Darvesh kabi komil yo‘q talab ahli aro,
Darveshni talab aylaki, darvesh bo‘lasan!

* * *

O‘t o‘rdi ko‘ngilga otashi pinhonim,
Dard-u g‘am o‘tib haddan, ezildi jonim.
So‘zim parishon bo‘lsa agar ma’zurman,
Holimni parishon ayladi jononim.

ABDURAHIMXON TURKMAN

Abdurahimxon ham Bayramxon kabi turkman-hind do'stligining ustunlaridan biri bo'lgan. U otasi Bayramxon vafot etganida to'rt yashar bola bo'lib, 1556-yilning fevral oyida Laho'r shahrida tug'ilgan. Yetim qolgan bola Jaloliddin Akbar himoyasida bo'ladi. U Abdurahimni o'z singlisi Mohbonubegimga uylantiradi. Ularning oilasidan Shahnavozxon, Daranxon, Rahmondod, Amirulla ismli to'rt o'g'il va Janabegim ismli bir qiz dunyoga keladi.

Abdurahimxon Akbar saroyida tarbiyalangan, yetarli darajada ilm-ma'rifat, harbiy ta'limlar olgan. Uning mardligi, jasorati, qo'shinga sarkardalik qila olish qobiliyati saroyda obro'-martabasining oshishiga sabab bo'lgan. Akbar unga Xonlar xoni, Mirzoxon unvonlarini bergan. Abdurahim 1583-yilda Gujaratda bo'lgan qo'zg'olonni bostirgani uchun "Besh mingboshi" darajasi bilan taqdirlangan.

Abdurahimning harbiy jangovorligi, odamiyligi, aql-idroki yo'lini ochiq qilgan. Shu sabab u uch nafar Boburiy podshohlari, Jaloliddin Akbar, Jahongir va Shohjahon oldida katta obro' qozonadi. U arab, fors, turk, hind tillarini yaxshi bilgan. 1627-yili vafot etadi.

RUBOIYLAR

Ey sevgili yorim mening, beri kel,
Dilbari dildorim mening, beri kel.
Sening ro‘ying ko‘zlarimning ravshani,
Sensiz yo‘q madorim mening, beri kel.

* * *

Ey do‘st, dushman emassan ozoring nima,
Falak emassan, unda bozoring nima.
Ko‘zing baxtimiz emas, uyquda mudom,
Baxting ko‘zimiz emas, bedoring nima.

* * *

Ko‘nglim parishoni g‘am bahoringdandir,
Yurak ham ko‘z g‘ami gulzoringdandir.
Va g‘aming dog‘ikim daf aylarkan kim,
Faqat mayning kayfi ul o‘zingdandir.

* * *

Umringda qimmat zot sening g‘amingdir,
Ming shodlikdan ziyod sening g‘amingdir.
Meni telba qilgan g‘amingdir bilsang,
Bilmasangda bedod sening g‘amingdir.

* * *

Ey ko‘ngil, bu ishda sen yaxshilik et,
Ey jon, kelishgin-u dildoshlik et.

Ey sabr, sen g‘amga chidamasang qoch,
Ey aql, bolasan tortil, doshlik et.

* * *

Ko‘nglim ichra dardim xirmon-xirmondir,
Siynamga nasibli yong‘in hol-holdir.
Ko‘zimning mehmoni ariq suv–seldir,
Ko‘zim daragiga ko‘z yosh ko‘l–ko‘ldir.

* * *

Kim hohlasa hayotimni olsin, qo‘y,
Bosh istasa jallod tig‘in solsin, qo‘y.
Bu yurakdan charchaganman hohlasa,
Tuproq emas yurak beray kelsin, qo‘y.

* * *

Ey do‘st, mendek dardli g‘amxona yasha,
Majlis–ma’rakadan begona yasha.
Bizning o‘timizda Xudoning ishqi,
Mardona sher kabi mardona yasha.

* * *

Qo‘limdan chiqdi bir ajib visolim,
Firoqingdan bor bir ajib malolim.
Mening umr solim qo‘lingdan xarob,
Bir ajib umrim bor, bir ajib solim.

G‘AZAL

Orzularim aniq sonin ayta olmam, anchadir,
Havaslarim qancha bo‘lsa orzularim shunchadir.

Do‘stga do‘stligimdan o‘zga javobim bo‘lmas ani,
Xudo bilar, Xudo bilsa olamni bilganchadir.

Sevgi haqi, qo‘ldan kelsa etgil unga inoyat,
Oddiygina yordamdan ham oshiq ko‘ngli osmonchadir.

Xayol jonimning ofati, uyqu ko‘zimning dushmani,
Bu qovushmoq baxti emas, bu shum yarim kechadir.

Na bir zulfin anglarman-u, na tuzoqni anglamam,
Oyoqdan to boshga qadar kanop o‘raganchadir.

Bu sevgining qonunida qasam ichmoq shart emas,
Oshiqlarning har boqishi aslinda qasamchadir.

Meni sotdi bu muhabbat, ammo uni bilmadim,
Shuni bilgum mushtarim kim, hamda bahom qanadir.

Sening shirin so‘zlaringdan xushxoldirman men Rahim,
Chun do‘sting bodasiga so‘zing bol solganchadir.

G‘AZALLARDAN BAYTLAR

Turmush bilan mehr-muhabbat bo‘ldim,
Ko‘ngil qaysi, sevgi qaysi, yor qaysi.

Ochganda bilinar ishqning pardasi,
Toza yuz qaysidir, uyat, or qaysi.

Jamolingga farishtalar yanglishar,
Yaratilgan qaysi, Birubor qaysi.

Bekorchi emasman axtarsam vasling,
Mendeklarga basdir sening xayoling.

Ko‘zgu ko‘rgan emas aslo visoling,
Yo‘qsa kimga mumkin ko‘rmoq jamoling.

TURLI BAYTLAR

Maqsadim kechalar sharob ichmoqdir,
Sarxush bo‘lib xayolingni quchmoqdir.

Aytib yurma hargiz hunaring haqda,
Ko‘rgazganingdan ham yuz hissa ko‘pdir.

Rahm ayla, o‘qingni yo‘naltir boshqa yonga,
Ilk otgan o‘qing ko‘nglimni bo‘yadi qonga.

Qiyomat kunining so‘nggi yo‘q ammo,
Yuz kuni hijronning bir kuniga yetmas.

Sensiz yig‘lagan kunim uyquga ketsam,
Tush ko‘rdim suv meni g‘arq etib borar.

Jabr-u jafong bu dunyoda boringdir,
Shundanda bu ko‘nglim xaridoringdir.

SHOBANDA

XVIII asr turkman mumtoz adabiyotining eng atoqli namoyandalaridan biri Shobanda taxminan 1720-yilda Vosda tavallud topgan, 1800-yilda vafot etgan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra Shobanda qabri Vosda, Oshiq Oydin maqbarasi yonida joylashgan. Shobanda hayotining ko'p qismi Vos, Ko'hna Urganch tomonlarda o'tgan. U Turkmanistonning boshqa viloyatlarida, shuningdek, Eron va Kavkazda ham bo'lgan. Shoirning asl ismi Abdulla (ayrim ma'lumotlarga ko'ra Abdulnazar), otasini Mami, onasini Davlatbeka der ekanlar. Mami Xiva madrasalaridan birida ta'lim olgan. Shuning uchun uni Mami mulla deb atashgan.

Shobanda — shoirning adabiy taxallusi. Uning Mangli ismli rafiqasi bo'lgan. Shoirning Manglidan Saidnazar, Davlatnazar, Mamatnazar, Annamangli degan to'rt nafar farzandi bo'lgan. Mamatnazardan boshqa uchalasining nevara-chevaralari hozir Dasho'g'uz viloyatining Taxta va Ko'hna Urganch tumanlarida yashaydi.

Shobanda Xiva madrasalarida ta'lim olib, zamonasining ma'lumotli, obro'li kishilaridan biri bo'lib yetishgan. U zamondoshlari Maxtumquli, Kamina, Tolibiy kabi atoqli shoirlar bilan yaqin ijodiy aloqada bo'lib turgan. Mushoiralar o'tkazib, turli joylarga birga sayohat qilishgan. Shobanda shu bilan birga mohir chavandoz, ajoyib sozanda, go'yanda bo'lib yetishgan. Shobandadan ko'pgina lirik she'rlar, "Gul-Bulbul", "Shobahrom", "Xo'jamberdixon" kabi dostonlar meros qolgan.

OSHI BO‘LMASA

Davrada yigitning nomi tutilmas,
Qilig‘i, qilichi, oshi bo‘lmasa.
Yigitning hayvondan hech farqi bo‘lmas,
Muloqoti ham sirdoshi bo‘lmasa.

Yigit uldir kiyinishga havasdir,
Uni kamsitganning o‘zi nokasdir.
Bir yigitga beglik etmak abasdir,
Uyida madori, qo‘shi bo‘lmasa.

O‘g‘ridan mol qochar, mudom och bo‘lar,
O‘g‘ilsiz davlatning so‘ngi puch bo‘lar.
Yo‘qsizlik ham jo‘mard elga hech bo‘lar,
Yegulik non-tuzi, oshi bo‘lmasa.

Har tulkidan qoplon bo‘lmas, sher bo‘lmas,
Maydonda barchalar barobar bo‘lmas,
Har nodondan eshon bo‘lmas, pir bo‘lmas,
Saharlar ko‘zining yoshi bo‘lmasa.

Har kim ko‘rsa oshig‘ining yuzini,
Yor yo‘lida fido aylar o‘zini.
Yakka yigit ko‘tarar el so‘zini,
Mardon o‘g‘li, mard qardoshi bo‘lmasa.

Bema’ni ish uchun do‘stingdan kechma,
Yomondan yiroq bo‘l, yaxshidan qochma.
Shobanda har kimga siringni ochma,
Yoningda e’tiborli kishi bo‘lmasa.

KAM BILAR

Mard yigitga emas, nisbat manmanlik,
Sher bo‘lsa barchadan o‘zin kam bilar.
Bafahm yigitga berilsa beglik,
Dimog‘ bog‘lab, xotirasin jam bilar.

Tulki, shaqal kelmas sherning loshiga,
Nor kerak yukingni tortib tashishga.
Mard qutilar gar ish tushsa boshiga,
Nomardlarning har ishi bir g‘am bo‘lar.

To‘ygan kuni dev “teng kelmas” o‘ziga,
Tan olmaydi aybin aytsang yuziga,
Nomarda yigit kirmas mardning so‘ziga,
Mard yigitlar mardning so‘zin em bilar.

Bir necha yigitga solinsa to‘shak,
Ulardan yaxshidir sigir ham eshak.
Oqilni tan olmas ahmoqlar beshak,
Kimsa so‘z anglaydi, kimsa jim bo‘lar.

Shobanda tushungin bu ham bir zamon,
Odamning odamdan farqi yer-osmon.
Solmoni pok bo‘lsang, yo qozi Luqmon,
Mir Alisher bo‘lsang, qadring kim bilar.

SEVAR YORIM MANGLI

Qoshingga tortibsan surma,
Bugun sevar yorim, Mangli.
Ol yonoqda burma-burma
Qora zulfing — tortim, Mangli.

Ko‘zga ilmas dunyo moli,
Parishondir oshiq holi,
Hazon urdi sen ketgali
So‘ldi bog‘cha, borim, Mangli.

Sensan mening Balx — Urganchim,
Sendan o‘zga yo‘q quvonchim.
Bag‘ring uzra yashir ganjim,
Qizil olma, norim, Mangli.

Choshgoh mahal zulfing tarab,
Oq yuzingga ro‘mol o‘rab,
Shobandangning holin so‘rab,
Kel, ey vafodorim, Mangli.

INSON UCHRASHSA

Ko‘ngil ochilib, jam bo‘lar,
Inson-la inson uchrashsa,
Hush ketar, aql kam bo‘lar,
Til bilmas hayvon uchrashsa.

Kurashda mard boshdan o‘tar,
Nomard aql-u hushdan o‘tar,
Bedov sakrab loshdin o‘tar,
Dushman kelmas qon uchrashsa.

Mard sig‘ingani Allohdir,
Muhannas boshga balodir.
Mard yigit metin qal’adir,
Har yerda dushman uchrashsa.

Bedov ko‘rki bo‘yi — boshdir,
Go‘zal ko‘rki ko‘z-u qoshdir.
Qadr bilmas, go‘yo toshdir,
Befahm-nodon uchrashsa.

Shobanda bag‘ring poradir,
Siynang ham dog‘li, yaradir,
Munkirning yuzi qoradir,
Mahshar kuni maydon uchrashsa.

KOSHKI BIZ

Avvalo, beglar, onadan bo‘lmagaydik koshki biz,
Tug‘ilsam, o‘lsam bu kunga qolmagaydik koshki biz,
Qolsam ul yor jamolini ko‘rmagaydik koshki biz,
Ko‘rsam mehrin ko‘ngilga solmagaydik koshki biz,
Gul uzib bog‘inda bog‘bon bo‘lmagaydik koshki biz.

Avvalo ul yor bizni taxt uzra sulton ayladi,
Ko‘rsatib har dam jamolin vaslini arzon ayladi,
Oldi shirin til bilan aqlimni hayron ayladi,
Avval etgan va’dasini so‘ngra yolg‘on ayladi,
Bor iloha ko‘rmagaydik, kuymagaydik koshki biz.

Baxtimning har chirog‘i goh yonadir, goho o‘chib,
Vasvas aylar telba ko‘nglim, bir qo‘nadir, bir ko‘chib,
Ancha kun bo‘ldim sabili jon ila boshdan kechib,
Ol yonoqlardan o‘pib, ul nozik bellardan quchib,
Shahd-u shakar lablaridan so‘rmagaydik koshki biz.

Ishqida Shobandaman, fikr-u farosat qolmadi,
Kechalar tilda sano yo‘q, zikri toat qolmadi,
Naylayin bechoradirman, sabri toqat qolmadi,
Ko‘zda g‘aflat, tanda ishrat, jonda rohat qolmadi,
Jon berib bir bo‘sa labdan olmagaydik koshki biz.

JAFO AYLADI

Bir yorning yo‘lida sargardon bo‘lib,
Bu jonima buncha jafo ayladim.
Yorning visolini qalbima solib,
Bu jonima buncha jafo ayladim.

Istab jamolini keldim bu yona,
Bir yor uchun qasd ayladim shu jona,
Koshki avval kelmagaydim jahona,
Ko‘zda yoshim to‘kib ummon ayladim.

Kimsalar bo‘lubdur olama sulton,
Bir nechalar kezar, aqli ko‘p hayron.
Obro‘-e’tibor deb ayladim javlon,
Men bu jona buncha jafo ayladim.

Yosh o‘rnina ko‘zlarimdan qon oqdi,
Falak sitam aylab bag‘rimni yoqdi.
Oh-u nolam mening samog‘a chiqdi,
Bir jonima buncha jafo ayladim.

Shobanda deydi, ey Tangri yorim,
Gunohim kechirgin qodir sultonim,
Yor yo‘lida ko‘pdir nola — fig‘onim,
Bu jonima buncha jafo ayladim.

NA BILSIN

Turkiyni eplamas, necha mullalar,
Arab tilin, devon xatin na bilsin.
Alifdan sharmanda, quruq sallalar,
Har so‘zning ahvolin, yotin na bilsin.

Eksang ko‘rk bermaydi ul quruq tollar,
Yaxshi nasihating olmas nodonlar.
O‘z qadrin bilmagan yigitlar, chollar
Yaxshi mahbub qadrin, otin na bilsin.

So‘zi shirin bo‘lar boldan, shakardan,
Nasihat yaxshidir durdan, gavhardan,
Jangtalab shohlar hech to‘ymas navkardan
Har so‘zning holatin, yotin na bilsin.

To‘rga o‘tar har kim solsa to‘shaklar,
Bog‘da turmas izzattalab eshaklar,
Qishloqda erkalab o‘sgan mushuklar
Qo‘ni-qo‘shni, qarindoshin na bilsin.

Shobanda der, yigit bo‘lsa la’nati,
Elda bo‘lmas obro‘si ham hurmati.
Harfin xarob aylab buzar lazzatin,
Ostin-ustin, tashdid, maddin ne bilsin.

O‘TDI, QOLMADI

Odam o‘g‘li, bunda qo‘ymaslar seni,
Sendan avvalgilar o‘tdi, qolmadi.
Ming jilva aylabon umring gulshani,
Har guldan bir g‘uncha tushdi qolmadi.

Kimsalar yig‘ladi, kimsa kuladi,
Yig‘laganlar umr o‘tganin biladi.
Bu ne qadah navbat bilan keladi,
Har kim navbatida ichdi, qolmadi.

Boylar, fuqarolar, gadolar, shohlar,
Ajab sohibqiron, ne-ne podshohlar,
Bu dunyoga kelgan ne aziz jonlar
Bag‘rini qora yer quchdi, qolmadi.

Charos ko‘zli hilol qoshi qalamlar,
Jonga o‘tlar solgan dur-u alamlar.
Qo‘llari xinali, sarvi-sanamlar
Ziynatidan bir-bir tushdi, qolmadi.

Shobanda, shaylagin sen yo‘l yarog‘ing,
Umr ravshan topib, yonsa chirog‘ing.
Bir ko‘hna rabotdir ul borar yog‘ing,
Sendan avvalgilar o‘tdi, qolmadi.

SHAYDOYI

Turkman mumtoz shoiri Shaydoyi XVIII asr ikkinchi yarmida yashab ijod etgan. Uning hayot yo'li va ijodi yetarli o'rganilmagan. Shaydoyi adabiy merosidan bizga xalq og'zaki ijodi asosida yozilgan "Gul-Sanobar" dostoni va bir qancha lirik, hajviy xarakterdagi she'rlari yetib kelgan. Turli mavzuda yozilgan bu she'rlarda shoir ijtimoiy g'oyalarni ilgari suradi.

TILLARIM

Arab, ajam har narsaga qo‘shildi,
Tartib-nizom ila sayrar tillarim.
Kam-kam o‘zin tortib, chetga otildi,
Endi din uyinda hayron tillarim.

Bir-u bor der, nimaligin bilmaydi,
G‘aflat bosib, ko‘ngil hushing bo‘lmaydi,
Yolvorsak-da bizga bir bor kulmaydi,
O‘zi o‘z yo‘linda sarson tillarim.

Hech millatning qulog‘iga yoqmaydi,
Rostin aytsam zamon kulib boqmaydi.
Neki yozsam hech purma’no chiqmaydi,
Gung bo‘libmi endi biyron tillarim.

Chiston bilan bir tilagi ichkarida,
Qo‘yib yozsam anda ochilmas parda,
Dilim yaralidir, qolmisham darda,
Yana kelarmikan buyon tillarim.

Ardoqladim seni, daftar to‘ldirib,
Ma’rifatni har millatga bildirib.
Bugun endi falak seni o‘ldirib,
Qur’onning ostida giryon tillarim.

Shaydoyi der, biyron nutq egasi,
Elga aziz o‘z tili ham shevasi.
Arab xati bo‘ldi so‘zlar kuyasi,
Tortishib to‘rt yonda vayron tillarim.

PARIZODIMNING

Og‘a beglar, quloq soling so‘zimga,
Ta’rifini desang parizodimning.
Yolg‘on bo‘lsa qora surting ko‘zimga,
Ta’rifini desam parizodimning.

Sadqasi jannatning huri, g‘ilmoni,
Fidosi firdavsning sarvi ravoni.
Ming kelin, yuz ming qiz bo‘lsin qurboni,
Ta’rifini desam parizodimning.

Noziklikda murcha miyon bellari,
Eshitganlar bandasi, ko‘rganlar quli.
So‘zlasa shakardek shirindir tili,
Ta’rifini desam parizodimning.

Ko‘rgan bandi bo‘lar qalam qoshiga,
Dur, gavhar sadqasi inj-u tishiga,
Ipak ro‘mol o‘ramishdir boshiga,
Ta’rifini desam parizodimning.

Falakdan baxsh o‘lib go‘zallik sizga,
Nasibasin qo‘shsa Xudoyim bizga.
Bosgan izi tegar ming kelin-qizga,
Ta’rifini desam parizodimning.

Shaydoyiga har kun yetar salomi,
Jismimga joya berar shirin kalomi.
To o‘lguncha bo‘lsam uning g‘ulomi,
Ta’rifini desam parizodimning.

KELIN

Yolg‘on dunyoning behishti,
Qizil guldan toza kelin.
Oq yuzlaring mangzar oyga,
Nozlanishing g‘ozga, kelin.

Bora bilmasman yoningga,
Sening manzil-makoningga.
Savob ish qilgin joningga,
Rahm aylagin bizga, kelin.

Ko‘rmoqqa ko‘zlarim zordir,
Bag‘ring misoli bahordir.
Sevib, ayrilmog‘im ordir,
Sen mangzarsan yozga, kelin.

Tomoshali to‘y bo‘lganda,
Qiz-juvonlar yig‘ilganda.
Qizlarga nazar solganda,
Sen tusharsan ko‘zga kelin.

Shaydoyi der, so‘z bo‘lmasa,
Bog‘imda gulim so‘lmasa.
Ziyoda-zarur bulmasa,
Bermam yuz ming qizga, kelin.

NOZLAR BILAN

Nozaninlarga uchradim,
Yuz karashma nozlar bilan.
Qaydan bo‘lursiz, juvonlar?
Tanishaylik sizlar bilan.

Nozaninlar, ey jononlar,
Sarvqomat, mehribonlar.
Bulbuldek shirin zabonlar,
So‘zlashaylik sizlar bilan.

Oylar o‘tar, yillar o‘tar,
Bu yo‘llardan ko‘plar o‘tar.
Bir qiyo boqsangiz netar
Qarqarali qizlar bilan.

Shaydoyi qaynabon jo‘shdi,
Nozaninlarga uchrashdi.
Bahor kelib gullab ochdi,
Navro‘z kelib yozlar bilan.

BO‘STONDIR BUGUN

Keldi, Navro‘z, jumlayi olam gulistondir bugun,
Gul ochildi, andalibning ishi afg‘ondir bugun.
Qilgali zavq-u tomoshalar eng aziz ondir bugun,
Ul xususan oshig‘-u ma’shuqda davrondir bugun,
Lolalar ochildi, sahro, bog‘-u bo‘stondir bugun.

Keldi Navro‘z noz-karashma birla aytib alyor,
Yosh-yalang, qiz-u juvon bezanishib zarnigor.
Chun alarning husnidin bo‘ldi yer-u ko‘k lolazor,
Qilmisham behad gunohkim, mast bo‘lib beixtiyor.
Ayb qilmang do‘stlar, ishq ahli mastondir bugun.

Sayli Navro‘z aylamishdir ushbu gul ruxsorlar,
Lazzati, la’li labi shirinsuxan guftorlar,
Gar niqob ochsa yuzidin sarvi bo‘yli yorlar,
Kunda yuz ming qon etarlar g‘amzasi xunxorlar,
Oshiq-u ma’shuq uchun o‘lsang ne armondir bugun.

Nozaninlar sayrga chiqmishki behad, behisob,
Qoshlariga surma tortmish, ol yanog‘ uzra gulob.
Bir necha ro‘yi po‘shdir, bir nechasi beniqob,
Qay birining madhin aytay har biri mohitob,
Chun alarning husniga Shaydoyi hayrondir bugun.

MA'RUFIY

Qurbonali Ma'rufiy 1734-yilda Axal viloyati hududida tug'ilgan. U harbiy oilaga, sardorlar avlodiga mansub bo'lgan. Arab va fors madaniyati, fan va adabiyoti bilan yaqindan tanishgan.

Ma'rufiy takalarning Axalga kelishi bilan o'z yemrali toifasiga qo'shilib, Axaldan Mariga, so'ngra Amudaryo orqali Xorazmga keladi. Ko'hna Urganchda yashaydi. Harbiy kurashlarda ishtirok etib, Eron feodallariga asir tushadi. Olti-yetti yil bandilikda yashaydi.

U Maxtumquli, sarkarda Davlatyor, shoir G'oyibiy bilan yaqin do'stona munosabatda bo'ladi.

Ma'rufiyning ko'pgina ajoyib lirik she'rlari "Sayfulmalik va Madhaljamol", "Davlatyor", "Yusuf-Ahmad", "Alibek va Bolibek" kabi asarlari bor[1].

Ma'rufiy 1810-yilda vafot etgan.

[1] Mazkur kitob oxirida "Sayfulmalik va Madhaljamol" dostoni shoir Muzaffar Ahmad tarjimasida taqdim etildi.

BOSHI KERAK

Ey yoronlar, mard yigitning
Bir til ila boshi kerak.
Yo qilig‘i, yo qilichi,
Qozon ichra oshi kerak.

Haqni qil ko‘ngilga dalda,
Bo‘lmagil o‘zga xayolda.
Yo o‘g‘ilda, yo ayolda
Bir ko‘ngilning hushi kerak.

Mard yigitning tuz — oshiga,
Tengquri kelsa qoshiga,
Yomon kun tushsa boshiga,
Jonkuyar qardoshi kerak.

Arshga chiqar faryodlaring,
Hech kim eshitmas dodlaring,
Haqiqat parizodlarning
Ko‘zi bilan qoshi kerak.

Olar, oldirmas erlarning,
Rustam Zol kabi sherlarning.
Ma’rufiy der, chin pirlarning
Ko‘zlarining yoshi kerak.

VATANIM QOLDI

Og‘alar, arzimni bayon aylasam,
Durun, Mehin otlig‘ Vatanim qoldi.
Qat-qat to‘shak solinib uchak ustiga,
Mast bo‘lib, ag‘anab yotishim qoldi.

Bir shoxasin olomonga chog‘larman,
Lof emasdir, o‘n kishini saqlarman.
Qizilboshning yurt ṣo‘ragan beglarin,
Eltib, Xorazmda sotishim qoldi.

Go‘k tepa, Bahra el, Urganchdir yurtim,
Bomidir langarim, arslonim-sherim,
Xo‘ja Alambardor — bir ko‘zli pirim,
Qumlarda yastanib yotganim qoldi.

Och bo‘ridek haryon nazar tashlardim
Otlar minib, xos bedovlar ushlardim.
Durunda yoz yotib, Mehin qishlardim,
O‘n kecha kun to‘ylar tutganim qoldi.

Ma’rufiy der, gul ayrilsa dog‘lardan,
Zilol suvli, chamanzorli bog‘lardan.
Oltmish boshli, ola qorli tog‘lardan,
Ot minib, ustidan o‘tganim qoldi.

ZAMONDIR DEMA

Kel, ko‘ngil, nasihat eshitgil bizdan,
Bevafoni boqiy zamondir dema.
Haqning rizosin bog‘la belingga,
Harna hukm aylasa, yomondir dema.

Ajal kelsa birdan qo‘ymas zamoning,
G‘animat bil bunda qolsa nishoning,
Qahr aqling olar, gina iymoning,
Inon bu so‘zlarga gumondir dema.

Qalandardek kiygan eski sholinga,
Past tutgin fe’lingni, qara holingni,
“Davlatim” deb quvonmagil molinga,
O‘g‘ilsiz davlatni davrondir dema.

Yotma oxiratning urug‘in ekkin,
Ko‘zlaringdan qonli yoshlarni to‘kkin,
Ko‘p yolvorib, mardning minnatin chekkin,
Muhannas aqliga zamondir dema.

Kurash kuni asiri bo‘lsang bir mardning,
Sarf etgin hunaring — yo‘qolsin darding,
Yo‘ldoshini tanlab ketgan nomardning
O‘lganda hamrohi iymondir dema.

Toat ila o‘tkaz yoz ila qishni,
Ko‘zlaringdan oqiz qon ila yoshni,
“To‘g‘ri yo‘lga kir” deb aytgan darveshni,
Do‘st bilgin o‘zingga dushmandir dema.

Kel endi, Ma'rufiy, tani yo'lingni,
Ko'p haddingdan oshma, bilgin holingni,
El dardi-chun sarflagin molingni
Foyda bil, o'zingga ziyondir dema.

HOL QOLMAS

Davlatga inonma, aqlsiz odam,
Boqiy dema, foniy o‘tar, hol qolmas.
Takabbur bo‘lmagil, manmanlik qilma,
Bu besh kunlik davron ketar, mol qolmas.

Bo‘linar suhbatlar, yod bo‘lar so‘zlar,
Qullar ichra kezgan o‘rdaklar, g‘ozlar,
Mastona juvonlar jonona qizlar,
Davron ketar, suhbat ketar, el qolmas

Yigitga o‘lguncha yaxshi ot kerak,
Ayol kerak, zuryod kerak, ot kerak.
Borish-kelish uchun yetti yot kerak,
Tiz bukilar, quvvat ketar, bel qolmas.

Ma’rufiy, deya bu yo‘llardan chiqmagil,
Tuzilgan rabotdir, dining yiqmagil,
Nomahramga nazar solib boqmagil,
Ko‘zing ketar, suyak chirir, til qolmas.

YOTMAGIL

Ko‘nglim, senga bir nasihat aylayin,
G‘ofil, g‘aflat ichinda sen yotmagil.
Bir kishi kel deb, muruvvat etmayin,
O‘z ko‘nglingdan g‘ubor bog‘lab ketmagil.

Tanisang gavharni bir zarra toshdir,
Tanimagan joyda bahosi beshdir,
Oqil bo‘lgan bilar, bu dunyo hechdir,
Tanilmagan joyda qadring sotmagil.

Behuda kezmagil, uchrarsan dardga,
Rizqing bo‘lsa, Xudo berar har yerda,
“Och” debon qichqirma, to‘g‘ri bor mardga
Zinhor muhannasga yuzing tutmagil.

Ma’rufiy, sen quvonmagil molingga
Mahshar kuni adasharlar holingga,
Qilgan ishing bir-bir kelar oldinga,
Halol moling harominga qotmagil.

ISTAR KO‘NGIL

Avvalo qodir Xudodan, bir mador istar ko‘ngil,
Chun arosat yovmutga amal darkor, istar ko‘ngil,
Vaslga vosil bo‘lguvchi jon ichra jon istar ko‘ngil,
Qilsirotdan o‘tmoqqa, turgan razon istar ko‘ngil,
Joyimiz jannatda bo‘lsa, jovidon istar ko‘ngil.

Turli noz-u ne’mat bo‘lsa, yemoqqa bo‘lsa palov,
Egnima kiygan libosim, ming tumanlik ol-yalov,
Ul bedov tursa qopida, xush qiliqli, xush jilov.
Bundan ham ortiq bo‘lurmi biz kabilarga siylov,
Xos kiyimlar, zulfiqor, tiyri kamon istar ko‘ngil.

Savdorgarlar foyda deb, Balx-u Badaxshon ketsalar,
Ashrafi gavhar chiroqni, la’li-yu marjonni sotsalar,
Kelsa mehmonxonaga qullar otini tutsalar,
Sirti marmar oq o‘tovda doimo xush yotsalar,
Ancha davlat, shuncha navbat,
shuncha kon istar ko‘ngil.

Eshigimda tursa doim, men uchun xos-u avom,
Shoh-u gado kelsa, tanishib, ko‘rsalar oz ko‘p tamom,
Zikri haqning yo‘lida, toatin qildim almudom,
So‘filar aytsa azonni, qozilar bo‘lsa imom,
Tillari burro bo‘lgan, xatmi Qur’on istar ko‘ngil.

G‘ussadan dur aylagin, ko‘nglim mudomo shod kerak,
To‘rt tarafimda jonkuyar qardosh kerak, imdod kerak,
Haq yana qilsa muyassar, ham yaqin-u yot kerak,
Bu ko‘ngilning xushligi yolg‘onchida zuryod kerak,
Dunyoda yonsa chirog‘im, bir nishon istar ko‘ngil.

Bor iloho, Ma'rufiy qulning ko'nglin qil sarfaroz,
Hojatini qil ravon, toatni gar ko'p qilsa oz,
Amri bo'ldi bizlara, haj-u zakot, ro'za, namoz,
Xonumonin, har borin yo'lida qilsa niyoz,
Obi kavsar, salsalbil huri jonon istar ko'ngil.

DUNYONING

Ey ko‘ngil, sevma gulin, xori ko‘pdir dunyoning,
Mol bilan aldar seni, ayyori ko‘pdir dunyoning,
Pardayi dining yoqar, zangori ko‘pdir dunyoning,
Suhbatda bo‘lmagil, xummori ko‘pdir dunyoning,
Qil hazar, albatta sen, murdori ko‘pdir dunyoning.

Surat aylab toazal, berdi senga aqli bejon,
Rohat istab, ko‘hingni, g‘aflatda qo‘yma bir zamon,
To ajal yetgan kuni, bosgay qorong‘u — bir tuman,
Yuz uqubat birga kelgay, ham yana oxir zamon,
Avval etmasdir vafo, ag‘yori ko‘pdir dunyoning.

Tarki sunnat qilmangiz, axir o‘larsiz bir kuni,
Tarki sunnat aylagan, ko‘rmas rasulning ko‘rkini,
Aysh-u ishrat, mol-u davlat, foniy ul, mahshar kuni,
Yig‘di dunyo, yutdi-ku, Qorunga bermas erkini,
Foyda yo‘q, qayg‘usi cho‘x, bozori ko‘pdir dunyoning

Asillarning dardiga, bo‘ldi Muhammad peshqadam,
To‘g‘ri yo‘ldan o‘zgani olma ko‘ngilga, ey odam,
Tangri zikrin tilga ol, — mo‘min nishoni har qadam,
Ko‘zda yoshingni siyoh et, kiprigingni qil qalam,
Yo‘qsa yo‘ldan ozdirar, Shaytoni ko‘pdir dunyoning.

Yig‘madilar dunyoni, o‘tdi ko‘ring do‘sti a’lo,
Zulfiqordan o‘zgani tutmadi u sherga Xudo,
Ul Zabihullo berur boshini, Haq undan rizo,
Solma ko‘ngling har taraf, o‘qilar bir kun qazo,
Hiylasi ko‘p, jilvasi, makkori ko‘pdir dunyoning.

Orzu ayla umringni, aylab sanoni dunyoda,
Tarki dunyo aylagil, mulki fanoni dunyoda,
Kech bu jondan, qil talab, mulki baqoni dunyoda,
Buncha ko‘p tasnif chekib, qilma jafoni dunyoda,
Bu umr uchun aning, karvoni ko‘pdir dunyoning.

Mol-u mulkingdan kechib sen qiblaga qarat yuzing,
Haq ishin tark aylama, g‘aflatni qo‘y, sarg‘ayt yuzing,
Masjiddan chiqma, toat et, qo‘l qovushtirib qil ta’zim,
Bundan ortiq ne bo‘lar, qilmas vafo, bekor so‘zing,
Ma’rufga nahy etguvchi inkori ko‘pdir dunyoning.

MAHMUD G'OYIBIY

(1735–1800)

Turkman mumtoz shoiri Mahmud G'oyibiy Ma'rufiy va Saidnazar Sayidiyning zamondoshi bo'lgan. G'oyibiy 1735-yilda tug'ilgan. 1800-yilda vafot etgan. U turkmanlarning uva tiyrasidan bo'lib, Buxoroning Qorako'l atrofida yashab o'tgan.

G'oyibiyning oilaviy hayoti haqida aniq ma'lumotlar bizgacha yetib kelmagan. Shoirning haqiqiy ismi Mahmud, adabiy taxallusi G'oyibiydir. U she'rlarida G'oyibnazar, Mulla G'oyib, Ko'r G'oyib taxalluslarini ham qo'llagan. Savodli kishi bo'lgani uchun "Mulla G'oyib" deyishsa, bir ko'zi ko'r bo'lgani uchun "Ko'r G'oyib" deb ham atashgan. Shoir hayotiga tegishli ayrim ma'lumotlar "Ko'zlarim" muxammasida ham bor.

G'oyibiy badiiy ijod bilan birga qo'shiq-musiqa san'atiga ham qiziqadi. Bunga shoirning "So'filar", "Soz etsin" va "Kelganda bordir" kabi she'rlari guvohlik beradi. Shoir she'rlarining aksariyati aruz vaznidagi g'azallardir. Shoirning xalqona asarlari o'z vaqtida qo'shiqqa aylanib, to'y-u tomoshalarda ijro qilingan.

KELGANDA BORDIR

Soz bilan suhbatni yomon demanglar,
Odam, Havo dunyoga inganda bordir.
Hobil ila Qobil ona qornida,
Ular ham dunyoga kelganda bordir.

Odamni quvdilar behisht uyidan,
Har kim topar o‘z qilig‘i — fe’lidan,
O‘zing saqla obi hayot suvidan,
Nuhning kemasiga minganda bordir.

Muhammad payg‘ambar dinga yo‘l ochdi,
Bilol azon aytdi, kofirlar qochdi.
Abubakr, Umar, Usmon yetishdi,
Ali zulfiqorin chalganda bordir.

Mullalar jam bo‘lib topmadi dalil,
Men senga sig‘indim,
yo Rabbim — Jalil.
Ismoil payg‘ambar, Ibrohim Xalil,
Makka Madinani solganda bordir.

Mullalar jam bo‘lib, ketdilar hamma,
Adolat deganning ma’nosi nima?
Shundoq adolatli Sulton Jimjima
Dunyoning lazzatin ko‘rganda bordir.

Odam o‘g‘li har birisi har ishda,
Yer yuzini tutmoq uchun sarishta.
Horud — Morud degan ikki farishta,
Bobil qudug‘iga tushganda bordir.

Suhbat uchun Muso osmonda qoldi,
Iskandar Zulqarnayn dunyoni oldi.
Musoning hassasi ajdaho bo‘ldi,
Nasimiyning po‘stin shilganda bordir.

Hazrati Dovudning qirq o‘g‘li bo‘ldi,
Manmanlik aylabon qirqi ham o‘ldi.
Qirq o‘g‘il o‘rniga bir o‘g‘il keldi,
Dovudning qirq o‘g‘li o‘lganda bordir.

Tog‘larning boshidan ketmas tumani,
Bir kuni bo‘lar Yaratganning farmoni.
Mahdi kelib olar yorug‘ dunyoni,
Dovudning qirq o‘g‘li o‘lganda bordir.

Mulla G‘oyib aytar, Xizirdir pirim,
Pirim Shohimardon, Ali dastgirim.
Sultonsuyun mirzo, Mir Alisherim,
Dunyoning to‘yini tutganda bordir.

YOR, HEY

Ey nigoro, yuragimda dog‘i hajring bor, hey,
Ishqing ila yonadigan kim meningdek bor, hey.
Yo‘qturur olamda mendek furqatingda zor, hey,
Ko‘nglim olib qayga bording yora, yora, yor, hey.

Keldi ishqing jonima kar aylabon o‘lturgali,
Qildi rasvoi jahon olamlara kuldirgali,
Dardimi dilbar sanga, yo‘qdir kishim bildirgali,
Ko‘nglim olib qayga bording yora, yora, yor, hey.

Har qachonkim yuz ocharsan qudrat ila oshkor,
O‘t solarsan ishva birla jon-u dilga sad hazor,
Yona-yona kul bo‘larman hasratingda beqaror,
Ko‘nglim olib qayga bording yora, yora, yor , hey.

Men kabi ishqing o‘tina kimsa jonin tashlamas,
Ko‘nglim ishqing yo‘lidan hech o‘zga sari boshlamas.
Dard-u g‘amdan furqat ichra ko‘zlarini yoshlamas,
Ko‘nglim olib qayga bording yora, yora, yor, hey.

Bo‘lmadi hargiz g‘amingdan xotiram bir lahza shod,
Sen dag‘i hech qilmading men telbani bir lahza yod,
G‘oyibiyman, o‘tdi umrim hijr ilgidan dod, dod,
Ko‘nglim olib qayga bording yora, yora, yor, hey.

YORSIZLARNING DARDINI

Ey yoronlar, musulmonlar, eranlar,[1]
So‘ramanglar, yorsizlikning dardini.
Xabar bering bizning yorni ko‘rganlar,
So‘ramanglar yorsizlikning dardini.

Haftasi bilinmas, oyi bilinmas,
Otgan o‘qi, tortgan yoyi bilinmas,
Erta bilan ketgan joyi bilinmas,
So‘ramanglar yorsizlikning dardini.

Olatog‘ning boshi qorsiz bo‘lmasin,
Qorsiz bo‘lsa bo‘lsin, norsiz bo‘lmasin.
Muhammad ummati yorsiz bo‘lmasin,
So‘ramangglar yorsizlikning dardini.

Bobong sandig‘inda tamom zar bo‘lar,
Yorsiz o‘tgan umr darbadar bo‘lar,
Yaqin qo‘shnilar ham gumongar bo‘lar,
So‘ramanglar yorsizlikning dardini.

Bu gaplar qolibmish shoh-u gadodan,
Mulla olim tortar “tabbat yado”dan,
Mulla G‘oyib tilar yorin Xudodan,
So‘ramanglar yorsizlikning dardini.

[1] **Eran** — erlar, mardlar.

SHO‘XI ZEBOLAR YANA

Chiqdilar gulgun kiyib, ul qaddi ra’nolar yana,
Qildilar jon qasdini u sho‘xi zebolar yana.

Halqa-halqa orazin purnuri mushk afshon etib,
G‘orati-din qildilar, ul zulfi tarsolar yana.

Oldilar oshiqlarning sabri qarori-toqatin,
Tushtilar mehnat o‘tig‘a zôri shaydolar yana.

Gul dog‘i yashil niqobin oldi yuzdan noz ila,
Bulbuli bechorag‘a kim soldi g‘avg‘olar yana.

Bog‘lar ichra chamanlar bo‘ldi jannatdek ayon,
Huri g‘ulmonlar tariqa kirdi mirzolar yana.

Xo‘blar ko‘nglin olib, noz ila yag‘mo qildilar,
Tushdi boshimg‘a ajab oshufta savdolar yana.

G‘oyibiy ot sakratib, maydonda chobuk sho‘xlar,
Ko‘rsatarlar o‘zlarin, aylab tomosholar yana.

AYON ETMA, AYON ETMA

Kel, ey ko‘ngil qushi har dam fig‘on etma, fig‘on etma,
Ochib sirrimni olamga ayon etma, ayon etma.

Manga ishq ichra o‘lmaklik base davlat saodatdir,
Mani bu ishda ma’n aylab, ziyon etma, ziyon etma.

Tilarmen ishq aro jonim, fidoyi do‘st qilg‘aymen,
Fido qilmas debon jonin gumon etma, gumon etma.

Kel, ey ko‘nglim, do‘qish endi balolarga, jafolarga,
Chiqarib ishq da’vosini yomon etma, yomon etma.

Bu vodiy ichra men doim solarman yaxshilik tarxin,
Qilib rasvo meni xalqqa yomon etma, yomon etma.

Ajab mushkul erur demang, ko‘ngliga dardi g‘am birla
Firoq ichra ko‘zing yoshin ravon etma, ravon etma.

Bag‘oyat ishq zo‘r aylab, na qilsa, notavon ko‘nglim,
Kel emdi G‘oyibiy, darding nihon etma, nihon etma.

BOQASAN

Ey sanam, yuz ko‘rsatib jonimni o‘ta yoqasan,
Qasdi jon etding magar, har lahza egri boqasan.

Vahki kofir ko‘zlaring birla qilib jonim asir,
Band etib, jurm ahlidek bo‘ynimga zulfing taqasan.

Kuyim ichra sirimni fosh aylading olamga deb,
Ta’n ila har dam-badam ishqing boshimga taqasan.

Ey yurak, ishqing o‘tidan har dam temir yanglig‘ erib,
Naylayinkim, suv bo‘lib, har dam ko‘zimdan oqasan.

G‘oyibiy der boshima hijron cherigin jam’ etma,
Xasta jonimni balo sultonlarga chiqasan.

O‘PAR SHIRIN DUDOG‘INGDAN

Ikki sunbul kabi zulfing tushibdur, do‘st yanog‘ingdan
Ki yel urgan sayin egilib o‘par shirin dudog‘ingdan.

Bo‘ying sarvi xiromonni ko‘rib, ey dilbari jonon,
Ko‘zimga surtaram to‘zing, o‘pib har dam oyog‘ingdan.

Visolingdan judo bo‘lsam, ki har lahza fig‘on aylab,
Ki turmas kecha-yu kunduz, oqar yoshim firog‘ingdan.

Minib ot, sakratib chiqsang, kamina G‘oyibiyni sen,
Karam qil, ma’n etib qo‘yma jilovdori burog‘ingdan.

MUROD TOLIBIY

(1766–1848)

Turkman mumtoz adabiyotining atoqli namoyandalaridan biri bo'lgan Tolibiy (Murod shoir) XIX asrda yetishgan so'z san'atkoridir. U taxminan 1766-yilda Axal hududlarida tug'ilgan. Shoir boshlang'ich ta'limdan keyin Mari va Xiva madrasalarida ta'lim oladi.

Tolibiydan turli mavzularda yozilgan ko'pgina lirik she'rlar, "Sohibjamol" dostoni meros bo'lib qolgan.

Tolibiy ijodida ishqiy-lirik yo'nalishdagi mardlik va saxiylikni tarannum etuvchi she'rlar asosiy o'rinni egallaydi. Tolibiy taxminan 1848-yilda vafot etgan.

•

HECH TOPMADIM BAHONA

Ko‘rsat go‘zal jamolin, qilma hech bir bahona,
Bilsang sening hajringda kul bo‘ldim yona-yona,
So‘rgil xasta holimni shakkar solib zabona,
Qondirgin men tashnani, sharbat ezib dahona.
Yo kelgay, yo kelmagay sendek pari jahona.

Qoshin misli kamondir qo‘l tegmayin otildi,
Novvoklaringning o‘qi yuragimga sanchildi,
Ol yanog‘ing qizil gul, go‘yo sahar ochildi,
Bir tabassum aylagach, og‘zidan dur sochildi,
Sabab shudir ishqida bo‘ldim dali-devona.

Bir-bir bosib, sollonib, viqor bilan yurarsan,
Noz ustiga noz aylab, yurak bag‘rim ezarsan,
Men g‘aribi xastadan qilma go‘zal hazar sen,
Sen meni hamdam aylab, qil holimga nazar sen,
Men kelgali yoningga hech topmadim bahona.

Gul bargiga mangzaydir nozli dilbar yonog‘ing,
Hech xabaring bormidur, bolmi-shakar dudog‘ing,
Banda senga arz etar, sol arzimga qulog‘ing,
Arzim budir: chang bo‘lar, bosma yerga oyog‘ing,
Diydam uzra yo‘l solib, bo‘lgil go‘zal ravona.

Ishva birla go‘zalim, har dam qiyo boqarsan,
Qo‘lga xanjar olibon jon rishtasin choparsan,
Olding-ketding jonimni qilmayin e’tibor sen,
Kelgin endi dardimga o‘zing davo toparsan,
O‘zing bir bor kelmasang yura bilmam erkona.

Nechuk toqat qilay men, bu dardga kim chidaydi,
Majnun chiqdi cho‘llarga Layli ishqida daydi,
Oshiq bo‘lgan bo‘yniga og‘ir yukni yuklaydi,
Ey dilbar, beparvoyim, ko‘ngil umid uzmaydi.
Men o‘larman ey zolim, bir chiqmasang maydona.

Tolibiy der men sening husningga zor bo‘lmisham,
Yolg‘ondir deb o‘ylama, chin intizor bo‘lmisham,
Ko‘rib guldek jamoling beixtiyor bo‘lmisham,
O‘zga oshiq sabr etsa, men beqaror bo‘lmisham,
Bo‘lib sening sha’ningga misli men bir parvona.

BEOR BO‘LSA

Nomardlarga bo‘yin egar,
Agar yigit beor bo‘lsa.
Tog‘-u toshlarga bosh urar
O‘zi shijoatkor bo‘lsa.

Marddan hamma o‘rnak olar,
Yomondan yomon ot qolar
Uyi xastaxona bo‘lar
Xotin bee’tibor bo‘lsa.

Tog‘larning toshi teng bo‘lmas,
Har bir oyna parang bo‘lmas.
Yigitning qo‘li keng bo‘lmas
Avvalo ko‘ngli tor bo‘lsa.

Yaxshi so‘zga tosh yorilar,
Yog‘lar asalga qorilar,
Yigit aqldan ayrilar,
Xotini ersirar bo‘lsa.

Bahor kelsa ko‘char boylar,
Bo‘ri kezar, shaqal yayrar,
Ko‘rsa qoplon, imo aylar
Uning yo‘ldoshi er bulsa.

Tolibiy der, toshmi, olmos,
Berahmlar qadrin bilmas,
Yuking hech vaqt yerda qolmas,
Qatorda agar nor bo‘lsa.

DAVRON YO‘LIQSA

Ey yoronlar, teng-u tushlar,
Suringlar davron yo‘liqsa.
Qiynalganda madad bering
Bir ko‘zi giryon yo‘liqsa.

Yomon so‘z jonga dard bo‘lar,
Yuz dushman ko‘zga gard bo‘lar,
Mard yigitlar nomard bo‘lar
Mingani chaman[1] yo‘liqsa.

Xizir ko‘rgan uzoq yashar,
Dardli yurak qaynab toshar,
Sardorlari chopar, shoshar
Yurtida dushman yo‘liqsa.

Bu dunyoda sehr, sir bor,
Qayda xayr-u, qayda shar bor.
Yigit bevaqt qarir, to‘zar,
Xotini yomon yo‘liqsa.

Kechalari kelar, ketar,
O‘qi dushmanidan o‘tar,
Yovonli aqlin yo‘qotar
Ma’raka, sulton yo‘liqsa.

Bir nechalar o‘zin maqtar,
Beamal bo‘sh so‘zin maqtar.
Asli nomard bo‘lsa, qochar
Yo‘lida mardon yo‘liqsa.

[1] **Chaman** — yurishi yomon, sekin yuruvchi.

Ulamo ko‘ngli keng bo‘lar,
Sargashta holi tang bo‘lar.
Er bilan ayol teng bo‘lar,
Bir kuchli dushman yo‘liqsa.

Tolibiy der, so‘z ko‘p qotar,
So‘zlarimdan ma’ni topar,
Ahmoq oti yolg‘iz chopar,
Azm etar omon yo‘liqsa.

KELDIM

Dilbar, sening bilan ko‘nglim bir aylab,
Jonimni joningga sotgali keldim.
Zulflaring bo‘ynimga xo‘p zanjir aylab,
Ishqingda mast bo‘lib yotgali keldim.

Harflar ichra qadding o‘xshar alifga,
Zinhor uni ko‘rsatmagil raqibga,
Magar qilgan bo‘lsa bizga nasiba,
Shirin lablaringdan totgali keldim.

Yuzlaring go‘yo bir ochilgan gulzor,
Bulbuldek charx urgum ishqingda dildor,
Bog‘ingda yetishmish olma-yu anor,
O‘zim terib, olib ketgali keldim.

Jahonda ko‘rmadim sendek zolimni,
Rahm aylabon hech so‘rmading holimni,
Senga baxsh etgumdir dunyo molimni,
Bo‘lmasa, bir pulga sotgali keldim.

Yuzing yaxshi chamanlardan, gullardan,
Bilsang men azizman o‘zga gullardan,
Ishqingda yo‘l yurib dasht-u cho‘llardan,
Birgina so‘zingni kutgali keldim.

Tolibiy der keldim yor makoningga,
Ruxsat etsang boray sening yoningga,
Bir tarahhum ayla savob joningga,
Nozik bellaringdan quchgali keldim.

BO‘LAR

Nasihat bobinda gar xabar tutsang,
Aql uyiga fahm jorubkash[1] bo‘lar.
Bir g‘aribga yaxshi so‘zingni aytsang,
Kissaga pul kirmas, ko‘ngli xush bo‘lar.

Ahmoq o‘zin bilmas chirog‘i yonsa,
Yuz Ka’ba xarobdir bir ko‘ngil sinsa,
Ayyom xarob bo‘lar davron do‘lansa[2],
Boshlar oyoq bo‘lar, oyoq bosh bo‘lar.

Baxt-davlatdir barcha ishning moyasi,
Do‘stga do‘stdan yetar rahmat soyasi,
Yigitga g‘am kelsa, ketar tayanchi,
Chuvol[3] og‘ir bo‘lsa, nor yuvosh bo‘lar.

Tosh ham ish bermaydi qo‘ling urmasang,
Mukammallik qayda ko‘ngil bermasang,
Begonalik o‘sar do‘stni ko‘rmasang,
Yot qo‘shniday yiroqlashar, tash[4] bo‘lar.

Jigarim xunidir ko‘zimdan oqqan,
Bilmadim, do‘stkimudushmankimekan?
Bu yolg‘on dunyoning hasratin chekkan
To‘g‘ri ahmoqdir u yoki yosh bo‘lar.

Tolibiy der fasod ortar yil-yildan,
G‘ofil bo‘lmang bu dunyoda bu eldan,
Dil, bahra topmassan, kech bu xayoldan,
Bir do‘stim bor desang, dushman besh bo‘lar.

---

[1] **Jorubkash** — farrosh, ozodalik xodimi.

[2] **Do‘lanmoq** — teskari ketmoq.

[3] **Chuvol** — yuk solingan xalta, qop.

[4] **Tash bo‘lmoq** — sirtga chiqib ketmoq, begonalashmoq.

KAMINA

Turkman mumtoz adabiyotida o'z o'rniga ega bo'lgan hajvchi shoir Mamatvali Kamina 1770-yilda hozirgi Saraxs atrofida tug'ilgan. Butun umrini kambag'allikda o'tkazgan. Kamina boshlang'ich ta'limdan keyin eldoshlari yordami bilan Buxoro madrasasida ta'lim olgan.

Kaminaning turli mavzuda yozilgan ko'pgina she'rlari bilan birga uning shaxsi bilan bog'liq bir qancha xalq rivoyatlari, latifalari bizgacha yetib kelgan. Shoir ijodida uning ishqiy lirikasi va ijtimoiy ohangdagi she'rlari asosiy o'rin egallaydi. O'z adabiy ijodi bilan xalq qalbidan joy olgan Kamina 1840-yilda vafot etgan.

•

ZULFIN

Ajdahodek yastanib, ganji nahona zulfing,
Mashhuri olam o‘lmish foniy jahona zulfing.
Ko‘rsatmadi gul yuzing, bog‘ Isfaxona zulfing,
Odamga anbar sochar, tekkanda shona, zulfing,
Naylayki, o‘t solibdir men notavona zulfing.

Hay-hay, sening yurishing arslonga, sherga o‘xshar,
Charos kabi ko‘zlaring jonim olarga o‘xshar.
Halqa-halqa zulflaring kamonga — dorga o‘xshar,
O‘rim-o‘rim sochlaring go‘yoki morga o‘xshar,
Har tori boshqa-boshqa, o‘t soldi jona zulfing.

Xo‘p ochilmish gullaring, gullardan o‘zga bo‘lsin,
So‘zla, shirin tillaring, tillardan o‘zga bo‘lsin,
Quchay nozik bellaring, bellardan o‘zga bo‘lsin,
Biz boshlagay ishimiz ellardan o‘zga bo‘lsin,
Oqizib ashki-qonim obi ravona zulfing.

Kel, ketaylik, Kamina, sayli chaman istasang,
Lola, rayhon ochilgan bir anjuman istasang,
La’li gavharlar taqib, duri Yaman istasang,
Zulfing har bir toriga yuz ming tuman istasang,
Naqd berayin pulingni, bir-birdan sana zulfing.

ICHINDA

Do‘stlar, bir go‘zalning madhin so‘ylarman,
Mashhur bo‘lsin so‘zi so‘zlar ichinda.
O‘qirman, yozarman, doston aylaram,
Bino bo‘lsin oq qog‘ozlar ichinda.

Seningdek tar g‘uncha bog‘larda bitmas,
Uzatsam uzmoqqa qo‘llarim yetmas,
Uxlasam, uyg‘onsam yodimdan ketmas,
Magar maskan tutmish ko‘zlar ichinda.

Shirinning hamrohi, Layli sirdoshi,
Shu’langdan nur olar, samo quyoshi,
Dilni rom aylaydi, ko‘zing va qoshing —
Yuzing oyga mangzar yuzlar ichinda.

Lochindek tovlanib, har yon boqqanda,
Parizodsan zulfing yerga tekkanda,
Sayr aylab bir biyobonga chiqqanda,
Go‘yo oq ohusan, duzlar ichinda.

Qasd etib borarsan parilar xoni,
Kipriklaring soldi sonsiz yaroni,
Oqib, ado bo‘ldi bag‘rimning qoni,
Bag‘rim yonar bugun tuzlar ichinda.

Kamina der, visol ichra kezishga,
Ilhom kerak, sening madhing tuzishga,
Ishq o‘tidan qalam titrar yozishga,
Tilim so‘zda, ko‘nglim so‘zlar ichinda.

INONMAS

Ishim tushdi bir bevafo yor bilan,
Yorim deb, yoniga kelsam inonmas,
Suyakdan sizdirib, e'tibor bilan,
O'tga tushsam, kuyib-yonsam, inonmas.

Layli-Majun kabi cho'llarga chiqsam,
Arzi-Qambar kabi daryoga oqsam.
Farhod-Shirin kabi tog'lari yiqsam,
Toshlarning tagida qolsam, inomas.

Ne-ne ishlar qildi Vomiq-u Uzro,
Sayotxon deb kuydi yorini Hamro,
Daftarga yozilgan Yusuf-Zulayho,
Ularning hamrohi bo'lsam, inonmas.

G'arib bo'lib Xalob-Shirvonga qochsam,
Yorim Shohsanam deb har nedan kechsam,
Ular kabi yetti yilda qovushsam,
Izida sarg'ayib so'lsam, inonmas.

Men sevar yorimni ola bilmadim,
Shum raqib dastidan kula bilmadim,
Nozli yorning ko'nglin bila bilmadim,
Yig'lasam aldanmas, kulsam, inonmas.

Kamina der, arzim yorga yetirsam,
Ko'nglimdagi sirim tilga keltirsam,
Yemasam, ichmasam, bo'zlab o'tirsam,
Chanqasam, toliqsam, o'lsam, inonmas.

ARZIM AYTAYIN

Do‘stlarim, keldim olisdan, xonga arzim aytayin,
Davlati sohibkaram, sultonga arzim aytayin,
Gul ichinda bir guli rayhonga arzim aytayin,
Paykari siymo malak ruhonga arzim aytayin,
Kavsarim, nozik niholim, rizvonga arzim aytayin.

Layli va Majnun kabi cho‘llarga yo‘l oldim bugun,
Vomiq-u Uzro bo‘lib, ko‘p o‘rtanib yondim bugun,
Varqa Gulshodan battar bir holga qoldim bugun,
Arzi-Qambar, Zuhro-Tohirdek elga jar soldim bugun,
Chun alarning ishqiga parvona arzim aytayin.

Oshiq Farhodni ko‘ring, Shirin zulolin istar,
Tog‘-u toshni kul etib, zavqi safoni istar,
G‘urbatda Yusuf-Zulayho umri solni istar,
Sa’di-yu Sayfulmuluk, Madhaljamolni istar,
Jonimga qurbon etib, jononga arzim aytayin.

Dovudning o‘g‘li Sulaymon bir parizodni ko‘rib,
Behisob lashkar bilan qirq kecha-kunduz yo‘l yurib,
Chekdi Bulqisning firog‘in, qahrabodek sarg‘ayib,
Yetti yilda bir yetishdi Shohsanam, Oshiq G‘rib,
Men yetolmay qoldim, ul dildorga arzim aytayin.

Sen ucharsan, men yurarman, sen parizod, men bashar,
Solmisham savdoga boshim, harna kelsa xayr-u shar,
Kamalakdek yam-yashil kiyinishi yarashar,
Kun chiqdi samo uzra, shu’lasi yerga tushar,
Oyga oshiq bo‘lmisham, osmonga arzim aytayin.

To‘ldirib ishq mayidan bersalar bir tos ila,
To‘rt yoron, yetti valiy, ham Xizir, Ilyos ila,
Chaqirib faryod etarman, har sahar ixlos ila,
Bahri ishqqa kir Kamina, dur talab g‘avvos ila,
Shamchiroq gavhar uchun ummonga arzim aytayin.

BORINDA

Bu dunyoda g‘ofil bo‘ldim, o‘tirdim,
Tebranmadim shirin jonning borinda.
Jahonning qayg‘usi tortib keltirdim,
Torga tushdim keng jahonning borinda.

Do‘stlar ila bir ma’rifat ochmadim,
Gul umrimda gul g‘unchasin quchmadim,
Nozu ne’mat ko‘rib yebon-ichmadim,
Oshsiz qoldim, osh-u nonning borinda.

Yuksakni ko‘zlabon, balanddan oshdim,
Lek ko‘nglim ming pora, yolg‘izdir boshim,
Qani mening jonajonim, yo‘ldoshim?
Musofirman Suyunxonning borinda.

Ko‘kka cho‘zsam, qo‘lim ko‘kka yetmaydi,
Yerga boqsam, ko‘nglim qaror etmaydi,
Sening bu dunyongga mehrim ketmaydi,
Qora yering — ajdahoning borinda.

Pashsha uchsa, qanoti bor, joni bor,
Chumolining o‘z joyida o‘rni bor,
Har bir uyning adolatli xoni bor,
Xonsiz qoldim, begning, xonning borinda.

Bir kam o‘ttiz yildir surishdim davron,
Yor, sensiz kerakmas bu foniy jahon!
Kamina boqarding tovusdek har yon,
Endi shodlik yo‘qdir dunyo borinda.

SO‘ZIM BOR SANGA

Qora ko‘zli, qalam qoshli parizod,
Aytabilmam, bitta so‘zim bor sanga.
Ishqingda kuyib men ayladim faryod,
Ikki chashmim bir ko‘rmoqqa zor sanga!

Dilxastaman, zulflaringga bog‘lama,
Xanjar urib, yurak-bag‘rim dog‘lama,
Mehmoningman, eshigingdan quvlama,
Kerakmasmi nomus ila or sanga?

Dol gardandan tillo bezak taqmasang,
Ko‘zing suzib kamon qoshing qoqmasang,
Yuz ming so‘zlar aytsam, beri boqmasang,
Nelar qilsam yoqar ekan yor sizga?

Kamina der, sendan istarman vafo,
Vafo istab kelsam, sen qilding jafo,
Ishqingda xastaman, aylagin shifo,
Shifo istab keldim, men bemor sanga.

CHIQDI-DA, KETDI

Ey og‘alar, Yo‘lo‘tanning duzidan,
Mening sarvi bo‘ylim chiqdi-da, ketdi.
Olma yanog‘idan, oppoq yuzidan
La’li marjonlarin to‘kdi-da, ketdi.

Qo‘sh bilazik xo‘b yarashmish dastiga,
Jallod ko‘zlar jon olishning qasdida,
Oyjamolim oqmoyaning ustida,
Bir kaniz boshini tortdi-da, ketdi.

Visol chog‘i qora zulfin taradim,
Bir ko‘rmasam yo‘qdir bardosh-qarorim,
Oyjamolim — oppoq yuzli maralim
Gohi-gohi menga boqdi-da, ketdi.

Jayroni bor, ulog‘i bor cho‘lining,
O‘rdagi bor, g‘ozlari bor ko‘lining,
Kamina der, sarvi bo‘yli kelinning
Ishqida ko‘z yoshin to‘kdi-da, ketdi.

YONIMA[1]

Keldi qalam qoshli qiz,
Jilva qilib yonima.
Kipriklari misli tig‘
Botar mening jonima.

Men dedim: “Bu jon talosh,
Ko‘zim to‘kar qonli yosh,
Boqmading bir, bag‘ritosh,
Holi parishonima”.

Men dedim: “Ey yuzi gul,
Xizmatingda banda qul,
Qahring qo‘y-da, sabr qil,
Tashna bo‘lsang qonima”.

Kamina der: “Qul bo‘ldim,
Yona-yona kul bo‘ldim,
Bir kecha vosil bo‘ldim
Toza gulistonima”.

[1] Bu qo‘shiq Mullanafasga ham nisbat beriladi. E.Ochilov tarjimalari.

SHUL YOR O‘LDIRDI

Telba bo‘ldim, endi holim xarobdir,
Ey og‘alar, meni shul yor o‘ldirdi.
Mushk olibon kokillarin tarabdir,
Jon og‘alar, meni shul yor o‘ldirdi.

Qo‘yniga qo‘l solsang, qo‘sh anori bor,
Taqib olmish oltin-kumushni qator,
Bo‘ynida yoqut-u la’l, yana tumor,
Ey og‘alar, meni shul yor o‘ldirdi.

Orzu etib oy jamolin ko‘rgali,
Yuzda gulob, qosh-u ko‘zi surmali,
Bir paridir sochi sakkiz o‘rmali,
Jon og‘alar, meni shul yor o‘ldirdi.

Kamina der: “Taxt ustinda joyidir,
Daryo duri, osmon quyosh, oyidir,
Qizlar xoni, go‘zallarning shohidir,
Jon og‘alar, meni shul yor o‘ldirdi”.

ISHONMAS

Ishim tushdi bir bevafo yor bilan,
Yorim deb yoniga borsam ishonmas.
Yo‘lida tiksam-u jonni, zor bilan
O‘tga tushib, kuyib-yonsam ishonmas.

Layli-Majnun kabi cho‘llarga chiqsam,
Orzu-Qanbardayin[1] daryoda oqsam,
Farhod-u Shirindek tog‘larni yiqsam,
Toshlarning taginda qolsam ishonmas.

Boq: ne ishlar qildi Vomiq va Uzro,
Sayyodxon deb kechdi yoridan Hamro,
Kitobda bitilgan Yusuf-Zulayxo,
Ularning hamrohi bo‘lsam ishonmas.

G‘arib bo‘lib Halab, Shirvonga qochsam,
Yorim Shohsanam deb kuysam-u pishsam,
Ular kabi yetti yilda qovushsam,
Ko‘yida sarg‘ayib-so‘lsam ishonmas.

Men sevar yorimni ola bilmadim,
Raqib ta’nasidan kula bilmadim,
Nozli yorning fe’lini bila bilmadim,
Yig‘lasam aldanmas, kulsam ishonmas.

[1] Rivoyatlar asosida o‘rta asrlarda yaratilgan doston.

Kamina der: “Orzum yorga yetirsam,
Ko‘nglimning sirini tilga keltirsam,
Yemasam, ichmasam, qarab o‘tirsam,
Och qolsam, chanqasam, o‘lsam ishonmas.

SEVGILIM

Qiyo-qiyo boqishlaring,
O‘t soldi jona, sevgilim.
Qora ko‘zli, nozik badan,
Bir boq bu yona, sevgilim.

Oy jamoling shu’la solar,
Jallod ko‘zing jonim olar,
Qachon sendan mehrim qonar,
Ketma bir yonga, sevgilim.

G‘amzang o‘qi bermas omon,
Najot yo‘q undan bir zamon,
Kiprigi o‘q, qoshi kamon,
Tishi durdona, go‘zalim.

Kaminaning yo‘q imkoni,
Qizlarning bo‘lmas yomoni,
Orasi qisqa-uzunni,
O‘rtamiyona, sevgilim.

SAYIDIY

Shoirning asl ismi Saidnazar bo'lib, Sayidiy uning adabiy taxallusidir. U taxminan 1768-yilda hozirgi Labob viloyatida tug'ilgan bo'lib, o'ziga xos yo'nalishda ijod qilgan. 1830-yillar atrofida vafot etgan.

XVIII–XIX asr turkman shoirlarining aksariyatida bo'lganidek, Sayidiyning shaxsiy hayoti va ijodi haqida hozirgacha to'la ma'lumotga ega emasmiz. Ayrim tarixiy manba va xalq rivoyatlari Sayidiy faqat shoir sifatida mashhur bo'lmasdan, balki Buxoro amiri Mirhaydar zulmiga qarshi faol qatnashgani ham aytiladi.

Shoir ijodida harbiy-qahramonlik va sevgi lirikasi alohida o'rin tutadi.

AYRILDIK

Ey og‘alar, armon bilan
Turli davrondan ayrildik.
El bo‘lib Rahimxon bilan,
Haydar sultondan ayrildik.

Bedov minib, atlas kiygan,
Ne noz-u ne’matlar yegan,
Ko‘p fayzli Labob degan
Bir qadrdondan ayrildik.

Kirdik bir cho‘l biyobona,
Suv ichmadik qona-qona,
Uchradik g‘amli makona,
Rohati jondan ayrildik.

Ersarining nomi yitdi,
Har qaysi bir yonga ketdi,
Xon “hazrat”ning ko‘ngli bitdi,
Biz esa sondan ayrildik.

Erta-yu kech bir yurishgan,
Xayr-u sharni teng bo‘lishgan,
Zavq-u safolar surishgan,
Yor-u yorondan ayrildik.

Tog‘larda bo‘y cho‘zmish eran,
Qirilmish sanoqsiz jayron.
Urganch, Labobga suv bergan,
Bahri ummondan ayrildik.

Taxti naqshinkor oyoqli,
Beglar qoldi xush siyoqli,
Sarhovuzli, sersoyali,
Kushki ayvondan ayrildik.

Necha ishva-yu shevali,
Qochdik, yetmadi xivali,
Turfa shajarli, mevali
Bog‘-u bo‘stondan ayrildik.

Topmayin aysh-u ishratni,
Yutarmiz g‘am-u hasratni,
“Istay-istay” xon hazratni,
Oxir makondaṇ ayrildik.

Sayidiy der, esiz Labob,
Qoldi el-u kunsiz qarab,
Barham topib, mulk-u asbob,
Bir xonumondan ayrildik.

BOZLARIM QOLDI

Falakning ilgidan etsam oh-u dod,
O‘n beshda o‘q otgan bozlarim qoldi.
Ketar bo‘ldi jismi jondan kuch-quvvat
Bir necha xush navo sozlarim qoldi.

Shom-u sahar xayol aylab yotardim,
Ko‘ngil bilan bir joylarga yetardim,
Ovga chiqib bexato o‘q otardim,
So‘nali, o‘rdakli g‘ozlarim qoldi.

Bir dam saqlab turar kelgan qazoni,
Ko‘z ko‘radi peshonaga yozganni.
Bilmam, qachon kelar umrim xazoni
Gullagan bahor-u yozlarim qoldi.

Bir qayg‘u andisha chulg‘anar sarga,
Vaqting yetsa odam qo‘shilar yerga.
Sayr etib bormasman endi dasht-cho‘lga,
Lolazor, chamanzor, duzlarim[1] qoldi.

Falakning ilgidan etgumdir faryod,
G‘amdan qutulmadim dunyoda, hayhot.
Menga hamroh bo‘lgan ayriliq — furqat
Giryonning ichida ko‘zlarim qoldi.

Bu dunyoning yo‘q ekan hech davroni,
Ko‘ngilda qoldi-ku ne-ne armoni.
Yo‘qolib jonimning davo-darmoni,
Bir necha purma’no so‘zlarim qoldi.

[1] **Duz** — tekis yer ma’nosida

Sayidiy der, dunyo bir quruq otdir,
Kimlar yig‘lar bunda, kimsalar shoddir.
Bildimki, bu o‘zi asli bedoddir
Qush kuzatib bunda o‘zlarim qoldi.

MANGZAR

Foniy jahonda ayriliq
Cho‘l ichra qolganga mangzar.
Boshda qolmas aql-qiliq,
Devona bo‘lganga mangzar.

Mehnat kelar davron o‘tsa,
Vayron etar qazo yetsa.
Ota qolib, o‘g‘il ketsa,
Daraxti bejonga mangzar.

Odamzodning ko‘p tashvishi,
Bilmas yaxshi-yomon ishni,
Foniy dunyoning gardishi
Hech tubsiz yolg‘onga mangzar.

Har kim ko‘rsa murodini,
Istar obro‘li otini,
Kim olsa yomon xotinni,
Qo‘shlari talonga mangzar.

Yigitda nomus, or bo‘lsa,
Qo‘lida moli bor bo‘lsa,
Kim g‘arib qarzdor bo‘lsa,
Yuzlari so‘lganga mangzar.

Bad bo‘lsa kishining o‘zi,
Yomon bo‘lar o‘g‘il-qizi,
Dilozorning har bir so‘zi
Bag‘rini tilganga mangzar.

Sayidiy der har ish bo‘lsa,
Ko‘rarsan Xudodan kelsa,
Har kim yurtidan ayrilsa,
O‘rtanib o‘lganga mangzar.

G‘ANIMAT

Bayon etsam bu dunyoning bo‘lishin,
Bu dunyoga kelgach, davron g‘animat.
Yaxshi-yomonning o‘tirib-turishin
Har biridan biroz ko‘rgan g‘animat.

Bu dunyo, bilsangiz, qattiqdir toshdan
Umring kamaytirar yoz ila qishdan.
Nafsi oshsa ketar aqldan-hushdan,
Ul nafsi shaytonni urgan g‘animat.

Ko‘nglingni sof aylab, tuzatgin o‘zing,
Bo‘lar-bo‘lmasga sarf etma so‘zing,
O‘n ikki anjoming, ul ikki ko‘zing,
Bu yorug‘ jahonni ko‘rgan g‘animat.

Zolimlar dunyoning barin olibdi,
Yomon ish avjida, xayr ish qolibdi.
Bilmam, yo qiyomat yaqin kelibdi,
G‘arib uchun bag‘ring ochgan g‘animat.

Sayidiy der, dushman qo‘ymang vatanda,
Kim o‘lsa ot qolar bundan o‘tganda.
Saksondan so‘ng to‘qson yoshga yetganda,
Foniydan boqiyga borgan g‘animat.

MUBORAK BO‘LSIN

Ey qorovulbegi, Labobdan qochib,
Bu kelgan yurtingiz muborak bo‘lsin.
Mirhaydarning bor-u yo‘g‘idan kechib,
Bu kelgan yurtingiz muborak bo‘lsin.

Xorazmda surib aysh-u ishratni,
Ko‘rib keldingizmi ul “xon hazrat”ni.
Endi hech ko‘rmangiz g‘am-u hasratni,
Bu kelgan yurtingiz muborak bo‘lsin.

Siz har dam aylabon uzoq andisha,
Qo‘l uribsiz bugun xo‘p yaxshi isha,
Ilohim, obro‘li bo‘ling hamisha,
Bu kelgan yurtingiz muborak bo‘lsin.

Bandni bog‘lasangiz jafolar chekib,
Mo‘l hosil olarsiz ekinlar ekib,
O‘tirmoqqa qator oq uylar tikib,
Bu kelgan yurtingiz muborak bo‘lsin.

Eshitganman ko‘p og‘izdan, ko‘p tildan,
O‘tib kelganmishsiz qancha yurt-eldan,
Haq bersa ko‘p berar, so‘rasang dildan,
Bu kelgan yurtingiz muborak bo‘lsin.

Biz ham keldik bugun sizni ko‘rmakka,
Nasib etsa davr-u davron surmakka.
Sayidiy der, sog‘-salomat yurmakka,
Bu kelgan yurtingiz muborak bo‘lsin.

SOAT KUTSA KERAKDIR

Sultonniyoz begning to‘yiga endi,
Munajjimlar soat kutsa kerakdir.
Kelgan do‘st-u yorlar ketmay uyiga,
Xizmatida bunda yotsa kerakdir.

Chor tarafga chopar ketdi xat ila,
Ajib libos kiyib, uchqur ot ila,
Kelsa g‘ayi eli ham bayot ila,
Avval oltin qovoq otsa kerakdir.

Boshdan oyoq butun ersari kelib,
Taka, solir, sariq bisyori kelib,
Balki turkman otlig‘ el bari kelib,
Ot minib, to‘n kiyib ketsa kerakdir.

Yana har el o‘ng-u so‘ldan yetishib,
Qarshi, Buxor, Qorako‘ldan yetishib,
Doshqozonlar to‘la palovlar pishib,
Barcha xursand bo‘lib ketsa kerakdir.

Urganch-u Balqondan, Gazmin, Tehrondan,
Mashhad-u Hirotdan, Balx, Badaxshondan,
Qozoqdan, Qo‘ng‘irotdan, Qirg‘iz, Qo‘qondan,
Eshitgani surib, yetsa kerakdir.

Baxshilari aytur xush ovoz bilan,
Suhbatlar qurilar qo‘shiq — soz bilan.
Dilbar raqqosalar ko‘p darboz bilan,
Ajoyib o‘yinlar etsa kerakdir.

Ming so‘qim, ikki ming qo‘ylar so‘yilib,
Bosh otga bitta qul sovrin qo‘yilib,
O‘g‘izxonning to‘yi kabi to‘y bo‘lib,
Ko‘p tomosha birla o‘tsa kerakdir.

Yaratgandir Alloh azalda buni,
Ko‘ngliga solmagan zarra qayg‘uni,
To‘yida xalqini jam etgan kuni,
Hisobining soni yetsa kerakdir.

Kelganlarning bari — faqir-u boyi,
Kiyinishar ustiga kimxob sarpoyi,
Ko‘p chalingach nog‘ora-yu surnayi,
Xalqning ko‘z-qulog‘i qotsa kerakdir.

Yegan aytar ofarin-u marhabo,
Turfa ziyofatlar har shom-u samo,
Balki kelgan barcha g‘arib — g‘urabo,
Totmagan taomin totsa kerakdir.

Sayidiyning yolg‘on bo‘lmas so‘zlari,
Inshaalloh barin ko‘rar ko‘zlari.
Yetti kun chopilgan otning to‘zlari,
Oy-kunning shu’lasin yopsa kerakdir.

BIR JUVON

Ey og‘alar, shu ovulda,
Bizga ko‘p kuldi bir juvon
Boshda harir, ola ro‘mol,
Bizga ko‘p kuldi bir juvon.

Kutib turdim, qarab-qarab,
Eshigiga bordim so‘rab,
Qoldimi dedim yotsirab,
Bizga ko‘p kuldi bir juvon.

Gul ochilar chig‘i birla,
Bag‘rim tildi tig‘i birla.
Chap ko‘zin qiyig‘i birla,
Bizga ko‘p kuldi bir juvon.

Sayidiy der solib nazar,
Ishq yo‘linda tortdim ozor,
Ko‘zi Manglixonga mangzar,
Bizga ko‘p kuldi bir juvon.

GURT O‘G‘LI

XVIII asr oxiri va XIX asr boshlarida yashab ijod qilgan atoqli turkman mumtoz shoirlaridan biri Gurt o‘g‘lidir. Shoirning asl ismi O‘rozpo‘lat, otasining ismi esa Onnagurt bo‘lgan, u Go‘ktepada tavallud topgan, degan ma’lumotlar bor. Gurt o‘g‘li shoirning taxallusi bo‘lib, el orasida unga Vayron baxshi degan ikkinchi bir taxallusni ham qo‘yishgan. Gurt o‘g‘li she’r yozib, elda shuhrat topganidek, baxshichilik san’ati, mahorati bilan ham obro‘-e’tibor qozongan. Gurt o‘g‘lining Xiva madrasasida o‘qigani haqida ma’lumotlar mavjud.

Shoir ijodida vatanparvarlik, pand-nasihat, sevgi-muhabbat mavzusi asosiy o‘rin egallaydi. Uning she’rlarini o‘qiganda shoirning o‘zidan oldingi Sharq mumtoz adiblari ijodi bilan yaqindan tanish bo‘lgani, shuningdek, tarix, geografiya fanlaridan boxabar ekani yaqqol ko‘zga tashlanadi. Gurt o‘g‘li sharq mumtoz she’riyatining turli janrlarida ijod qilgan.

KERAKMAS

Bir vafoli yorga jon ayla fido,
Bevafoning qoshi-ko‘zi kerakmas.
Bir so‘zli mardlardan bo‘lmagin judo,
Har nomardning ellik, yuzi kerakmas.

Kunglim aytar, yaxshi bilan o‘tirsam,
Do‘stim debon o‘z kulbamga keltirsam,
Quvnoq davrasida o‘ynasam, kulsam.
Muxannasning rustam so‘zi kerakmas.

Nomard kulbasiga qo‘ysang gar qadam,
Yayrab yashnamaysan, kulmaysan odam.
Barkamol do‘st ila bo‘laver hamdam,
Bekamolning ko‘pi-ozi kerakmas.

Bu bir nasihatim bordir olganga,
Nodonga aql ber, quloq solganga.
Fahm aylab, so‘z ma’nisin bilganga,
Nofahmning chalgan so‘zi kerakmas.

Yaxshi bilan umring o‘tkaz el bo‘lib,
Gar suv ichsang, jonga tegar bol bo‘lib,
Yomon ila yonib o‘tma kul bo‘lib,
Badasilning qilgan nozi kerakmas.

Yaxshi yorning bahsi bo‘lar hur bilan,
Ranggi gulga o‘xshar, zulfi zar bilan.
Kuning o‘tsa ko‘ngil sevgan yor bilan
Har nokas xotinning tuzi kerakmas.

Bir nechadan ellar bo‘larmish qo‘rqoq,
Bedov oti chaman, yobisi hurkak.
So‘zi bee’tibor xotin-u erkak,
Gurt o‘g‘liga shuning o‘zi kerakmas.

OTING QOLDI

Yolg‘on dunyo diyorida,
Qurbon sening oting qoldi.
Har majlisning kanorida
Qilgan e’tiqoding qoldi.

Yaxshilikda o‘tdi xulqing,
Xarob bo‘lib qoldi mulking,
Qavm-qardosh, el-u yurting,
Yuraginda o‘ting qoldi.

Har kimsa ko‘rsa bu xatni,
Mudom chekar furqatni,
Avval ismi mulla To‘ti,
Bobojon zurriyoding qoldi.

Devon tili xush zaboning,
Kamaymas hech osh-u noning,
Yig‘ilmaydi dasturxoning,
Ko‘p qilgan hayrating qoldi.

So‘roq aylab, har yon boqib,
Topmas seni bag‘rin yoqib,
Ota-onang zorin chekib,
Shunday nomuroding qoldi.

Gurt o‘g‘li yozar bir doston,
Qaydan topar seni oson?
Oq siynasi turfa bo‘ston —
Nozli parizoding qoldi.

TOG‘ USTIDA TOG‘ QO‘YIB

Falak, sendan endi yonib, tutashdim,
Jabr etarsan tog‘ ustiga tog‘ qo‘yib.
Rohat debon hasratingga ulashdim,
Pora qilding siynamga sen tig‘ bo‘lib.

Magar mening senga yo‘qdir keragim,
Bu jabringga toqat etmas yuragim.
Og‘u-zahar bo‘ldi yegan cho‘ragim,
Sham bo‘lmading muchasiga yog‘ qo‘yib.

Oshiqi Majnunman, bir yor ko‘zlagan,
Pinhon qilib, do‘st aybini gizlagan,
Bulbul edim, bog‘ madhini ko‘zlagan,
O‘chirding sen Vatanimda zog‘ qo‘yib.

Vo hasrato, eshitmading faryodim,
Bilmam qaysi ishda bo‘lar murodim,
Samandardek o‘zim yoqdi o‘z o‘tim,
Suv sepmading, dahanimda suv quyib.

Ko‘plar kelib ketgan ko‘hna guzarsan,
Qasd aylabon shirin jonga to‘zarsan,
Bir kun ko‘rgan mulkim bir kun buzarsan,
Parvonadek qul etarsan cho‘g‘ qo‘yib.

Bir nechaning baxti kular, ochilar,
Har na qilgan gunohlari kechilar,
Bir nechaning qonli yoshi sochilar,
Xira qilding diydalarga cho‘g‘ qo‘yib.

Qadding ne uzundir, egilmas bo‘yning,
Kelganni yashirib to‘lmadi qo‘yning.
Yuzing kulib turar, qaltis o‘yining,
Quvonmading hech kimsani sog‘ qo‘yib.

Ne-ne mardlar bo‘ldi ota-onadan,
Qarab ko‘r-chi kim qolibdi ko‘hnadan.
Gurt o‘g‘li der, gina qilmay dunyodan,
Quvar bir kun tovoningga sang qo‘yib.

QORA BO‘LAR LIBOSI

Ey yoronlar, har kimsaki xor bo‘lsa,
Elga sig‘mas, qora bo‘lar libosi.
Kuni tug‘mas kecha bo‘lar sabosi,
G‘arib bo‘lib, har yetganga zor bo‘lsa.

Qachon aning g‘amgin ko‘ngli jam bo‘lar,
Siynalari dog‘li, ko‘zi nam bo‘lar,
Dardin aytsa, holing so‘rab kam bo‘lar,
Har kimsaning bo‘lmas mehr-u vafosi.

Tiliga tushunmas so‘zlasa turkiy,
Siynadan ayrilar, ko‘zguday ko‘rki.
Qaddiga yarashmas, jomasi-ko‘rki,
It terisi — boshga kiygan kulohi.

Yoti yog‘iy bo‘lar, yaqini yotdir,
Do‘sti dushman bo‘lar, dushmani shoddir,
Bilmas, bu nechuk hol, nechuk ovqatdir,
Kundan kunga ortar aning balosi.

Gurt o‘g‘li der, yuzin tuta yuz erga,
Ishi o‘ngdan kelib o‘tkazar to‘rga,
Bitmas dog‘ tushsa gar, sog‘aymas yerga,
Aning do‘stlar, nadir aning davosi?

HOL BO‘LAR

Yaxshi yorning davrasin
Ko‘rsang sharobi bol bo‘lar,
Yomonni yor aylama
Qutulmoq mahol bo‘lar.

Yaxshi birla o‘ltirib,
Suhbat aylasa gar yomon.
Beaqllar orasida
Donolar ham lol bo‘lar.

Haq muyassar aylasa,
Sahroyilarga bir zamon.
Sen ularni do‘st bilib
Tursang, kuning bir sol bo‘lar.

Bu jahon ayvonida gar
Yaxshi bo‘lsa munising.
Yaxshining har bir so‘zi
Yuz ming tumanga teng bo‘lar.

Haq solibdur boshingga
Gurt o‘g‘li qiynalmagin,
Bekamol yo‘lga kirguncha
Yosh boshing bir chol bo‘lar.

BO‘LMAS

Arz aylabon olis yerdan,
Seni deb kelmasam bo‘lmas.
Sening uchun kechib sardan,
Yor senga yetmasam bo‘lmas.

Oshiqman ko‘kdagi oyga,
O‘zimni qo‘yayin qayga?
Sening uchun har bir joyga,
Boshimin solmasam bo‘lmas.

Maqsadimga yetsam olib,
Dol gardanga qo‘lim solib.
Sening giriftoring bo‘lib,
Sarg‘ayib — so‘lmasam bo‘lmas.

Gurt o‘g‘li der yorni ko‘rib,
Xizmatida tursam borib.
Bir to‘n ichra bir tan bo‘lib,
O‘ynabon kulmasam bo‘lmas.

YANGLIG‘

Bir shohi jahon ko‘rdim, daftarda yozar yanglig‘,
Chun ganji nihon ko‘rdim, ko‘rgan ko‘z qizar yanglig‘.
Og‘zimni ochib turdim, bir ko‘hna guzar yanglig‘,
Mujgoni o‘tar jondan, chun fitna nazar yanglig‘,

Bir mohi chiqib yerdan,
Go‘yoki tovus gardan.
Aqlimni olib sardan,
Jonimni to‘zar yanglig‘.

Bilmam nechuk ofatdir, hajrida nazar soldi,
Yer-u osmon tebrandi, go‘yo arosat bo‘ldi.
Yor ishqida kuydirdi, bizlarni g‘arib qildi.
Jam bo‘ldi parivashlar, sardori sanam keldi.

Band aylab guzarimni,
So‘rmadi ozorimni.
Jamladi mozorimni,
Yo‘l tushsa to‘zar yanglig‘.

Farhod-u Shirinlarga ishq ozorin ko‘rsatdi,
Layli ila Majnunning ko‘nglida ne hikmatdir.
Har oshiqi nokasda, do‘stlar bu ne rohatdir,
Yor jabriga duch o‘ldim, aylar ne mashaqqatdir.

Jabrin bizga tortdirdi,
Ko‘z yoshlarim oqtirdi.
Ishq o‘tida yoqtirdi,
Ko‘ksimni ozor yanglig‘.

Bir yaxshi nigor ekan, ham la'li labi shirin,
Shirinlikda beqiyos, xud asal kabi shirin.
Kim tortdi battar mendan ayriliqning ozorin,
Kam ko'rmisham o'zindan yetti oshiqning barin.

Bog' sayliga bir chiqmas,
Pinhonligi hech yoqmas.
Yor bizga qiyo boqmas,
O'pkamni yozar yanglig'.

Tashna lab ichra bo'lsa, mayxonadir Gurt o'g'li,
Dahr aro bir oh qilgan devonadir Gurt o'g'li.
Gohi navqiron vaqti parvonaydi Gurt o'g'li,
Ag'yoriga jafo chekmas, begonaydi Gurt o'g'li.

Yorning jamolin ko'rsam,
Xizmatlarida tursam.
Chin yorga ko'ngil bersam,
Ko'nglimni tuzar yanglig'.

ZINHORIY

Shoirning ismi Abdurahim bo'lib, Zinhoriy uning adabiy taxallusidir. Biroq asosiy kasbi temirchilik bo'lgani uchun, xalq orasida unga "Usta Rahim" ham der ekanlar.

Zinhoriy 1794-yilda hozirgi Labob viloyatining Xalach tumanida tug'ilgan bo'lib, 1886-yillarda vafot qilgan.

Zinhoriy ijodida hayotning turli qirralari badiiy aks etadi. Ayniqsa, mardlik, jasorat, Vatanga muhabbat va maishiy mavzularga bag'ishlangan she'rlar uning ijodida asosiy o'rin egallaydi.

Zinhoriy ijodiga buyuk shoir Maxtumquli va, ayniqsa, hajvchi shoir Kaminaning ta'siri yaqqol sezilib turadi.

QOLSANG NETAR

Nozli dilbar, quyi boqma,
Shodon bo‘lib qolsang netar?
Dardli jonim o‘tga yoqma,
So‘zga quloq solsang netar?

Ayrilib sabr-u qarordan,
Ketdim endi e’tibordan,
Umidim bor qo‘sha nordan,
Menga nazar solsang netar?

Tishlaring ajib durdona,
O‘tlar solding shirin jona,
Bo‘ldim Majnundek devona
Sen ham Layli bo‘lsang netar?

Ko‘nglimda bor yuz xayolim,
Yo‘lingda fidodir jonim,
Kecha-kunduz tangdir holim,
Bir bor xabar olsang netar?

Rahm aylagil men gadoga,
Gul umring ber himoyaga,
Mangzabon shunqor — humoga,
Yonginamga kelsang netar?

Oshiqlarning dardi menda,
Orzuyim, armonim senda,
Bo‘lay gul qoshingga banda,
Bir bor qarab, kulsang netar?

Zinhoriy der, yig‘ladim zor,
Ko‘rishay deb sen-la diydor,
Kerakmas menga o‘zga yor —
Ixlosimni bilsang netar?

RANG KELDI

Ko‘ring, bu zamonning qilgan ishini:
Fahm aylading xayr ishga rang keldi.
Tanimay qoldilar qavm-qardoshni,
Pul yig‘nagan muxannasga hang keldi.

Boylar bir-birila maston yurishar,
Xayr-ehson etsa, yomon ko‘rishar,
Qayda qasamxo‘rga navbat berishar,
Ul alomat oxir kundan o‘ng keldi.

Bir nechamiz yo‘g‘-u bordan ayrildik,
Qolmadi kuch-quvvat — zurdan ayrildik,
Necha tengqur, jo‘ra-yordan ayrildik,
Qazo haybatidan dilga zang keldi.

Kayfdan o‘zga qayg‘u kelmas boshiga,
O‘tirganda tizza yetar to‘shiga,
Hech amalsiz mullalarning qoshiga
Qodir Xudo, ko‘knor bilan bang keldi.

Harom sodir bo‘ldi, halol yopildi,
Bir necha xush ishlar teskari bo‘ldi,
Zolim rivoj bo‘ldi, bad ish topildi,
Shu zamonlar yildan yilga tang keldi.

Foyda bilib, yig‘ladilar gunohni,
Tilamas bo‘ldilar pushti panohni,
Farzandlar bilishmay ota-onani,
Ota-o‘g‘il bir-biriga jang keldi.

Zinhoriy der, har so‘z keldi tilimga,
Kimsa o‘g‘ri, kimsa sofdir elimda,
Shoh-gado baravar qoyil o‘limga —
O‘lim barchalarga birdek teng keldi.

PUL BO‘LSA

Ul yigitga mehmon kelar,
Qo‘lida zarrin pul bo‘lsa.
Barcha uni yaxshi bilar,
Xush zabon — shirin til bo‘lsa.

Har kimga bir davron etar,
G‘ariblarning holi battar,
Kamdast songa kirmay o‘tar,
Quvvati, kuchi fil bo‘lsa.

Yaxshi odam g‘iybat qilmas,
Yomon aybing ochar, bilmas,
Ipak, atlas baho olmas,
O‘tgan iplari qil bo‘lsa.

Bu dunyoda qancha ish bor,
Kim halol yer, kim tekinxo‘r,
Ul xotin topmas e’tibor,
Ayrilib erdan, tul bo‘lsa.

Qazo yetmay odam o‘lmas,
Umr o‘tar, g‘ofil bilmas.
O‘lgan ketar qaytib kelmas,
Yonib izida kul bo‘lsa.

Zinhoriy, so‘zla muxtasar,
Oqil umrin bilib yashar.
Dunyoga to‘ymas hech bashar,
Yoshi necha yuz yil bo‘lsa.

KO‘RMADIM

Bag‘ringga kelibon tushdik bu holga,
Dunyo, sening shod yeringni ko‘rmadim,
Tuganmas qayg‘u-g‘am bo‘ldi havola,
Dunyo, sening shod kuningni ko‘rmadim.

Seni debon o‘zgadan yuz o‘girdim.
Mol-u dunyo topmoq uchun yugurdim,
Jafo ko‘rsam, boshdan qumlar sovurdim,
Dunyo, sening shod yeringni ko‘rmadim.

Tinmayin ilg‘adim yoz bilan qishda,
Kimsalar yashaydi safo-ayshda.
Men sening dastingdan mudom koyishda,
Dunyo sening shod yeringni ko‘rmadim,

Quvlay desam yo‘qdir sening izlaring,
Mendan o‘zga bormi o‘g‘il-qizlaring?
Mudom qishdir sening bahor-yozlaring,
Dunyo, sening shod yeringni ko‘rmadim.

To‘g‘ringni ayt, ulfat bo‘lding kim bilan?
Diydalarim to‘ldirmagin nam bilan,
Hamroh etding qayg‘u-kulfat, g‘am bilan,
Dunyo, sening shod yeringni ko‘rmadim.

Meni duchor aylab yaxshi-yomonga,
Dod sening dastingdan keldim omonga.
Do‘st bo‘lib ham ko‘z tikibsan imonga,
Dunyo, sening shod yeringni ko‘rmadim.

Do‘st der edim, sen ordona qolganni,
Xush so‘z ila aytding asli yolg‘onni,
Shoh-u gadolarga solib talonni,
Dunyo, sening shod yeringni ko‘rmadim.

Aldading, kuydirding zikr-u sanoni,
Shayton ila ayirmading gunohni.
Ayirding mehribon ota-onani,
Dunyo, sening shod yeringni ko‘rmadim.

Har kimni bir ishga giriftor etding,
Aldabon kam-kamdan umrimni kertding.
Muhammad Mustafo, choriyorni netding?
Dunyo, sening shod yeringni ko‘rmadim.

Zinhoriy der, aytsam dod-u arzlarni,
Irshod aylab sunnat ila farzlarni,
Ellar johil bo‘ldi bermay qarzlarni,
Dunyo, sening shod yeringni ko‘rmadim.

BILMADI

Ey, yoronlar, bu zamon har odami,
Dunyo uchun bag‘rin kerdi, bilmadi.
Quyosh tomon otdi har bir odimni,
Qaysi darmon, qaysi dardi, bilmadi.

Saxovat qolmadi boylar qo‘linda,
Bir nechalar kalomi yo‘q tilinda.
Hayo ketib borar qiz-u kelinda,
Ko‘nglin yomon ishga berdi, bilmadi.

Necha so‘zni bayon etsam tilimdan,
Shayton mardud bo‘ldi makr bilimdan.
G‘ofillar bexabar bo‘lar o‘limdan,
Oz umrin behuda yo‘ydi, bilmadi.

Ko‘z-ko‘z etib turli libos kiyishar,
Murdor topsa, uni halol deyishar,
Luqmasiga harom qo‘shib yeyishar,
Bir tubsiz davronni surdi, bilmadi.

Chirkin dunyo debon qiynarlar jonni,
Ma’lum bo‘ldi axir vaqti — zamoni,
Ko‘ring shu ayyomning shayxi — eshoni
Ta’ma aylab qo‘lin sardi bilmadi.

Zinhoriy der, dunyoga kelganlar ketdi,
Ajal navbat bilan manzilga yetdi.
Man-man degan erlar kechikmay o‘tdi,
Ko‘zi har shumlikni ko‘rdi, bilmadi.

YONDIM YORONLAR

Ayriliq o‘tiga tushib,
Tutashdim, yondim, yoronlar.
Qaqnus kabi yonib-pishib,
Kul bo‘lib so‘ndim, yoronlar.

Topilmadi ko‘ngil hushim,
Zindon bo‘ldi yoz-u qishim,
Ming bir dardga solib boshim
Ketdi-yu qoldim, yoronlar.

Jon jasadim g‘amga to‘ldi,
Davronli kunlarim qoldi.
Endi menga zahar bo‘ldi,
Shakar-u qandim, yoronlar.

O‘xshab qoldim yongan kulga,
Har kunim aylandi yilga.
Yuz ming qayg‘u-kulfat ila,
G‘am ila to‘ldim, yoronlar.

Davron o‘tib borar mendan,
Ayriliq bosib kun-kundan,
Shum ajalning sharbatindan
Totmayin qondim, yoronlar.

Kundan kunga ortib dardim,
Yashab, ne-ne kulfat ko‘rdim,
Men qazoga rizo berdim,
Har nega ko‘ndim, yoronlar,

Boshimda bor turli ayb,
Behuda kezdim mung‘ayib,
Boqiy dunyoga bosh qo‘yib,
Foniydan indim, yoronlar.

Yo‘l oldim hasrat makonga,
O‘t tushdi bu shirin jonga,
Aylanib borar vayronga
Shaharim — kentim, yoronlar.

Zinhoriy der, aytsam so‘zim,
O‘rtanib qoldimku o‘zim.
O‘lib qancha o‘g‘il-qizim,
Yonib tugandim, yoronlar.

BO‘LARSAN

Ayrilmasang kayf yonidan,
G‘ariblikda bor bo‘larsan.
Chiqibon odam sonidan,
Sen eshakdan xor bo‘larsan.

Nasihatim gar eshitsang,
So‘z ma’nisin chaqar bo‘lsang,
Erta-yu kech ko‘knor ichsang,
Za’faron diydor bo‘larsan.

Do‘stingdan ora uzarsan,
Shariat yo‘lni buzarsan,
Tilanib eshik kezarsan,
Gadolikka yor bo‘larsan.

Odamsan, gar kayf etsang,
Shaksiz o‘zing mayib etsang,
Bir kun ko‘knorni tugatsang,
Olazarak ko‘r bo‘larsan.

Ko‘knor ichganlar xush bo‘lmas,
Uyga, davlatga bosh bo‘lmas.
Har kimsa tovondosh bo‘lmas,
Moxovdek murdor bo‘larsan.

Zor bo‘larsan kiyim-boshga,
Qorning to‘ymas non-u oshga.
Nomusli qavm-qardoshga,
Bir la’nati or bo‘larsan.

Zinhoriy, quloq solmasang,
Sen aslo odam bo‘lmassan,
Ko‘p kezsang, uyda o‘lmasang,
Bir g‘arib mozor o‘larsan.

KOTIBIY

Shoirning ismi Avazto'g'on bo'lib, Kotibiy uning adabiy taxallusidir. U XIX asrning birinchi yarmida hozirgi Axal viloyatining Bahardan atrofida tug'igan.

Kotibiyning turli mavzularga bag'ishlab yozgan she'rlari bizgacha yetib kelgan. Shoir ijodida ishqiy lirika hamda o'z yurtining go'zal tabiatini madh etuvchi she'rlar asosiy o'rin egallaydi. Kotibiy taxminan 1881-yillarda vafot etgan.

BEGLAR

Foniy dunyo — shum ajalning qo‘lidan
Kezmadi sayr etib mastona beglar.
Boy-u g‘arib necha shoh-u gadolar,
Shunga kelgan qolar armona, beglar.

Ajal yaqin erur, mudom hamdaming,
O‘lchovlidir rizqing, sanoqli daming,
Tutsa, chorang yo‘qdir, bo‘lmas malhaming,
Chaynaganing balki gumona, beglar.

Har kim g‘ayrat topsa otdan, qilichdan,
Izzati kamaymas avvaldan-boshdan.
Foyda yo‘qdir o‘g‘il-qizdan, qardoshdan,
Ajal kelib, to‘lsa paymona, beglar.

G‘ariblik balodir, koyitar jonni,
Teng-u tushdan g‘ayri qo‘yar insonni.
Yo‘qlikdan kam bo‘lsa suprada noni,
Mard yigit g‘am chekar mudoma, beglar.

Noma’qulning ma’qul so‘zi bitilar,
Har davrada, elda nomi tutilar.
Yomoning qo‘yibon yaxshing aytilar,
Davlat kelsa har bir insona, beglar.

Baxt kulib boqmasa har bir insonga,
Yaxshing yomon bo‘lar, foydang ziyonga,
So‘zini olmaslar, hisobga — songa,
Agar aqling yetsa jahona, beglar.

Besh kunlik umr-u yuz ming xayol bor,
Dunyo go‘yo to‘ymas yalmog‘iz, ajdar,
So‘z dur bo‘lsa, aql unga xaridor,
Bir quruq ovozdir, nodona, beglar.

Kotibiy, bo‘lmas ish bo‘lar, o‘ylama,
Tish bir qal’a til bir balo, so‘ylama,
Yakka ko‘rib, mardga sitam aylama,
Xoh olar, xoh berar mardona, beglar.

MUHABBATI OZ BO‘LAR

Raqib bo‘lsa, orasida do‘stlarning,
Bir-biriga muhabbati oz bo‘lar.
Har necha qo‘shilib, suzsa ko‘llarda,
Uchsa o‘rdak-o‘rdak, g‘oz ham g‘oz bo‘lar.

Jayron ko‘lga, suqsur cho‘lga yarashmas,
Ginali so‘z sizga — bizga yarashmas,
Doira bilan tanbur sozga yarashmas,
Doira-doira, nay-nay bilan soz bo‘lar.

Har kim hamroh bo‘lsa bir oqil mardga,
Judo bo‘lsa qolar tuganmas dardga,
Ikki hamdam davra qursa bir yerda,
Ko‘ngil xurram aylab sarafroz bo‘lar.

Xalqlar tushmish bir-birining iziga,
Aybi bo‘lsa, oshkor aytar yuziga,
Har kimsa ishonsa, raqib so‘ziga
Aniq bilki, uning aqli oz bo‘lar.

Kimki bo‘lsa sening yaxshi mahraming,
Ham bu dunyo, ham oxirat eraming,
Miskin Kotibiy der, ikki hamdamning
Jismi bir-biriga poyondoz bo‘lar.

SURAVER

Do‘stim, dunyo safosin
O‘tmasdan avval suraver.
Ajal choki — giribonin
Tutmasdan avval suraver.

Ketarsan dunyodan ko‘chib,
Yotarsan qora yer quchib,
Ajdahodek og‘zin ochib,
Yutmasdan avval suraver.

Haqiqat bo‘lsin muroding,
Fitnadir moli — avloding,
U foniy dunyodan otin
Ketmasdan avval suraver.

Kulganlarga kulib qarab,
G‘arib, ochlarga non berib,
Qora yer bag‘riga kirib,
Yotmasdan avval suraver.

Kotibiy der, men beparvo,
Bo‘libman oshiqi raso,
Umr — kema, ajal — daryo,
Botmasdan avval suraver.

SOLING SENING

Ko‘nglim, g‘am, ila dunyodan
O‘tar mohi soling sening.
Bilmam, bu ikki olamda
Nechukdir iqboling sening.

Baxilga tushmasin ishing,
Totma uning tuz-u oshin.
Ado ayla yurt tashvishin,
Bir kun tushsa yo‘ling sening.

Xush so‘z chiqsin dahaningdan,
El kulib ketsin yoningdan,
Yaxshi bil, shirin joningdan
Qardoshlaring, eling sening.

G‘ariblarning holin so‘rgil,
Himmat ko‘rsat, birga yurgil,
Tiriklikda beravergil,
Elga ketmas moling sening.

Qo‘ling bergil tavakkalga,
Qiziqmagil, dunyo, pulga.
Kotibi der, ulus, elga
Izza berdi tiling sening.

NOAHILLIK ELGA YARASHMAS

Ko‘ngillar bir bo‘lsin davlatli elda,
Noahillik bizning elga yarashmas.
Bo‘lmas ishlar bo‘lib, qilmangiz faryod—
So‘ngidan figon-u nola yarashmas.

Haqqa el-yurt kerak, elga sar kerak,
Yurtiga jon fido sarbasar kerak.
Gar suhbat purma’no yarashar kerak,
Bir davra ichida ola yarashmas.

Bir yigiting zoti haromdan kelsa,
Almudom dars o‘tib ta’limin olsa,
Kalom xatm qilib, mudarris bo‘lsa.
Egri o‘qir, to‘g‘ri yo‘lga yarashmas.

“Nun” sokin aylamish “kof”ning ichinda,
“Dol” Vatan aylamish “zol”ning ichinda.
“Alif” makon tutmish “je”ning ichinda,
Alifning hurmati “dol”ga yarashmas.

Tanlab hokim qo‘ysang erning erini,
El uchun sarf aylar harna borini,
Agar qo‘yga cho‘pon qilsang bo‘rini,
Bo‘ri qadamida kelsa yarashmas.

Farz vojib — taomni do‘st bilan yemoq,
O‘zingni sut bilgin, do‘stingni qaymoq,
Kotibiy, so‘z ko‘pdir, yaxshisin demoq,
Zehni kamga, vaysaq tilga yarashmas.

ZALILIY

(1779–1846)

Turkman mumtoz adabiyotida o'ziga xos o'ringa ega bo'lgan Qurbondurdi Zaliliyning axloqiy-didaktik, falsafiy, ishqiy, diniy mavzulardagi she'rlari xalqonaligi, mazmunan teranligi, serma'noligi bilan alohida ajralib turadi. Shoirning ko'plab she'rlari nafaqat turkman hofizlari, balki o'zbek san'atkorlari tomonidan ham qo'shiq qilib kuylab kelinadi.

MENI

Ko‘rsatib yorim yuzin devona qilmishdir meni,
Solibon jonimga o‘t, parvona qilmishdir meni,
Sabr-u qarorim olib, larzona qilmishdir meni,
Ma’lum-u, mashhur etib, vayrona qilmishdir meni,
Begunoh, mehnat o‘qiga nishona qilmishdir meni.

Yig‘laydi bu dardga bardosh berolmay ko‘zlarim
To‘ldiribdir yer yuzini seli mujgon ko‘zlarim,
Navbahor yanglig‘ to‘kar ashkin farovon ko‘zlarim,
Naylay o‘g‘rin boqishli ohista pinhon ko‘zlarim,
Kechalar tong otguncha giryona qilmishdir meni.

Undan o‘zga bu jahonda zarra yo‘qdir rohatim,
Dardi hijroni bilan yilga teng har soatim,
Zikrim uldir vaslini istab kezarman odatim,
Ishq yuki og‘irlashib, dol qilmish qadd-u qomatim,
Ishqida sarxush etib, hayrona qilmishdir meni.

Oh-u afg‘on chekmagimdan alif qaddim egilib,
Tuganmish ko‘zda yoshim yig‘lamakdin siqilib,
Baland tog‘lardek tumanim ketmas boshdan sovulib,
Qolmadi bir zarra hushim ketdi aqlim quvilib,
Dali Majnun telbadek mastona qilmishdir meni.

Der Zaliliy, dilbarim umrimni barbod ayladi,
Xotirim g‘amnok etib ko‘nglimni noshod ayladi,
Ellargya rasvo qilib ketmas yomon ot ayladi,
Go‘yoki Shirin kabi shavqida Farhod ayladi,
Aqlimni olib sarimdin sahna qilmishdir meni.

YAXSHIDIR

Chiqimsiz beglardan, baxil boylardan,
Cho‘lga chiqsang jo‘mard cho‘pon yaxshidir,
Qo‘li keng, ko‘ngli tor, chiqimsiz xondan
Ishing tushsa mard qaltamon yaxshidir.

Yigitni to‘q qilar yo‘qsizlik, dard ham,
G‘ayratsiz yigitdan yaxshidir it ham,
Beqadr qardoshdan qadrli yot ham,
Nodon do‘stdan dono dushman yaxshidir.

Bu dunyo moli deb kechmang yaxshidan,
Yiroq o‘tar muhabbatsiz kishidan,
Bema’ni odamdan, yomon qo‘shnidan,
Yonidan ayrilib qochgan yaxshidir.

Bir xabar kelibdir oshiqi zordan,
O‘tkirdir nashtardan, sovuqdir qordan.
Ul sayoq xotindan, yaramas erdan
Egasiga sodiq hayvon yaxshidir.

Zaliliy yomondur o‘limning oti,
O‘limdan ham yomon kishi minnati.
Mullalar maqtashar ul qiyomatni,
Qo‘ysalar bu yorug‘ jahon yaxshidur.

SENING

Vodarig‘o, o‘tdi umring Mangli Xo‘jaxon sening,
Ayriliqdan bu joningda qoldi ko‘p armon sening,
Har kishi ko‘rsa bu holing bo‘ldi bag‘ri qon, sening,
Ahli bayting yig‘lashib, ko‘p etdilar afg‘on sening,
Hech unutmas el-ulus, qilganing ehson sening.

Kelganga peshvoz chiqib xizmat etarding jon bilan,
Davri davronlar suribon xilvat etarding xon bilan,
Barisi bo‘ldi yolg‘on ul qudratli subhon bilan,
Siynada qo‘yding tugun o‘lding g‘arib, armon bilan,
Tutmadilar azangni qardosh-u qadrdon sening.

Bu falakning zulmi birla sen Vatandin ayrilib,
Qoldilar aftoda, ojiz ot oldida surilib,
Nechalar chida olmay qoldi loyga qorishib,
Bir nechasi yo‘l topoldi, bir nechasi qirilib,
El-u xalqing bo‘ldilar bu dasht aro vayron sening.

Hayf, keldi bu jahondin yaxshi noming sust bo‘lib,
El aro etgach xabar, qiynaldi azm-u xas bo‘lib,
Tixradi osmon-u zamin, yig‘ildi tog‘lar past bo‘lib,
Orzuingni eshitganlar g‘oyibona do‘st bo‘lib,
Ko‘rmoqqa diydoringni mushtoq edim Eron sening.

Charxi kajraftor amr etib, yo‘lingga qurdi tuzoq,
Toki o‘lmasdan burun qatl ayladi ko‘z qaroq,
Taqdiri azal ekan tortdi o‘ziga Urganch yoq,
Chora yo‘q shukrdan o‘zga, mayli qayga boqsang boq.
Aytar Zaliliy bo‘lsin deb hamrohing imon sening,

BO‘LAR ENDI

Kecha-kunduz yig‘lamoqdan yor debon,
Endi ko‘z yoshlarim sel bo‘lar bo‘ldi.
Bulbul edim, sayrar edim gul debon,
Sayragan tillarim lol bo‘lar bo‘ldi.

Aytmas edim axir yor-yor so‘zini,
G‘am bilan tugatdim jismim o‘zini,
Ey yoronlar, bosib tashvish tizimi,
Alifdek qomatim lol bo‘lar bo‘ldi.

Aqlim hayron, nelar kelmish hushiga,
Oxir g‘arq bo‘lar may ko‘zim yoshiga,
Shirin jonim tushib ishq otashiga,
Ekib, ado bo‘lib, kul bo‘lar bo‘ldi.

Ko‘zim yig‘lar, ko‘nglim yorni unutmas,
Beadoq tumanlar boshimdan ketmas,
Qayg‘u bilan kun yirog‘-u tong otmas,
Har bir kunim endi yo‘l bo‘lar bo‘ldi.

Zaliliy, zor yig‘lar beqaror bo‘lib,
Sayr yo‘li mendan ayri sovulib.
Rohatim kamayib, hasrat ko‘payib.
Dard-u alam menga mo‘l bo‘lar bo‘ldi.

HOLIM BORDIR

Ey birodar, so‘zga bo‘lsang dardimni,
Ojiz, abgor bo‘lgan bu holim bordir,
Bir sanam ishqida bo‘lib devona.
Xiva, Buxor borish xayolim bordir.

Chin birodar bo‘lsang, birga kezarsan,
G‘arib-miskin, faqir ko‘nglim ko‘tar sen.
Sen mening xatimga duo etarsan,
So‘ralmas, izlanmas ahvolim bordir.

Xasratinda alif qaddim dol etgan,
Yig‘lamoqdan ko‘zda yoshim sel etgan,
Ko‘yida suyagim yoqib, kul etgan,
Jabr etguvchi sohibjamolim bordir.

Mening bu dardimni tabiblar bilmas,
Kundan kun kuchayar, hech bir kamaymas,
Baxtim g‘aflat ichra uyg‘onmas, kulmas,
Kaj tole, teskari iqbolim bordir.

Tanim ruhi jasad ichra bu jondir,
Zulflari sunbuldir, pista dahondir,
Sochlari yoqutdir, tishi marjondir,
Labi shakar, obi zilolim bordir.

Xush bo‘yli, misli bir mushki anbardek,
Gul badani, ustixoni javhardek,
Shu’la sochar, kecha xuddi gavhardek,
Ko‘zi ohu, qoshi hilolim bordir.

Zaliliy der, ishq o‘tiga to‘zmasman,
Bosh olib ketarman, bunda kezmasman,
To o‘lguncha undan umid uzmasman,
Rahim — Karim otlig‘ jalolim bordir.

ICHINDA

Arzi holim bir-bir bayon etayin,
Kezar bo‘ldim qayg‘u-g‘amning ichinda,
Dardim ortar, men o‘rtanmay netayin,
G‘avg‘o ko‘pdir siyna, boshning ichinda.

Jafo tortdim, dunyo yo‘lin topmadim,
To‘ylar berib, har yon otlar chopmadim,
Kelgan mehmonlarga to‘nlar yopmadim,
Beson bo‘ldim teng-u tushning ichinda.

Bu g‘ariblik bizdan nari ketmadi,
Ko‘nglim madsad—murodiga yetmadi,
Qayg‘u g‘amsiz mening vaqtim o‘tmadi,
Kezmadim hech ko‘ngil hushning ichinda.

Falak soldi meni tuganmas holga,
Dunyoda uchradim yuz qiyl-u holga.
Qiyin bo‘ldi hayot, tushdik bu holga,
Kamdast bo‘ldik necha sonning ichinda.

Bemaza ko‘rinar ko‘zga makonim,
Yil-yildan kamaydi og‘ir do‘konim,
Ayrilib farzanddan kuydi bu jonim,
Ko‘zlarim qoldi sel — yoshning ichinda.

O‘limning haybati bosdi kun-kundan,
Achchiqdir shirin jon ayrilsa tandan,
Ikki yor savolin so‘rarlar mendan,
Andisha ko‘p aql-u hushning ichinda.

Zaliliy der, aql har yon cho‘lashdi,
Tor bo‘ldi bu joylar, mazasi qochdi,
Boshimga ko‘p alam, savdolar tushdi,
Har ish ko‘rdim ellik yoshning ichinda.

YOR, SENDAN

Yanoqlari lolam, pista dahonim,
Men kecharman, ko‘nglim kechmas yor, sendan.
Ruhi gul — binafsham, to‘ti suxanim,
Men, kecharman, ko‘nglim kechmas yor, sendan.

Farhod “Shirin” debon shuncha kezgandir,
Majnun Layli yo‘llarida to‘zgandir.
Demagil: “Yor mendan ko‘nglin uzgandir”
Men kecharman, ko‘nglim kechmas yor, sendan.

Chiqolmasmiz Yaratganning amridan,
Odamzod ko‘rar bir-biridan,
O‘lgan oshiq yo‘qdir ma’shuq jabridan,
Men kecharman, ko‘ngil kechmas yor, sendan.

Yolg‘onchi dunyoda sensan tayanchim,
Gavharim, xazinam, yagona ganjim,
Maqsadi, murodim, ko‘ngil suyanchim,
Men kecharman, ko‘ngil kechmas yor, sendan.

Zaliliy der, mening Do‘ndixonimsan,
Jasadim ichinda shirin jonimsan,
Go‘zallar go‘zali mehribonimsan,
Men kecharman, ko‘ngil kechmas yor, sendan.

AFO MANGA

Do‘stlar-ey, yorim qiladir jabr ila jafo manga,
Bo‘lar ul Majnun kabi oxir vatan sahro manga.

Men kezarman ko‘yinda chun qatra-qatra qon yutib,
Berahm zolim ekanmish, qilmadi parvo manga.

Telbarib bu dasht aro kezarman “sevgilim bor” deb,
Ko‘rmasam bir dam yuẓin, zindon erur dunyo manga.

Yurib erdim o‘z hushimda g‘oyat farog‘atlar qilib,
Bilmadim, qaydan yo‘luqdi bu yomon savdo manga.

Shod bo‘lar lûtf aylasa, g‘am birla to‘lgan ko‘nglumiz,
Voh, agar qahr aylasa, ashkim bo‘lur daryo manga.

Mohitobon yuzini oz ko‘rguzub qildi sitam,
Husni Yusuf mis(i)llik nozanin zebo manga.

Bo‘yi mushk, anbari xush, la’li xandon, g‘uncha lab,
Tishi dur, tirnoqlari gavhari bayzo manga.

Ajdarhodek sochlari, ul ko‘zlari jallod erur,
Qoshlari yoy, kiprigi o‘q, g‘amzasi nayza manga.

Ey Zaliliy, ishqida jabr-u sitamdin boshqa bir,
Umrimi sarf ayladim, hech bo‘lmadi foyda manga.

O‘ZGA DAM BO‘LMAS

G‘animat bil sog‘-u omon yurganing,
Dam shu damdir, bilgin, o‘zga dam bo‘lmas.
Bekor, yalqovlikda kuning ko‘rganing,
Bu bir xastalikdir, aslo em bo‘lmas.

Bir nechalar yurar kimxob to‘n kiyib,
O‘rtanar nafsi-chun, dunyosi kuyib,
Maqtanurlar elda “so‘fiman” deyib,
Ammo vale ko‘zlarinda nam bo‘lmas.

Hargiz ko‘ngul bermang yolg‘on pirlarga,
Maqtanib, karomat sotsa sizlarga,
Tilanib kezarlar, xordur ko‘zlarga,
Shayton shogirdidan zinhor kam bo‘lmas.

Zaliliy, so‘zlagin harna bilganing,
Tilingda bo‘lmasin g‘iybat-yolg‘oning,
Ulug‘ el nomiga oshiq bo‘lganning
Dunyo uchun yuraginda g‘am bo‘lmas.

DO‘STMAMMAT

XIX asr turkman adabiyoti namoyandalaridan biri Do‘stmammat taxminan 1815-yilda Anov qishlog‘ida tug‘iladi. Umrining ko‘p qismini qiyinchilik bilan o‘tkazgan. Ayrim ma’lumotlarga ko‘ra, u she’r yozishdan tashqari baxshichilik bilan ham shug‘ullangan. Do‘stmammat ijodida ishqiy lirika yetakchi o‘rinda turadi. 1865-yili vafot etgan.

YONDIRAR

Fasli bahor bo‘lsa, gullar hamma yoq,
Bulbul charx urganda gulni yondirar.
Qorako‘z yigitga bo‘lib ishtiyoq,
Qizlar o‘tganida yo‘lni yondirar.

Ketsa yo‘lni yondirar,
Chiqsa yo‘lni yondirar.
Qosh qoqib , noz etibon
So‘zlab tilni yondirar.

O‘psam yorning dudog‘idan, tilidan,
Quchsam sarvqomat, nozik belidan,
Qadah olsam sevar yorning qo‘lidan,
Mani oq yuzining xoli yondirar.

Nigohlarim holida,
Ixtiyorim qo‘lida.
Jondan umid uzganman,
Bosh qo‘ygach, men yo‘lida.

Jonim qurbon go‘zallarning mastiga,
Ko‘z to‘kmish ul jon olmoqning qasdiga.
Ko‘zim tushgach, jonim chiqsa dastiga,
Sakkiz o‘rim sochi dolni yondirar.

Sochda shona sevgilim,
Qo‘lda xina sevgilim.
Kel, ikkimiz qo‘shaylik —
Jonni jona sevgilim.

Do‘stmuhammad o‘lgincha yo‘lingda banda,
Barchani nigohi, armoni sanda.
Sening ko‘zing menda, meninki — senda
Mayin zulflar nozik belni yondirar.

Nozik bel bir zebosan,
Xush kelibsan suvga sen.
Oshig‘ing o‘ldirmoqqa
Nechuk ko‘rding ravo sen.

XIZMATKOR BO‘LAR

Bir yo‘qsilning ishi tushsa bir boyga,
O‘g‘il-qizi bilan xizmatkor bo‘lar.
Ota qo‘yin boqar, og‘il qo‘zisin,
Boyning eshigida gunohkor bo‘lar.

Yo‘qsil, noming hech vaqt songa o‘tmaydi,
Otgan o‘qing bir nishonga yetmaydi,
Juling eski bo‘lgach, nazar etmaydi,
Har yigitni sarhush qilgan mol bo‘lar.

Do‘st-yor bilan birikmasa kengashing,
Bir pulga olishmas marvarid-toshing,
Yo‘qsil bo‘lsang quda bo‘lmas qardoshing,
Ketib o‘zgalarga xaridor bo‘lar.

Kelib ko‘ring bu falakning ishini,
Har kimga yuklaydi ming tashvishini.
To‘rda o‘rni boy-badavlat kishini,
Yo‘qsillar qopida intizor bo‘lar.

Do‘stmahammad, ummon kabi jo‘sharsan,
Umr savdosiga boshing qo‘sharsan.
Kishiga choh qazma, o‘zing tusharsan,
Har kim amaliga giriftor bo‘lar.

AYRILDIM

Giryon yig‘lab ko‘zlarimdan yosh to‘ksam,
Ayb aylamang, qadrdondan ayrildim.
Hamon ozdir yosh o‘rniga qon to‘ksam,
Urozmammat mehribondan ayrildim.

Endi so‘ndi yangi tuqqan hilolim,
Shamchirog‘im o‘chdi qolmadi holim,
Chamanda yiqildi bir navniholim,
Xazon urgan gulistondan ayrildim.

Ko‘p qiynalib yotdi to‘shakda xasta,
Yoniga qo‘ydilar chaman, guldasta,
Mung‘ayib, o‘rtanib o‘tdi norasta,
Zar libosli zarafshondan ayrildim.

Baliq yili tutdi aza-motamni,
Juma kuni totdi ajalning ta’min.
Ko‘p yotdi, chiritib nozik badanin
Xasta holi parishondan ayrildim.

Do‘stmuhammad, qon aksi bor yoshimda,
Qardoshimning o‘y-xayoli boshimda.
Og‘a debon javlon urgan qoshimda
Muhabbatli jonajondan ayrildim.

DILBAR

Sarmast kezgin , bu dunyo bir timsoldir,
Aldanmagin yolg‘on dunyoga, dilbar.
Odam umri gul umriga misoldir,
Gul umri-oqshomdan saboga, dilbar.

Uzoq qilma yaqin yo‘llar orasin,
Battar etma yuragimning yarasin,
Tabib bilmas bu dardimning davosin,
Kel, malham aylagin yaraga, dilbar.

Sening rahming kelmas mendek insonga,
Mening g‘amim sig‘mas ikki jahonga.
Sen sig‘ingin pirim Shohimardonga,
Men yolvoray qodir Xudoga, dilbar.

Sening ko‘zing mirzo yigitlarga och,
Mening ko‘zim sendek zeboga muxtoj.
Sen menga chora qil, sen menga-iloj,
Yetishsin dardimiz davoga, dilbar.

Sen mirzo yigit deb bo‘lding beqaror,
Men yaxshi maxbub deb bo‘ldim intizor.
Bir xilvatda yig‘lashaylik zor-u zor,
Qo‘shaylik sadoni sadoga dilbar.

Do‘stmuhammad, aytay dilda borimni,
Sening husni jamolingga zorimni,
Dil xastaman, ko‘p tortma dil torimni,
Rahming kelsin mendek gadoga, dilbar.

BAYON AYLAGIN

Qardosh, bir o‘t tushdi ich-u toshimga,
Buni borib yorga bayon aylagin.
Bir mushkul ish tushdi mening boshimga,
Bu mushkul ishimni oson aylagin.

G‘am bag‘rimni yoqish do‘zaxdan yomon,
Degil, insof qilsin, muruvvat omon.
Huziringda magar tursa bir zamon,
Nigohlaring uzra mehmon aylagin.

Men bo‘lib qaragin oydin yuziga,
Ziyorat aylagin qadam tuziga.
Be’tibor bo‘lma har bir so‘ziga,
Jon istasa, jonim qurbon aylagin.

Qardosh, eshit so‘zim, yiqmagin ra’yim,
Senga uzoq umr bersin Xudoyim,
Zor aylabon suhbat ayla muloyim,
Ko‘z yoshingni abri nayson aylagin.

Savob topgin — dil rozimni yetarsang,
Hajga ketding bir xushxabar keltirsang,
Do‘stmuhammad, shu ishimni bitirsang,
Xizmatkorman, hukming ravon aylagin.

MEHMON BO‘LSAM

Istarman, borib uyingga,
Bir kun aziz mehmon bo‘lsam,
Boshim fidodir yo‘lingda,
Amal qo‘ysa, omon bo‘lsam.

Chekarman dard-u hasrating,
Bilmam, ne erur maqsading?
Qilsam qoningda xizmating,
Bir bandayi farmon bo‘lsam.

Tarab siyo sunbulingni,
Maftun ayta bulbulingni.
Ochilgan toza gulingni
Ko‘nglim istar bog‘bon bo‘lsam.

Oshirmagin fig‘onimni,
Fido qilayin jonimni,
O‘zing bergin imonimni,
Boshginangga qurbon bo‘lsam.

Do‘stmuhammad der, jamolim,
Yo‘lindadir bosh-u molim,
Nasib etsa Zuljalolim,
Sening-la jonajon bo‘lsam.

MATAJIY

Matajiyning asl ismi Annaqilich. U 1824-yili Ashxobodning Qushi qishlog'ida tug'ilgan. Navoiy, Fuzuliy, Mashrab asarlarini qunt bilan o'qib o'rganadi. Uning ajoyib milliy she'riyati butun o'lka ahlini o'ziga maftun etadi.

Murakkab hayot yo'lini bosib o'tgan shoir umrining oxirigacha dehqonchilik bilan shug'ullangan.

Matajiy ijodida ishqiy-lirik, axloqiy va ijtimoiy ohangdagi she'rlar alohida o'rin egallaydi. She'rlari soddaligi va xalqchilligi bilan ajralib turadi. Ko'pgina she'rlariga kuy bastalanib, qo'shiq qilib aytilgan.

1884-yilda vafot etgan.

KIM KELAR

Qora ko‘zlim, aylanayli qoshingdan,
Yonginamga sen kelmasang, kim kelar?
Siringni fosh etma teng-u tushingga,
Yonginamga sen kelmasang, kim kelar?

Shohsanamday go‘zal, G‘aribning yeri,
Nasib etsin menga bog‘ing anori.
Noz ishvadir ma’shuqlarning hunari,
Yonginamga sen kelmasang, kim kelar?

Sening bilan banddir yuragim mayli,
Yonimdan o‘tmagin, ey sarv bo‘yli,
Men Majnuning bo‘lsam, sen misli Layli,
Yonginamga sen kelmasang, kim kelar?

Chivin parvoz aylab ayrilmas boldan,
O‘lguncha ketmayin andalib guldan,
Aytay ta’rifingni jon ila dildan,
Yonginamga sen kelmasang, kim kelar?

Meni bog‘bon ayla chamanzor boqqa,
Yo‘qsa Farhod kabi chiqarman toqqa.
Quvonayin boshingdan to oyoqqa,
Yonginamga sen kelmasang, kim kelar?

Seni har yoqlardan so‘rab, izladim,
Topmadim, ishqingda daydib, bo‘zladim,
Matajiy der, yo‘llaringda ko‘zlarim,
Yonginamga sen kelmasang, kim kelar?

YIROQDA TURMA

Nozli dilbar, bir tilagim bor senga,
Arzimni aytayin, yiroqda turma.
Necha vaqtdan buyon bo‘ldim zor sanga,
Ishqingda kuyibman, ko‘nglimni Burma.

Oshiq azal chekar jabr-u jafoni,
Oxirida ko‘rar mehr-u vafoni.
So‘rayvergin kelgin zavq-u safoni,
Bekor kelib, umring yelga sovurma.

Orzu aylar ko‘rgan, eshitgan odam,
Sen Shiringa monand, men-chi, Farhodam,
Mujgoning xanjardir, qabog‘ing bodom,
Zaboning sharbatdir, lablaring xurmo.

Ko‘rsam gul yuzingni, ko‘nglim xush bo‘lar,
Yetganimda, yor, jamoling tush bo‘lar,
Desam bemakonga, elga fosh bo‘lar,
Har bo‘lar-bo‘lmasga siringni berma.

Qora soching qora tog‘ning shamoli,
Shul sababdan bo‘ldim ishqing bemori,
Sahar turib, ey, dilimning xumori,
Qo‘lga xina yoqib, ko‘zga tort surma.

Banda bo‘lgan beg tutganda bir xonni,
Aylamasmi aholining tarxoni,
Men bo‘libman shunday yo‘lning maftuni,
Parvonadek jismim yoqib, qovurma.

Gar so‘zlasam raqiblarga tong bo‘lar,
So‘zlamasam qayta ishim tang bo‘lar.
Yolg‘onchida yaxshi-yomon teng bo‘lar.
Keksa Matajiyni qo‘lingdan berma.

TISHLARINGGA

Nogahondan ko‘zim tushdi,
Labing birla tishlaringga.
Yuraverdik, yurak jo‘shdi,
Talvas aylab qoshlaringga.

Kunda husningga to‘ysaydim,
Yuzingdan bo‘sa olsaydim,
Kunduz xayoling bo‘lsaydim,
Kecha kirib tushlaringga.

Oqshom chog‘i ichib sharob,
O‘ynashaylik yayrab-yayrab,
Tongdan turib, zulfing tarab,
Tiymor bergil sochlaringga.

Guruh-guruh kelin qizlar,
Sening ta’rifingni so‘zlar,
Qo‘li chevar hunarbozlar
Maftun bo‘lgan ishlaringga.

Ellar hayron o‘yiningga,
Qo‘lim zanjirband bo‘yningga,
Matajiyni sol qo‘yningga
Tanga taqib to‘shlaringga.

XOR BO‘LSA

Nomardlarga bo‘yin egar
Dunyoda yigit xor bo‘lsa:
Boshiga ming xayol kelar,
G‘arib tushib, burchdor bo‘lsa.

Magar zabondan dur sochar,
Dushman turli aybin ochar,
Teng-tushlar ko‘rinmay qochar,
Osh ila suvga zor bo‘lsa.

Er yigitlar arzga kelar,
Xizmatda yugurib-yilar.
Begzodalar bandi bo‘lar,
Qo‘lida narsa bor bo‘lsa.

Kim azada o‘ynab kular —
O‘z-o‘zin masxara qilar.
Qo‘rqoqning holi bilinar,
Changalzorda gar sher bo‘lsa.

Ey birodar aytma yolg‘on,
Undan yaxshi erur o‘lgan.
Jang aylama johil bilan,
Soch-soqol oqimtir bo‘lsa.

Mulking bo‘lsa Xiva, Buxor,
Yana yuz ming shahar, qishloq,
Vahim qilgin shom-u sahar,
Dushmaning pashsha, mo‘r bo‘lsa.

Yetishsang oltmish yoshingga,
Yig‘lagin qilgan ishingga,
Boshmog‘ing ko‘tar boshingga,
Matajiy kuchli pir bo‘lsa.

DEMAK BO‘LMAS

Ey yoronlar xaloyiqlar,
Demak bo‘lmas, demak bo‘lmas,
O‘zni bilmas nokas bilan,
Tuz ila non yemak bo‘lmas.

Ko‘ring yigitning o‘zini,
Behuda aytar so‘zini.
Olmagin nokas qizini,
Har cho‘rini sevmak bo‘lmas.

Asal o‘rnin shakar tutmas,
Har kim o‘z nuqsin unutmas,
Har tikanda bir gul bitmas,
Har kasni beg demak bo‘lmas.

Matajiy der, sirdosh kerak,
Besh kun yaxshi yo‘ldosh kerak,
Og‘ir kunda qardosh kerak,
Begonadan ko‘mak bo‘lmas.

OYPARI

Sabab ila duch kelding, solding nazar, Oypari,
G‘amzang o‘qi yetishdi, berding ozor, Oypari.
Bu jismim yonib pishdi, mujg‘oning bag‘rim teshdi,
Bugun ustingdan tushdi bizning guzar, Oypari.

Gohi-gohi sallonib , biz sari sen borarsan,
Ajib ro‘moling boshga, nozik belga urarsan.
Asal kabi qorilib, ravgandayin erirsan,
Istaganim senda bor, turli bozor, Oypari.

Parvonadek pirlanib, visolingga mushtoqman,
Asvatul-ayn ichinda qarog‘ingga mushtoqman.
Shirmoyidan yasalgan tarog‘ingga mushtoqman,
Erta-yu kech silasam, zulfing uzar, Oypari.

Sahar sanoga tursa, tinmas bulbul navosi,
Sen bo‘lmasang naylarman chaman bog‘ning havosin,
Ismingni ayta bilmam, ey, dardimning davosi,
Ayriliqqa bu jonim nechuk chidar, Oypari.

Bu hajrga bosh qo‘shgan shom-u sahar o‘yirmas,
Kirar-chiqar tinmayin, ma’lum bir ish bitirmas.
Bekorga gina aylab yo‘l-yo‘rig‘in yitirmas,
Tovlanib ming noz ila, o‘zni bezar, Oypari.

Bog‘larda yo‘q noz-ne’mat sening bag‘ringda bitsa,
Bir ko‘ylakda jo bo‘lsak, burchoq-burchoq ter ketsa,
Zardoli soyasida Matajiy ta’rif etsa,
Qalam olib qo‘liga qotib yozar, Oypari.

QO‘LDAN KETAR

Nomurodman, naylayin, nomus-or qo‘ldan ketar,
Nuri diydam nuqta hollar, zulfi tor qo‘ldan ketar.
Ayb qilmang, ey yoronlar, nomudor qo‘ldan ketar,
Ko‘zlarimning ravshani, beqaror qo‘ldan ketar.

Sirimni savdoga solgan sarvimga arzim aytayin,
Samandardek sarg‘ayib, otash sharobin totayin.
Do‘stlarim, tengqurlarim dushman bo‘libdi netayin,
Shul sababdan yig‘larman men, nozli yor qo‘ldan ketar.

Ko‘zlarim ko‘rmas debon ko‘nglimga keltirmadim,
Sa’di-yu Sayfulmulikning izlarin yitirmadim,
Tentirab shom-u saharlar ellarni yetarmidim,
Naylayin sabrim ila ham qaror qo‘ldan ketar.

Men unga sadqa bo‘lay, ham yana cho‘pon-u quli,
Ulkan ma’raka aro dil sezar tilsiz dilni,
Mushki ambardan hidi, istamam o‘zga gulni,
Bog‘ aro anjir-u xurmo, olma-yu nok qo‘ldan ketar.

Bezanib balandga chiqsa beklarni barbod qiladir,
Sog‘larni telba qilib, telbalar hayron qoladir,
Go‘yoki qo‘lga tushgan ul bir bo‘z kiyik boladir,
Ovchilari ovlagan oq maral qo‘ldan ketdi.

Men bugun motam tutib, Matajiy qo‘ydim otimga,
Parvonadek pirillab paykar yonadir o‘timga,
Har zamon ixlos bilan ismi tushadir yodimga,
Ayriliqqa to‘za olmay zor-u zor qo‘ldan ketar.

OSHIQIY

Oshiqiy (O'roz shoir) XIX asrda hozirgi Tosho'g'iz viloyati hududida yashab o'tgan. Oshiqiyning tug'ilgan yili va vafot etgan vaqti haqida aniq ma'lumot bo'lmasa-da, uning ayrim asarlariga asoslanib, XIX asrning 30-80-yillari oralig'ida yashagan, deb taxmin qilish mumkin.

Oshiqiy ijodi haligacha mukammal o'rganilmagan. Uning ijodiga Maxtumquli va xalq ijodiyoti ta'siri yaqqol seziladi. Shoir el-xalq nomusi, manfaatini himoya qiluvchi mardona yigitlar ta'rifini madh etib, nomard, qo'rqoq, shaxslarni beayov tanqid qilgan.

KELTIRAR

Yaxshi xotin ko‘ngil hushi,
Gar shod-u hurram keltirar.
Yomon xotin yaxshi erning
Shod ko‘ngliga g‘am keltirar.

Nomarddir mardning dushmani,
Do‘stiga tegmas poyoni,
So‘zlatsang ahmoq-nodonni,
O‘ziga so‘z jam keltirar.

Kimning ozdir aql-hushi,
Har yerda xor-zordir ishi.
Bir aqlsiz ahmoq kishi —
Jonga koyish, g‘am keltirar.

Nomard bilan bo‘lsang sirdosh,
Siringni elga etar fosh,
Qadring bilmasa qon-qardosh
Yotga qadring kam keltirar.

Qo‘ldan ketsa ixtiyoring,
Kuchayar dard-u ozoring.
Elda topsang e’tiboring,
Boshda aql jam keltirar.

Kimning ko‘p bo‘lsa osh-noni,
Ko‘payar do‘st-qadrdoni.
Gavhar imonning nishoni,
Nochor ko‘zga nam keltirar.

Oshiqiy kelib ne ko‘rding,
O‘ttiz uyiga yuz urding.
G‘ariblik, yo‘qsillik mardning
Qo‘lin qisqa — kam keltirar.

BO‘LMASA

Yig‘laganing bekor, ko‘ngling qayg‘u-g‘am
O‘g‘il otlig‘ ko‘ngil hushing bo‘lmasa.
Yetishar nokasdan xanjarli sitam,
Himoyatkor teng-u tushing bo‘lmasa.

Mard keraging bo‘lsa, yo‘qdan bor etar,
Boshga ish tushganda mard turar qator,
Nomard ojiz ko‘rsa sitamlar yetar,
Kurashmoqqa to‘rt-u beshing bo‘lmasa.

Nomard kengash kuni aqlin yo‘qotar,
Boshga ish tushganda mard turar qator
Eldan obro‘ ketar, qolmas nomus-or,
Kamol topgan aql-u hushing bo‘lmasa.

Yomon xotin tushsa bir yaxshi erga,
Gunohga botadi, qolib ozorga,
O‘lmasdan kirarsan go‘yo mozorga,
Muloqotli bir darddoshing bo‘lmasa.

Haq saxiy bandani jannatga yo‘llar,
Baxillar o‘t ichra abadiy qolar,
Kelib-ketar do‘st-u yoring yo‘qolar,
Berishga mo‘l non-u oshing bo‘lmasa.

Oshiqiy so‘zlasang, so‘zing yarashmas,
Davrasiga borsang, o‘zing yarashmas.
Qadring kamayadi holing qarashmas,
Gar tayanching, teng-u tushing bo‘lmasa.

BO‘LSA

G‘amli kunda dunyo ko‘rinmas ko‘zga,
Xush kun kerak yashil, qizil-ol bo‘lsa.
Bir kuni aylanar tuproqqa — to‘zga,
Yemishing gar shirin, shakar, bol bo‘lsa.

Mushkul ishga qoyil har bir tirik jon,
Xush kunlar qadrin bil, o‘tmayin imkon,
Yomon kun ko‘p bo‘lsa, chidamas inson,
Odam o‘g‘lin ishi qil-u qol bo‘lsa.

Yomon so‘zdan dinning chirog‘i o‘char,
Yaxshi so‘z zanjirband qopini ochar.
Kimsa so‘z topolmas, kimsa dur sochar,
Odam bordir: so‘zlamasa, lol bo‘lsa.

Befahmlar yomon so‘zga kirarlar,
Xushyorlar oxirat g‘amin yeyarlar,
“Yaxshi niyat — yarim davlat, deyarlar,
Yomonlikka yetar, yomon hol bo‘lsa.

Tangri nazar qilsa bir mayib-mo‘rga,
Izzat, ikrom ila o‘tqizar to‘rga.
Bir necha nokasga xayf erur, yerga
To‘shalgani eski terma shol bo‘lsa.

Yomondan qoch, o‘git so‘zga quloq sol,
Umring o‘tar, o‘tganlardan ibrat ol.
Yo‘qsizlikdan boshga tushar mushkul hol.
Noming kezar el ichra gar mol bo‘lsa.

Oshiqiy der, nasihat qil o‘zingga,
Bu dunyo bir lo‘li zandir ko‘zingga.
Umring o‘tdi nazar ayla o‘zingga,
Qirqqa yetar, yana o‘n besh sol bo‘lsa.

PARIZOD

Siynasi ravshandir, ko‘ksi javhardan,
La’li labi, sadaf tishlari durdan.
Jon oluvchi chashmi qolmas xanjardan,
Vujudiga nur chayilgan parizod.

Oshiqning qalbiga nur solar nozi,
Dardingga darmondir, bulbul ovozi.
G‘am-tashvishdan yiroq uning ma’vosi,
Goh jilmayib, bag‘rim tilgan parizod.

O‘lim yo‘qdir, obi hayot ichganga,
Labing so‘rib, nozik beldan quchganga.
Tavba qildim xush umringdan kechganga,
Men vaslingdan kechmam bir on, parizod.

Tenglik, adolat yo‘q dunyoda, inon,
Bag‘ring bog‘i eram-jannatiy makon.
Ko‘rganlar ishqingda qilishar armon,
Siynamga ishq o‘tin solgan parizod.

Ko‘rganni kuydirar nurli yuzlaring,
Ishq otashin qo‘zg‘ar charos ko‘zlaring.
Yanog‘i asal-u shakar so‘zlaring,
Dardlarimga darmon bo‘lgan parizod.

Isming uch harf: uch lom, bir alif, to‘rt kof,
Husning anorsifat-go‘yoki mohtob,
Oshiqiy der, bo‘ldim ishqingda kabob,
Jallod ko‘zli jonim olgan parizod.

DAVRON TOPILMAS

Haq o‘zi bermasa g‘ayrati zo‘rga,
Beaqlga davlat, davron topilmas.
Luqmon hakim kelsa, aylasa chora,
Ajalning dardiga darmon topilmas.

Kimsani azob-u uqubat qiynar,
Kimsalar o‘lguncha ishratda yayrar.
Yeb noz-u ne’matni, bol-shakar chaynar,
Kimlarga bir parcha tuz-non topilmas.

Dunyoga kelganlar so‘nggi yo‘q — gungdir,
Kelganlar ancha-yu huzuri kamdir.
Yigitlik shodlig-u keksalik g‘amdir.
Qishga yetsang gul-u xandon topilmas.

Oshiqiy, umringni berma saboga,
Doim duo ayla Haqqa — Xudoga.
Teng bo‘l yaxshi-yomon, yaqinga-yotga,
Qolsa ko‘ngil, gar chiqsa jon topilmas.

JAM BO‘LAR

Yigitlik — bir soat, johillik — fasl,
Bora-bora qirqda aql jam bo‘lar.
Qirqdan so‘ngra yildan yilga kamayib,
Bel bukilib, alif qadding jim bo‘lar.

Alomat ko‘paydi ajib zamonda,
Navbat yetib, davr keldi yomonga.
Yaqin keldi, ko‘ring, oxir zamona,
Yomonlik ko‘payib, xayr ish kam bo‘lar.

Boylarga keling deb eshik ocharlar,
Ul g‘arib-u fuqoradan qocharlar,
Yomon deb yaxshini g‘iybat etarlar,
Zolimlar ko‘payib, qayg‘u-g‘am bo‘lar.

Ulamo haq so‘zning aslin yashirar,
To‘g‘ri yo‘l yopilib, shar yo‘l ochilar.
Ojizning moliga zo‘rlar chang solar,
Shar ish ortib, shariati kam bo‘lar.

Oshiqiy, jon tanda mehmondir, ketar,
Har bandaga bir dard nasiba etar.
Bir kun ajal solsa ustingdan guzar,
Bulbul kabi shaydo tiling sam bo‘lar.

MEHMON TOPILMAS

Odamzod dunyoning uyiga mehmon,
Ketar bir kun bundan mehmon topilmas.
Bu dam g‘animatdir, suringiz davron,
Omonatdir tanda bu jon, topilmas.

Og‘zin ochmish bu qora yer quchmoqqa,
Qayg‘usiz yer emas yemoq-ichmoqqa.
Yer yo‘qdir ajaldan pinhon qochmoqqa,
Shum ajalga chora, darmon topilmas.

Har kim bir kayfiyat va bir xayolda,
Kimlar ko‘zi yoshli, ming qayg‘u dilda.
Falak bir osiydir, turmas bir xilda,
Ertalabki shodlik xufton topilmas.

Bandi bo‘lib qilgan hayrating qani?
Yigitlik — keksaning orzu-armoni.
Bir fasldir jo‘shqinlikning davroni,
Mudom aysh-u shod-u xandon topilmas.

Bir bor bosh urgilu yo‘ling yo‘qotma,
O‘ylamay hech kimga biror so‘z qotma,
Oshiqiy, g‘am sari qadaming otma,
Yigirma yosh faslda maston topilmas.

DEMA YOZ KELAR

Keksalik qayg‘uli, tumanli qishdir,
Yashaguncha yana dema: “yoz kelar”.
Jasad bir qafasdir, jon ichra qushdir,
Bir kun bo‘lar, oltin shunqor, boz kelar.

Haq xohishi bo‘lar, boshqa so‘z bekor,
O‘lim barchalarga tengdir — barobar,
Ajal — karvon, dunyo yo‘li baxobar,
Ozig‘ing, tut, ado bo‘lmas duz kelar.

Kesilar jon ila jasad orasi,
Pinhondir, bilinmas ajal yarasi.
Har necha yashasang umr orasi
Yo o‘ttiz, yo oltmish va yo yuz kelar.

Zulm oshib, g‘am to‘ldi bu zamonga,
Nasihat kor qilmas fe’li yomonga.
Ahmoq urush, g‘avg‘o soladi jonga,
Oqil bo‘lgan har kimsaga soz kelar.

O‘lgach, tushga o‘xshar o‘tgan har yoshing,
Yot bo‘larsan, yolg‘iz qolib shum boshing,
Yalang‘och qilishar o‘rtada loshing,
O‘ramoqqa yoqa, yungsiz bo‘z kelar.

Oshiqiy der, uch yuz eranlar mashhur,
Tan dastgir bo‘libon yetkazdi g‘afur,
Nimkosa tutilar sharobi taxir.
Shukr endi ilohiydan so‘z kelar.

YOQAR KETAR

Nasihatim: orani och do‘stiga qasd etgan “marddan”,
Yaxshilik, obro‘ istama, yomon o‘tdir — yoqar ketar.
To o‘lguncha hamroh bo‘lib, jon ber, yaxshidan ayrilma,
Ikki dunyoda yaxshining sharofati yuqar ketar.

Bir yomon so‘zdan buzilar gar ikki do‘stning orasi,
Yomon do‘stin dushman etar, ko‘p bo‘lur mojarosi,
Tig‘ yarasi bitar zumda, bitmas til solgan yarasi,
Bir yomon so‘zning xanjari yuragingni kesar ketar.

Hisoblidir — rizqing to‘lar, ul sanoqli daming ado,
Boylar molidan ayrilar, ul shohlar taxtidan judo,
O‘lgandan so‘ng barcha tengdir, boy-g‘arib-u shoh-gado,
Qabrga solmas pulini, yiqqan molin to‘kar ketar.

Halol, harom farqin bilmay, har ne ko‘rinsa ko‘ziga,
Chang urishib, talasharlar, halol deb o‘g‘il-qiziga.
Himoyat bo‘lmas hech kimdan insof kelmasa o‘zingga,
Behuda qolarsan go‘rda, jon azobin chekar ketar.

Aziz tan qorilib qumga, qora tuproq to‘lar ko‘zga,
Bir o‘tkinchi yo‘lovchimiz, uy-qora yer, odam, bizga,
Bir kun ustidan o‘tkazmas, loshimiz qarzdor sizga,
Voz kechib mol-u vatandan qo‘lin yuvib chiqar ketar.

Oshiqiy der, do‘st-u yorga o‘lgan kuning yot bo‘larsan,
O‘tganlardan olgin ibrat, sen ham qumga qorilarsan,
Ne ko‘rding o‘ttiz yoshingda, ey beg‘am fikr qil, o‘larsan,
Bir kun jasaddin joningiz telmuribon chiqar ketar.

MISKINQILICH

Miskinqilich taxminan 1850-yilda, Qarriqal'a hududida tug'iladi. Buxoro madrasasida o'qib, Sharq xalqlari adabiyotini o'zlashtirgan va zamonasining savodli kishisi bo'lib yetishgan. Miskinqilich mohir tanburchi — baxshi sifatida ham tanilgan.

Shoir ijtimoiy voqealar, ishq-muhabbat, axloq, tabiat va hayvonot olami haqida ko'plab she'rlar yozgan. 1908-yilda vafot etgan.

TOG‘LAR

Bulbullar sayrashar, g‘uncha guldadir,
Haqning zikri ham sanosi tildadir.
Kurash kuni shoshilganga daldadir,
Er yigitga mard yo‘ldoshdir bu tog‘lar.

Bahor kelsa, chorvadorlar chiqishar,
Yaylovida nor tuyalar boqishar,
Bulog‘idan bedovlar suv ichishar,
Tog‘larning ichida boshdir bu tog‘lar.

Bunda maskan tutmish parilar, devlar,
Shashtini yo‘qotar dushmanlar — yovlar,
Kuchin sinar bunda chopqir bedovlar.
Qatlam-qatlam qora toshdir bu tog‘lar.

Kiyik, qulon, shunqor, lochin qushlar bor,
Giyohi ming dardga davodir bisyor,
Qa’rida oltin-u kumushlari bor —
Elga davlat, boshga tojdir bu tog‘lar.

Miskinqilich, ming bir dardning shifosi,
Tegsa bo‘lar tog‘larining safosi.
Bu dunyoning yo‘qdir zarra vafosi,
Vayron bo‘lar, so‘ngi hechdir bu tog‘lar.

SENI

Madh etarman sol quloq, ey So‘nagul ra’no, seni
Haq yaratmish nuri pokdan, hammadan a’lo seni,
Sevdi ko‘nglim go‘zallardan tanladim tanho seni,
Bilmadim sir-u xayoling, oqil-u dono seni,
Orzu aylar ko‘rgali barcha shoh, gado seni.

O‘rta bo‘y, nozik badan — qomating sarvi sanobar,
Yarashar oltin-kumush ham belingga zarli kamar,
Tishlaring dur, og‘zing g‘uncha, lablaringdan bol tomar,
Sochlaring bir tim qoradir, yuzlaring shams-u qamar,
Ko‘rsa ming guldan kechar, ul bulbuli shaydo seni.

Ko‘zlaring jallod erur, misli qalam qoshing sening,
To abad dunyom rasodir, bo‘lsa sog‘ boshing sening,
Qo‘llaring nozik, chevar, ezgulik ishing sening,
Saqlagay barcha balodin yaratgan Alloh seni.

Men nechuk toqat qilarman, yor, sendan ayrilib,
Bo‘lmagay sabr-u qarorim, dildor sendan ayrilib,
Xasta bo‘lgay jismi jon bemor, sendan ayrilib,
Lol bo‘lur bulbul tilim, gulzor sendan ayrilib,
Ko‘rmasam har ko‘z ochganda, g‘uncha gul-zebo seni.

BO‘LDIM ENDI

Yoronlar, junun shaydo, mastona bo‘ldim endi,
Na aql bor, na hush bor, devona bo‘ldim endi,
Dunyo ishiga vale, hayrona bo‘ldim endi,
Fikr g‘amiga cho‘mdim, g‘amxona bo‘ldim endi,
Jahon ichra sharmsor, afsona bo‘ldim endi.

Umrim giyohi o‘sdi, vaqt o‘tib hosil berdi,
O‘roq olib qo‘liga o‘roqchi palak o‘rdi,
Xirmon uyib ham tuydi, otib yelga sovurdi,
Tayyor etdi yemoqqa-shaylanib kurak urdi,
Ajal qushi kam-kam yer, sof dono bo‘ldim endi.

Ey do‘stlar, jahon ichra meningdek bo‘lgan kamdir,
Oqil bo‘lgan bu holga yig‘lar, hamisha g‘amdir.
G‘am bilmagan odamni bilmang nasli odamdir.
Bulbul tilim lol bo‘ldi, boyqush menga hamdamdir,
Buzildi ko‘ngil shahri, vayrona bo‘ldim endi.

Bilmam nechuk mahluqman, na hayvonman, na inson,
Na kofirman, na mo‘min va na oddiy musulmon,
Na fosiqman, na solih, na so‘fiman, na eshon,
Na mullaman, na olim, bo‘lmadim ahli yoron,
Yaxshilardan yiroqman, begona bo‘ldim endi.

Banda bo‘lib qilmadim Haqqa arzir bir ish soz,
Na menda bir ibodat, na ro‘za bor, na namoz,
Bir shum tole bandaman, gunohim ko‘p, xayrim oz,
G‘aflat ichra o‘tkazdim, tamom umrim qish-u yoz,
Pushaymon birla yig‘lab, giryona bo‘ldim endi.

Tan to‘ridan uchar jon, to‘ri ham qarshi kelar,
Umrimning saroyidan kunda bir g‘isht to‘kilar.
Ko‘rdim, baqo yurtiga har kun karvon tortilar,
Mening ruhim bir kun ul karvonga taqilar,
Afsus, oziq-yaroqsiz ravona bo‘ldim endi.

Miskinqilich, odamzod bir kuni kelib ketar,
Ayting kimga bu dunyo vafosi nasib etar?
Vodarig‘a ne qilsam, ahvolim bo‘ldi battar,
O‘tdi yigitlik chog‘i, yosh o‘ttiz uchga yetar,
Ey do‘stlarim, keksaydim, biryona bo‘ldim endi.

TOPMADIM

Aysh-u ishrat, shod-u hurram davri davron topmadim,
Ey yoronlar, dunyoda bir turfa jonon topmadim,
O‘tdi umrim g‘amga to‘lib, shod-u xandon topmadim,
Bahraro cho‘mdim valekin gavhari kon topmadim,
Do‘stlarim ushbu jahonda billo, poyon topmadim.

Ko‘nglim o‘ldi g‘am do‘koni soat ichra dambadam,
Ul sababdan zor etarman yuragimda dard-u g‘am,
Tashnalab qoldim bu cho‘lda — dahonda qolmayin nam,
Do‘stlarim, pinhon sirimni xalqaro qildim raqam,
Mehnat-u g‘am ko‘p chekarman, rohati jon topmadim.

Avomi xos barchani qilmish musaxxar bir pari,
Har yerga — arsh-u samoga yetmish oning daftari,
Naqsh aylab, taqmish ko‘ksiga tamomi dur-gavhari,
Ul parini zohir etsam, bu jahondir ul pari,
Qo‘yniga kirdim valekin, bog‘-u bo‘ston topmadim.

Kimni g‘amgin, kimni shodmon aylamishdir ul juhud,
Kimki anga oshiq bo‘lsa, na nafi bor va na sud,
Kimsa andin qochsa gar, ko‘nglida bo‘lur unit,
Oxir ul kofir pari hech kimsalar qo‘ymas vujud,
Ketmayin qolmoq uchun bir hiyla, darmon topmadim.

Kel, faqir Miskinqilich, nechun bo‘libsan hastahol,
Ne uchun oshiq bo‘libsan ul pariga xomxayol,
Poyigardin aylading ko‘zga surma, yuzga hol,
Har kimni shaydo qilmish ko‘rsatib qaddi jamol,
Ul parida bir vafo, bir ahdi paymon topmadim.

CHORASIGA

Tegdi g‘amzangni o‘qi bu bag‘rimning porasiga,
Laxta-laxta to‘kdi qon, yetmish kishi chorasiga.

Men seni do‘st der edim, qilding yaram haddan battar,
Do‘sti darmon aylamasmu do‘stining yarasiga.

Ol muroding bo‘lsa jonim, to‘q qopingda qonimni,
Xina qil barmoqlaringga, surtib qo‘l orasiga.

Ko‘zlaring oqi qizarmish, tomdimi qonim mening,
Qahr etma, o‘rgilayin ko‘zginang qarosiga.

Qilaylik bir dam g‘animat, ishrati zavqi visol,
Qora tort dushman yuziga — fitnayi ruxsorasiga.

Shum raqibga berma sir, umringga shikast keltirur,
Ne-ne savdolar solar oshiqlarning orasiga.

Aytar ul Miskinqilich, shohlik anga loyiq kelar,
Yor agar aylab karam, rahm etsa bechorasiga.

YANGLIG‘

Yor aqlini oldirmish,
Devona bo‘lgan yanglig‘.
Gul rangini so‘ldirmish,
G‘amxona bo‘lgan yanglig‘.

Bilmam nechuk mahvashdir,
Mudom ko‘ngli otashdir,
Ko‘zlari to‘liq yoshdir,
Giryona bo‘lgan yanglig‘.

Arz aylasam der, yorga,
“Qo‘yma meni ozorga!”
Bu ko‘nglimga, ag‘yorga
Hamxona bo‘lgan yanglig‘.

Shoh turmas adolatda,
Lashkari nadomatda,
Yo ta’na malomatda,
Afsona bo‘lgan yanglig‘.

Joduga qo‘ydim mehr —
Bilmam, bunda ne sehr?
Mening boshimga oxir —
Zamona bo‘lgan yanglig‘.

So‘z qotsam kelar qahri,
Og‘zida to‘la zahri.
Do‘stidan ketib mehri,
Dushmanga bo‘lgan yanglig‘.

Qahr ila javob etdi,
Holimni xarob etdi,
Bag‘rimni kabob etdi,
Biryona bo‘lgan yanglig‘.

Mushkul ani tark etmak,
Vaslidan yiroq etmak,
Bilmamki, anga yetmak
Gumona bo‘lgan yanglig‘.

Miskinqilich qalandar,
Uchmoqqa yo‘q qanot-par,
Bizdan bugun u dilbar
Begona bo‘lgan yanglig‘.

•

ORIF

O'quvchilarga uncha yaxshi tanish bo'lmagan turkman lirik shoirlaridan biri Orifdir. Orif haqida aniq biografik ma'lumotlar saqlanmagan. Biroq shoirdan meros bo'lib qolgan "Nasihatnoma" she'rlar to'plami u yashagan davr haqida mulohaza yuritishga imkoniyat beradi. Mazkur asar ma'lumotlariga ko'ra, shoirning asl ismi Gumnom bo'lib, Orif uning adabiy taxallusi. Shoir she'rlarida "Orif", "Mulla Orif" taxalluslarini qo'llagan.

Orif turkmanlarning aravachi urug'idan bo'lgan. Aravachilar mustaqil turkman urug'i bo'lib, XVI asr boshlarida ularning Sariqamish va Janubiy Ustyurt hududlarida yashagani taxmin qilinadi. Ular XVIII asrning birinchi yarmida Xorazmga ko'chib o'tganlar. Shu yerda XIX asrning birinchi yarmigacha yashaganlar. So'ngra Amudaryoning yuqori oqimiga — Chorjo'y — Karki oralig'iga, undan ham yuqoriroqqa ko'chganligi haqida ma'lumotlar bor.

Orifning qaysi yillarda yashab o'tgani haqida aniq ma'lumotlar bo'lmasa-da, "Xonimizning ismi Abdulahaddir" deyishiga ko'ra, u Buxoro amiri-xoni Abdulahad hukmronlik qilgan davrda (1885–1910) qisman yashagani ma'lum bo'ladi.

Shoir bir she'rida:

Ellik beshga yetdi yoshing,
Qani sening qilgan ishing,

degan misralardan hamda boshqa bir she'rida "Yoshimiz to'rt kam ikki o'ttizdir" deganidan 55–56 yoshlarga chiqqanini bilish mumkin.

Shoir asarlarining asosini pand-nasihat, insonparvarlik ruhidagi she'rlar tashkil etadi.

JONON KERAKDIR

Avval boshda mard yigitga
Nozanin jonon kerakdir.
O‘lganda o‘rnin tutgani
Bir nom-u nishon kerakdir.

Armonsiz davron surmoqqa,
Muhtojlarga non bermoqqa,
Mehmonga peshvoz chiqmoqqa
Mol-dunyo — imkon kerakdir.

G‘amli kunda shod qilmoqqa,
Qadr-qimmatin bilmoqqa,
Dushmanidan o‘ch olmoqqa
Qondosh-qadrdon kerakdir.

Do‘stlarin xandon etmoqqa,
Dushmanin yakson etmoqqa,
Har zamon sayron etmoqqa,
Ham bog‘-u bo‘ston kerakdir.

Bir yor kerak ohu ko‘zli,
Qalam qoshli, shirin so‘zli,
Sarvi bo‘yli, qamar yuzli
Zulfi zarafshon kerakdir,

Ishrat aylab bosh qo‘shmoqqa,
Ma’rifatni so‘zlashmoqqa,
Ko‘ngil rozin aytishmoqqa
Bir la’li xandon kerakdir.

Jon ila sardan kechmoqqa,
Yor ila sharob ichmoqqa,
Nozik belidan quchmoqqa
Bir murcha miyon kerakdir.

O‘g‘il kerak saodatli,
O‘zi xushxulq va odobli.
Bir-biriga muhabbatli,
Yaxshi qadrdon kerakdir.

Yod aylayin Bir-u borni,
Oshiq ahli chekar zorni.
Mard yigitning dil xushtori,
Misli Sanamjon kerakdir.

Din o‘yin bunyod etmoqqa,
Fuqaroni shod etmoqqa.
Yurtini obod etmoqqa,
Bir odil sulton kerakdir.

Bevafodir foniy dunyo,
Qolar bunda mulk-u ashyo.
Orif aytar, bo‘lsa hamro,
Ham nuri imon kerakdir.

QOLGAN NISHONDIR

Ey yoronlar, ishqni yomon demangiz,
Hazrati Alidan qolgan nishondir.
Ishqsiz odamlarni inson demangiz,
Balki alar odam tilli hayvondir.

Ishqning sharobidan qonib nush ayla,
Yorning shavqi ila ko‘ngling jo‘sh ayla.
Bu foniy jahonda vaqting xush ayla,
Har oshiqqa derlar besh kun davrondir.

Oshiq ahli ma’shug‘iga qul bo‘lar,
Kuya-kuya ustuxoni kul bo‘lar.
Har kuni oy bo‘lar, oyi yil bo‘lar,
Yerdan yiroq tushsa oxir zamondir.

Oshiqlik yo‘liga qadam qo‘yganlar,
Yurakdan sevilib yoki suyganlar.
Ishq otashida yonib kuyganlar,
Do‘zaxning o‘tidan, shaksiz, omondir.

Orif, yaqin yurgin piri ustozga,
Pirsiz oshiq yetmas hargiz murodga.
O‘n to‘rt oshiq nomi qoldi dunyoda,
Alardan so‘ng so‘zing turfa dostondir.

HAYRON BO‘LMASA

Bir qarichlik yo‘lga qadam qo‘ymagin,
Yoningda bir yaxshi hamroh bo‘lmasa.
Har bir bo‘lar-bo‘lmas so‘zga ishonma,
Suhbatdoshing aqli raso bo‘lmasa.

Qazo o‘qi amr bo‘lmay otilmas,
Ajal yetsa hech kim qochib qutulmas.
Ul yigitning aytgan so‘zi tutilmas,
Mushkul ishdir mol-u dunyo bo‘lmasa.

Oshiq ma’shug‘iga itizor bo‘lar,
Bir zamon ko‘rmasa beqaror bo‘lar.
Yigitning chekkani oh-u zor bo‘lar,
Bir nozanin qaddi zebo bo‘lmasa.

Har bir ot ham bedov bilan teng bo‘lmas,
Haqni ko‘p yod etsang,
ko‘ngil zang bo‘lmas.
Mard yigitning qilgan ishi o‘ng bo‘lmas,
Jilovida sheri — darg‘a bo‘lmas.

Ko‘p so‘zlama odam axir fosh bo‘lar,
Bir ko‘ngil ovlamoq misli haj bo‘lar.
Yigitning har yerda lofi kaj bo‘lar,
Tug‘ishgani temir qal’a bo‘lmasa.

Shirin tan rishtasi tandan uzilar,
Aql ketib qora ko‘zlar suzilar.
Davosi ko‘payar eli buzilar,
Elda to‘g‘ri, chin kadxudo bo‘lmasa.

Haromxo‘rlar og‘zin kattadan ochar,
Bir dirham da’vo deb, yuz dirham sochar.
Chin, halol musulmon haromdan qochar,
Juda yomon zolim — tarso bo‘lmasa.

Hech bir narsa yo‘qdir mudom zavolsiz,
Hech bir odam yo‘qki ko‘ngli xayolsiz.
Ilohim, hech kimni etma ayolsiz,
Juda bir yaramas balo bo‘lmasa.

Orif aytar, mardning ko‘ngli keng bo‘lar,
Mashhar kuni shoh-u gado teng bo‘lar.
Anda ummatlarning holi tang bo‘lar,
Shafqatpanoh Rasuluлloh bo‘lmasa.

SO‘ZI BIR BOLA YAXSHI

Mard yigitlar hardam qaytmas so‘zidan,
Er yigitning so‘zi bir bo‘lsa yaxshi.
Tangri bezor yolg‘onchining yuzidan,
Kazzob odam qora yer bo‘lsa yaxshi.

Qirqdan so‘ng odamning holi tang bo‘lar,
Badqilik odamning ishi jang bo‘lar.
So‘zlashsa el bilan so‘zi teng bo‘lar,
Kissasida siym-u zar bo‘lsa yaxshi.

Nomardga so‘z desang ishing bitirmas,
Mard yigit ko‘ngilga g‘ubor keltirmas.
Har arvona og‘ir yuking ko‘tarmas,
Albatta, qatorda nor bo‘lsa yaxshi.

Foniy dunyo bunyod bo‘ldi o‘lmoqqa,
Gar ketsang qo‘ymaslar qaytib kelmoqqa,
Yaxshi-yomonlardan ibrat olmoqqa,
El ichra hazrati pir bo‘lsa yaxshi.

Savob bisyor bo‘lar yaxshi fe’lingdan,
Bosh ketsa ham qaytma zinhor yo‘lingdan.
Yaxshi ish kelmasa agar qo‘lingdan,
Yaxshi niyat dilda bor bo‘lsa yaxshi.

Har kim xizmat qilsa pir-u ustodga,
Albatta, erishgusi maqsad — murodga.
Besh kunlik yolg‘onchi foniy dunyoda,
Hamdaming munosib yor bo‘lsa yaxshi.

OSH USTIDA

Nomard kimdir, bilar bo‘lsang,
Guldirar non-u osh ustida.
Holin anglab olar bo‘lsang,
Topilmas kengash ustida.

Osh ustida talasharlar,
Pana joyda olisharlar.
Muxannaslar kulisharlar,
Palov ila go‘sht ustida.

Mard yigit maydonda bo‘lsa,
Hamrohi yog‘iyda qolsa.
Mabodo qolganin bilsa,
Jon berar yo‘ldosh ustida.

Muxannaslar dunyo quvar,
Haq so‘z aytsang, yuzin burar,
Nomardlar o‘z-o‘zin maqtar,
Topilmas kurash ustida.

Mard yigitlar g‘izo aylar,
Dushman ko‘rsa g‘avg‘o aylar.
Aziz jonin fido aylar,
Qarindosh-qondosh ustida.

Davlatimni bergan, Xudo,
Bir yor bergin misli humo,
Manglayi bo‘lsin misli oy,
Ikki qalam qosh ustida.

Orif noming banda bo‘lsa,
Shukur ayla, jon tanda bo‘lsa,
Mard yigitlar qayda bo‘lsa,
Palov, choydir jo‘sh ustida.

ABASDIR

O‘tgan azizlardan qolgan so‘z bordir,
Yomon bilan hamdam bo‘lmoq abasdir.
Yomon odam misli bir af’i-mordir,
Ul morni qo‘lingga olmoq abasdir.

Alloh yaxshi bilar zohir, botinni,
Chin mo‘minlar minar Buroq otini,
O‘ylamay olsang gar yomon xotinni,
O‘zingni zindonga solmoq abasdir.

Yaxshi xotin bu dunyoning jannati,
Yomoni do‘zahdir, ko‘pdir ofati,
Hech tuganmas dardisar-u mehnati,
O‘z boshingga sotib olmoq abasdir.

Agar xabar tutsang gapning o‘zidan,
Tinglasang, aytayin so‘zning mag‘zidan.
Darveshlar oldida dunyo so‘zidan,
Suhanvorlik aylab, bilmoq abasdir.

Mo‘min bo‘lsang, kezgin halol non izlab,
Jonga ko‘p tegmagin yolg‘ondan bo‘zlab.
Behuda, be’mani har joyda so‘zlab,
Musibat joyida kulmoq abasdir.

Orif, oxir turar joyingdir lahad,
Oxir damda imon baxsh etsin Ahad.
Bunda gunoh qilib behad, beadad,
Anda o‘zing o‘tga solmoq abasdir.

DAVLATMAMAT BOLQIZIL

1855-yilda Esanquli tumanida tavallud topgan Davlatmamat Bolqizil Etrak-Gurgan hududlarida yashagan. She'rlar yozish bilan birga u yaxshi sozanda, mashhur baxshi bo'lgan. O'z she'rlariga kuy bastalab, qo'shiq qilib kuylab, xalq ichida obro'-e'tibor qozongan.

Davlatmamat Bolqizil el-yurtiga she'riyati, qo'shiq va musiqasi bilan xizmat qilgan. 1912-yilda vafot etgan.

KEZGAN YERLARIM

Kelar edim yo‘lim tushdi ustidan,
Kulib-o‘ynab yayrab kezgan yerlarim.
Kim qutuldi shum ajalning dastidan,
Kulib-o‘ynab yayrab kezgan yerlarim.

Falakning dastidan keldim omona,
Qazong to‘lgan kuning qo‘ymas zamona.
Bugun ko‘rganimiz erta gumona,
Kulib-o‘ynab, yayrab kezgan yerlarim.

Yig‘lamoqdan bag‘rim qora qon bo‘ldi,
Qazo navbatidan kim omon qoldi.
Siynamga ayriliq domini soldi,
Kulib-o‘ynab yayrab kezgan yerlarim.

Sahar turib dutor olib qo‘lima,
Quvonurman hamda uning tilina.
Jamoling o‘xshatib jannat gulina,
Kulib-o‘ynab yayrab kezgan yerlarim.

Davlatmamat shukr qildi, Yaratgan
Azal o‘zi yo‘qdan bizni bor etgan.
Bu dunyoga kelgan barisi ketgan,
Kulib-o‘ynab yayrab kezgan yerlarim.

NORING SENING

Ey nozanin, go‘zallarning go‘zali,
Havas etdim zulfi toringga sening.
Tog‘ eritar oshiqlarning ko‘z yoshi,
Qo‘lim yetmas qo‘sha noringga sening.

Tishlab yanog‘ingdan so‘rsam tilingdan,
Bog‘bon bo‘lib tersam g‘uncha gulingdan.
Qo‘lim ketmas sening nozik belingdan,
Ega bo‘lsam harna boringga sening.

Rozidirman gul o‘rniga sotib ol,
Yoqma jonim, tavallomga quloq sol.
Gar solmasang men o‘larman senda o‘l,
Shunda loshim borar go‘ringga sening.

Arz aylasam sultoniga, xoniga,
Ilojim yo‘q bora bilmam yoniga.
Davlatmamat qurbon shirin joniga,
Barobar kelmadim zo‘ringga sening.

QIZ KELAR

Suv bo‘yida namoz qildim,
Ko‘rdimki ikki qiz kelar.
Biri-biriga munosib,
Biri-biridan tez kelar.

Kelardi anhor boshidan,
Gul injimas yurishidan.
Ko‘ksi titrab-turishidan,
Qo‘l tegmagan bir qiz kelar.

Qurbondir jonim joniga,
Qolma oshiqlar qoniga.
Kirsa mallarang to‘niga,
Oshiqi sarafroz kelar.

Sollanib chiqdi soyadan,
Qo‘llarin xinoga bo‘yagan,
Biri oq yuzli gulbadan,
Biri undanda soz kelar.

Noz aylayib jon olmoqqa,
Qo‘lin bo‘yinga solmoqqa.
O‘ng qo‘li bag‘rim tilmoqqa,
Chap qo‘lda siqim tuz kelar.

Davlatmamat yondim o‘tga,
Men kimga borayin dodga.
Og‘magan foniy dunyoda,
Kimlarning yuki teng kelar.

ORANGIZDA

Qora ko‘zli qoshi kamon,
Azizim yo‘q orangizda.
Go‘zal yuzli sohibjamol,
Azizim yo‘q orangizda.

Qizlar yig‘ildi jam bo‘lib,
Zor yig‘larman g‘amga to‘lib.
Sevgilim qaylarda qolib,
Azizim yo‘q orangizda.

Siz bir oh-u u bir so‘na,
Qayta o‘rtadingiz yana.
Salomim yetkazing unga,
Azizim yo‘q orangizda.

Yor-yor debon sayrar tillar,
Yor bog‘inda g‘uncha gullar.
Qaddi shamshod nozik bellar,
Azizim yo‘q orangizda.

Davlatmamat yorga banda,
Jafosin tortdim har kunda.
So‘roqlab kelibman bunda,
Azizim yo‘q orangizda.

BIBINING

Ko‘llarning so‘nasi, bog‘ning bulbuli,
Kiprigi tir, qoshi yoydir Bibining.
Qaddi zebo, yuzi nurdan yaralgan,
Jamolin ko‘rgan der oydir Bibining.

Mehmon kelsa ellik, yuz deb o‘tirmas,
Yuzi ochiq qoshlari hech chitilmas.
Dasturxon yozug‘liq izi kesilmas,
Azaldan iqboli boydir Bibining.

Parilar paykari jannatning huri,
Dunyoda yaxshining ul erur biri.
Ko‘nglingni olg‘usi zulfining tori,
Borsang xonasiga joydir Bibining.

Deyar Davlatmamat bordim uyiga,
Hayron qoldim qomatiga-bo‘yiga.
Maxtum shirvon derlar asli nasliga,
Qilgan ishi jo-bajodir Bibining.

ORZIXON

Men bir holat ko‘rdim sahar chog‘ida,
Zor yig‘lab, qoshima keldi Orzixon.
Bizni qo‘ydi ayriliqning dog‘ina,
Zor yig‘lab, qoshima keldi Orzixon.

Sevgilim bir qushdir o‘zga tutolmas,
Har kim chaqirsa-yu chopsa yetolmas.
Qahba falak ko‘nglingdagin ettirmas,
Zor yig‘lab qoshima keldi Orzixon.

Karashmasi tegar kelinga, qizga,
Qurbon bo‘lay uning shirin so‘ziga.
Qo‘lim yetmas titroq qo‘sha ko‘ksiga,
Qon yig‘lab qoshima keldi Orzixon.

Qurbon bo‘lay qomatiga-bo‘yiga,
Haq muruvvat qilsa kirsam qo‘yniga.
Chiqar zarrin zarbof kiyib egniga,
Zor yig‘lab qoshima keldi Orzixon.

Haqdan o‘zga kimga aytay dodimni,
Haqning o‘zi bersin ko‘ngil shodimni.
Davlatmamat derlar mening otimni,
Qon yig‘lab qoshima keldi Orzixon.

KUNLARIM

Bir necha guluzor zebo sanamlar,
Bog‘ yaratib bog‘bon tutgan kunlarim.
Sag‘ri kovush, sariq dastor sollanib,
Dunyoni bir pulga sotgan kunlarim.

Goh zamon yig‘latib, gohi kuldirib,
Qilib noz-karashma tig‘siz o‘ldirib.
Qo‘lini silkitib boshin ko‘tarib,
Sollonib-sudralib o‘tgan kunlarim.

Qizil kiyib ol boshiga burkanib,
Bulbul go‘yo to‘ti kabi taranib.
Pinhon joyda xilvat boqib, qaranib,
Talashib-tortishib yotgan kunlarim.

Armon degan mard yigitning makoni,
Bo‘sh qolibmish oshiqlarning do‘koni.
Ko‘rmaganga quruq so‘zdir-yo‘q ma’ni,
Necha bilan gumroh ketgan kunlarim.

Qurigan chinorlar, mevasiz bog‘lar,
Zamona o‘zgarmish, yo‘q o‘tmish chog‘lar.
Davlatmamat deyar siynamda dog‘lar,
Maqsad-u murodga yetgan kunlarim.

ABDUSATTOR QOZI

XIX asr turkman mumtoz shoiri Abdusattor Qozining "Jangnoma" dostoni turkman xalqi tarixini o'rganishda qimmatli asar hisoblanadi.

Abdusattor Qozining hayoti va ijodi xususida to'la ma'lumotlar saqlanmagan. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, u Axal viloyatida tug'ilgani, Xivada ko'p yillar davomida qozilik lavozimida xizmat qilgani aytiladi.

Mumtoz an'analar ruhida, masnaviy shaklida yozilgan "Jangnoma" asari vatanparvarlik kurashiga bag'ishlangan.

JANGNOMA
TAKALARNING URUSH QISSASI KITOBI

(Dostondan parchalar)

Kunbotardan paydo bo'ldi chang-to'zon,
O'sha chang-to'zonning orasi bilan.

Ko'rindi, ko'p lashkar yetib kelardi,
Bir kas uning boshin tutib kelardi.

Payg'ambar toji bor uning sarida,
Olam sarvari ul o'z ellarida.

Yashil to'nlik, qo'li yashil hassalik,
Ko'nglida haq yodi tili sanoli.

Mahmud eshon derlar uning ismiga,
Kelar ul bosh bo'lib yovmut eliga.

Yasol tortib bunda hozir bo‘ldilar,
Kurash maydoniga yurish qildilar.

Kelib mo‘minlarga qo‘shildi ular,
Yetishdi kufforga og‘ir g‘ussalar.

Borar ular bir tarafdan saf tortib,
Chiqdi botirlari otlar o‘ynatib.

Taka, yovmit, go‘klan bari birlashib,
Botirlari yasol tortib jo‘rlashib.

Bir-biriga g‘ayrat berib, kuch berib,
Bir-birin dushmanin loshlarin sarib.

Nayza urib, ot o‘ynatib ul erlar,
Dushmanga “Kel, kurashaylik” derlar.

Tinglab ular botirlarning so‘zini,
Beri o‘girdilar to‘plar yuzini.

Ancha to‘pni bu yon sari bo‘shatdi,
Islom lashkariga o‘nlab o‘q otdi.

Jasurlar qo‘rqmayin dushman to‘pidan,
Borishdi sarbozlar old safidan.

Kurashdilar nayza urib tolguncha,
Tig‘ sanchilib dushman loldek qolguncha.

Ancha sarbozlari faryod etdilar,
Qizilboshlar ulardan dod etdilar.

Dedi Jabborquli: “Ey voyey, lashkar,
Yutdi qo‘shinimni misoli ajdar.

Turkmanlar elidan bir guruh otli,
Oz fursatda ko‘p qo‘shinni tarqatdi.

“Alloh bandalari, sartib-u sarhang,
Ko‘ziga ko‘rsatib qiling shundoq jang”.

Bu so‘zlarni aytib buyruq berdi u,
Lashkarlarin har tarafga surdi u.

Yuritdi u to‘plarini otdirib,
Keng jahonni chang-tutunga bostirib.

To‘plar gumburlashi yetib osmonga,
Yer-u osmon shu choq keldi larzonga.

Saf-saf aylab lashkarlarin yuritdi,
To‘p, miltiqlar sasi falakka yetdi.

Zo‘r solib kufforlar kurash qildilar,
Bizning botirlarga og‘rom soldilar.

Ular dona-dona urushib, kurashib,
Oxiri Nurberdi xonga uchrashib.

Dedilar: mardimiz Seyilxon xoni,
Kuffor eli oljak omonat jonni.

Bosib borar bizni dushman lashkari,
Xayiqtirar to‘plar gumburlashlari.

To‘planib islomning lashkari kam-kam,
G‘ivirlashib unda kuffor eli ham.

Boyirlardan chiqib ul tepa sari,
To‘plarni yuritib keldilar beri.

Yaqinlashib keldi to‘pin otdirib,
Dunyo yuzin achchiq tutun bostirib.

Hayron, sarosima bo‘lib musulmon,
Dushmanlar kuchiga bo‘lishdi hayron.

Zor yig‘lashib qal’a ichindagi el,
Xudoga yolvorib dedilar “Jalil!

Qabul et ojizlar duosin shu tob,
Orzularmizni o‘zing aylagil ro‘yob.

Yaxshi mergan degan farosatli er,
Boshi qon g‘avg‘oli xarosatli er.

Dedi katxudolar beglar-u xonlar,
Yetib keldi och it kabi kufforlar.

Xudoni yod aylab dushman qasdiga,
Bostiring tez kufr elin ustiga.

O‘zin yod etganni Xudo yod etar,
Kuffor eli bizdan ko‘p faryod etar.

Hamma birdan aytdi bu to‘g‘ri gapdir,
Katta-kichik har kas g‘avg‘o talabdir.

Bir-birovni qo‘llab qoyim bo‘ldilar,
Qurollanib darhol tayin bo‘ldilar.

Aylanib, ot choptirib dushman sari,
Chaqirdilar ul Allohu Akbari.

Kuch g‘ayrat quvvatni jamlab bordilar,
To‘zon qilib, daminda tosh yordilar.

O‘ng-chapga qaramay kofir ustiga,
Yaqinlashib bordi ajal qasdida.

Yiqib kuffor elin barcha binosin,
Chaqirdi mo‘minlar Rabbanosin.

Chor yonda to‘p sasi chiqdi paqillab,
Yetib bordi qilich, nayza shaqirlab.

Ikki lashkar qarshi turib sarbasar,
Urush bo‘ldi do‘zax bilan barobar.

Har kimsa tig‘ urib dushman boshiga,
Yulduzdek sunarlar shayton boshiga.

Nurberdi xon yig‘in boshini boshlab,
Bir yovuz sher kabi qilichlab tashlab.

Chapdan rostdan chopib qilib o‘yinboz,
Nayza sanchar sinar sartib-u sarboz.

O‘ng yonidan kelib cho‘pon Kir xonning,
Ajdardek domiga tortar dushmanin.

Labin tishlab sunib nayza urardi,
Gohi yiqilardi, gohi yiqardi.

Nechani tig‘ bilan tashlardi chopib,
Dushman yotar og‘zi-burni bulashib.

Ham yana yondoshib ikki g‘o‘ch mardon,
Biri Gulton yana biri Durdi xon.

Qirib kuffor elin yakson etarlar,
Necha jonliqlarni bejon etarlar.

Amalda qo‘llanib barcha tig‘larin,
Nazarlashib endi kuffor tug‘larin.

Chiqdi bir tarafdan to‘rt nafar arslon,
Kelardi tig‘ urib ul sheri barslar.

Birovi Choridir qardoshi bilan,
Birovi Ashrafdir yo‘ldoshi bilan.

Ularning qo‘lida tig‘lar yaltirab,
Surar sarbozlarni bir tomon to‘plab.

Yana bir navjuvon, bir xush sifatli,
Sim nomin so‘rsang Botir beg otlig‘.

Tozidek chopqir otin surdi ul,
Tomosha qil ko‘p dushmanni qirdi ul.

Shiddat ila kurash sari kirdi ul,
Tig‘ ila qo‘riqlab nomus orni ul.

Nechalarni urib sadpora aylab,
Jahannam tarafga ravona aylab.

Kuffor xushdan ketib qo‘l uzar jondan,
Qirib mard yigitlar chiqar armondan.

Dushmanga torttirib ko‘p oh-u fig‘on,
Oqtirdi yigitlar daryo kabi qon.

Ham yovmit elidan sarmast yigitlar,
Qirg‘in aylab chapdan kelib yetdilar.

Kufforning chap yonin qisib qovurib,
Qonin to‘kib ustiga ot sovurib.

Xullas, dushmanlarga bermayin omon,
Tushirdi boshiga xud oxirzamon.

Shunda Nurberdi xon ayladi hukm,
"Mardlarim, dushmanning tug'ini teping!"

Botirlar jam bo'lib bayroqni tepdi,
Borishgach, dushmanni urdi ham chopdi.

O'sha zahot dedi Jabborquli xon,
Sunniylar yengishiga qolmadi gumon.

Ojizlandik biz bundagi urushdan,
Qochgan yaxshi bu yerlarda turishdan.

So'ngra yig'ib barcha navkarlarin xon,
Qochdilar bu yerdan to'xtamay bir on.

Botirlarimiz ular qochishin ko'rib,
Tez ora bayroqni chopdilar borib,

Bilingki kufr eli bo'ldilar xarob,
Ketdi kelgan yo'lin qaytadan yurib.

Hujum bilan borib barcha musulmon,
Qizilbosh holini qildi parishon.

Botirlarimiz bu kurashdan toldilar,
So'ng navbatni qo'rqoqlarga berdilar.

Alqissa jasaddan to'ldi hamma yoq,
Dushman taslim bo'lib tiz cho'kdi shu choq.

Bo'lib Jabborquli holi parishon,
To'pin tashlab, qaramayin hech tomon.

Og‘ir hasrat ila yurtiga qaytdi,
Jonin olib borar hasrat-u qayg‘u.

Yel, yomg‘ir yog‘ib, qor yog‘ib osmondan,
Hech vaqo qolmadi yog‘iy dushmandan.

Mingbir hasrat ila dedi, voh, armon,
Gurgan taraf ketdi Jabborquli xon.

Bu yonda Govshutxon hozirlab to‘pin,
To‘pning nillariga solardi o‘qin.

Oldingi jang chog‘i ancha mardonlar,
Kurashib to‘kishdi qirmizi qonlar.

Ularning nomlarin bayon ayladim,
Falon, falonkas deb ayon ayladim.

Ular yana maydon ichra keldilar,
Kurashga o‘zlarin qoyim qildilar.

Yana bu xalqning bir mardi bor edi,
Jang-jadal topilsa baxtiyor edi.

Yosh boshiga kufr uzra ketardi,
Botirlar ichida bir botir erdi.

Mard yigitlar to‘planardi qoshiga,
Tosh bo‘lib yog‘ardi dushman boshiga.

Yolg‘iz o‘zi yog‘du solardi tunda,
Musulmonlarga o‘rnak bo‘lardi munda.

Mard edi hech kimdan qaytmas bir polvon,
Ismi Omonsaid ul sohibqiron.

Ham shohona harbiy libos kiyib ul,
Langar otib toqqa o‘xshab kelib ul.

Yetishdi ul otin yarog‘in sozlab,
Dushman sari yurish qildi havaslab.

Mard yigitlar atrofida jam bo‘lib,
Bordilar jang maydoniga otilib.

Guruh bo‘lib bordi o‘shal maydonga,
Mardligini ko‘rsatgali dushmanga.

Saflaridan chiqib yana ko‘p bo‘lib,
Ularga qo‘shilib yana juft bo‘lib.

Ki alqissa, jasur yigitlar bari,
Yetishdilar kurash maydoni sari.

Bir-birovin qo‘llab madad kuch berib,
Bir-birovin ko‘ngillarin ko‘tarib.

Borib ki dushmanga qildilar hamla,
Ularga aytdilar bir necha jumla.

Omonsaid dediki: “Ey qizilbosh,
Kelib bizning xonimizga eging bosh.

Qabul aylab bizning dinimizni ham,
Amal qiling urfimizga siz har dam.

Yo‘qsa kesib qora sertibning boshin,
Itlarga otarmiz biz uning loshin.

Boshingizga solib biz qora kunlar,
Loshingizga qo‘nar pashsha — chivinlar”.

So‘ng chaqirib Xudo birlan Rasulni,
Ham yod aylab ancha sohib usulni.

Ot qo‘ydilar deya Allohu Akbar,
Nayza tutib keldi anchayin askar.

Borib tig‘ urdilar sarboz sopiga,
Yaqin borib Qora sertib to‘piga.

Undan so‘ngra barcha ahli musulmon,
Poy-piyoda, otliq barchasi shu on.

Ot qo‘ydi dushmanga og‘ir bir lashkar,
Dedilar takbiri Allohu Akbar.

Qirg‘in aylab yanchishdilar bir zamon,
Kufforlar boshidan oqizdilar qon.

Qilich sarib dushman ustiga to‘g‘ri,
Cho‘zdi Berdiniyoz O‘rozxon o‘g‘li.

Qilich nayza sasi ketdi sharaqlab,
Sadosi yangradi yaqin yiroqda.

Belbog‘ kamaridan tutibon mahkam,
Dushmanni osmonga irg‘itishar ham.

Tik boshi qaytishib zaminga ular,
Suyaklari parchalanib gum bo‘lar.

Goh kallani kallaga urishtirib,
Miyalarni chayqatib urush qilib.

Rustamdek er hujum qilar dushmanga,
Endi tezda yog‘iy ketar osmonga.

Shul fursatda yana ikki er kelib,
Olar qizilboshning kokilli sarin.

Tushgan kabi go‘yo qamishzorga o‘t,
Dushmanning boshiga tushdi tala to‘p.

Oyboltasin yarqiratib dastida,
Kofirlardan o‘ch olmoqlik qasdida.

Ikki ming odamga bosh bo‘lib ular,
Saf tortib dushmanning ustiga kelar.

Ular ismin el ichida bilarlar,
Og‘ali ham Tojli mirob deyarlar.

Mana chiqdi bir tarafdan shirin nar,
Sof yurakli yuzlari ravshan magar.

Urib tig‘in qizilboshdan to‘kib qon,
Bo‘yadi yer yuzin go‘yoki rayhon.

Yer yuzini bosdi ur-yiqit, suron,
Dushmanning boshini qo‘ymayin omon.

Qisildi, qovrildi kofir lashkari,
Qutuldi ulardan mo‘min ellari.

Asli ismi Muqim mardona erning,
Yaxshi bilar u ham kurash tilsimin.

Ki alqissa, oqib daryoi qonlar,
Kofir eli tortdi oh-u fig‘onlar.

Murdalardan paydo bo‘ldi uyumlar,
Har uyumi go‘yo tog‘dek tuyular.

Sarbozlarning saflarini buzdilar,
Qisib-qimtib har tarafdan cho‘zdilar.

Shariatdan sohib bir vali erdi,
Tariqat haqiqat xatm etgan erdi.

Ul mard edi el oldida almudom,
Hamma aylar edi uni ehtirom.

Ilmda zo‘r edi hammadan a’lo,
Deyishardi uni shayxi Abdullo.

Urushmoqqa ul ham chiqdi boq bu yon,
Dindosh do‘stlariga boshliq bo‘libon.

Urush maydoniga tez yetib keldi,
Muridlari ila saf tortib keldi.

Duo aylab qo‘l ko‘tardi zor yig‘lab,
Allohu Akbarni munojot aylab.

Dedi ul xalq etgan bu dunyoni sen,
O‘z ojiz bandangning mehriboni sen.

Pasaytirgin kufr elin g‘ayratin,
Rahmat birla ber islomga quvvating.

O‘z asl pokliging sharafiga sen,
Borliging-yo‘qliging sharafiga sen.

O‘z habibi anbiyonglar haqiga,
Ul Muhammad Mustafoning haqiga.

Ham hazrati Odam Ato haqiga,
Barchaning onasi Havvo haqiga.

Kufr elidan ancha jafolar chekkan,
Nuh payg‘ambar anbiyoning haqi chun.

Senga ko‘p zor qilgan Halil haqiga,
O‘tni gulzor qilgan Namrud haqiga.

Yusufim deb hijron o‘tiga kuygan,
Ya’qubning haqichun Allohni suygan.

Tanin qurt yeb yotgan Ayyub haqiga,
Bir Xudo deb yotgan Ayyub haqiga.

Baliq ichra ancha suhanlar aytgan,
Haqiga Yunus-u Zikirning, ey jon.

Zakariyo payg‘ambar Yahyo haqiga,
O‘zing qurgan buyuk osmon haqiga.

Yetti valiy Muhammadning do‘stlari,
Uning yo‘lin tutgan avom xoslari.

Jufti Ahmad Hadichaning haqi chun,
Muhammadning qizi Fotima haqi chun.

Mustafoning ko‘rar ko‘zin haqiga,
Hasan birla Husayinning haqiga.

Ul mard duosining qildi tamomin,
Qo‘l ko‘tarib yuziga deyishdi Omin!

Duo solgan o‘qin otdi shu holat,
Qabul bo‘ldi duo hamda munojot.

Muridlari birla shu on qoldilar,
Dushmanning ustiga suron soldilar.

Ana kuffor eli qochib boshladi,
Musulmonlar yetib, chopib boshladi.

Tez yetdilar dushmanning old safiga,
Ya'inki ul Qora sertib to'piga.

Paydo bo'ldi bir er shul fursatda, ko'r,
Qizilboshlar tarqab bo'ldi darbadar.

Ot depsinib borib, to'pga yopishdi,
Uni olib o'z eliga yetishdi.

Endi musulmonlar kallasi qizib,
Tig' urib dushmanning boshlarin uzib.

G'azab bilan urib-sanchib yiqdilar,
Eltib qazgan handaqig'a tiqdilar.

Kufr elin fayzi qochdi, kun botdi,
Kirpidek burishib o'zin yo'qotdi.

Bo'lib kuffor elin holi parishon,
Kirib handaqig'a bo'lishdi pinhon.

Ko'rib bu ahvolni Hamza shahzoda,
Xush boshidan uchib bo'ldi aftoda.

Ana shundan keyin tamomi islom,
Qaytishdi iziga barcha shod-hurram.

Shoir sen ham bo'lib bu zafarga yor,
Bo'lgin bir muhammas yozmoqqa tayyor.

MA'RUFIY[1]

SAYFULMALIK VA MADHALJAMOL

Ammo roviyoni axbor va naqiloni doston, bo'ston va xushichinlar, xirmonsuxanlar so'zni so'zga ulab, andog' rivoyat qilurlarkim, Misr viloyatida bir podsho bor erdi, otini Osim der edilar, hech o'g'li va qizi yo'q erdi. Kunlardan bir kun podsho g'amgin bo'lib, zor-zor yig'lab, taxtidan tushib, bir qorong'i tomga kirib, qirq kecha-kunduz yotdi, ersa viloyatlari xarob bo'ldi. Bir kuni vazir va vakillari podshoning yoniga borib:

— Siz nechuk taxtdan tushib, bu yerda yotibsiz? Viloyatimiz xarob bo'ldi! — dedilar. Ersa Osim podsho:

— O'g'il otliq nishonim bo'lsa erdi... Endi shahardan qo'l tortdim! — dedi. Anda vazir va vakillari:

— Ey podshohim, bunday demang. Qur'achilar qur'a tashlasinlar, munajjimlar kitob qarasinlar. Shoyad, sizga Xudo taolo bir o'g'il bersa! — dedilar. Podshoni turgan taxtga chiqardilar. Qur'achilar qur'a ochdilar, munajjimlar kitob qaradilar. Alar:

— Bag'dod podshosi Yamansultonning Guljamila otliq bir qizi bor erur. Shuni olsangiz, Xudo taolo sizga bir o'g'ul farzand berar. Ammo o'g'lingizning iqboli sho'r bo'lur! — dedilar.

Endi kamina-kamtarin, xokisor chandon ki pur kina bo'lsa, yana ham umidvor, asl nasabim emrali[2], tiyram — ma'ruf, otim Qurbonali, ammo mashhur otim Ma'rufiy.

Endi Osim podsho Xudo taoloni yod qilib, o'z otini xatga solib, besh kalima so'z aytdi:

Haq taolo qudratidan bizlara
Amri birla yaratibdir bu jahon.
Cho'x latofat aylamishdir sizlara,
Ul Muhammad sarvari ikki jahon.

---

[1] Shoir haqida ma'lumot uchun 66-betga qarang.

[2] **Emrali** — turkman urug'laridan biri.

Muhammaddir ikki jahon sarvari,
G‘ariblar munisi, yetim rahbari,
Agar Shomni, Behuzumni Haybari,
Zo‘r aylayub oldi bu sheri Yazdon.

Aslimiz emrali, zotimiz Ma’ruf,
Osim podshoni qilurmiz ta’rif,
Men shikasta benavoman ham g‘arib,
Ishq mening holimni qilmish parishon.

Bor qullara o‘zi imdod aylabon,
Avvalda qismatni ustod aylabon,
Kecha-kunduz yig‘lab, faryod aylabon,
Tiladi Xudodan bir o‘g‘il nishon.

Muhammaddir g‘arib ummat keragi,
Ali ermish ushbu dinning tiragi.
Oxir Haqdan Ma’rufiyning tilagi:
Avvalda obro‘y, oxirda imon.

Andin so‘ng, Osim podshoning Qalandar otliq bir vaziri bor erdi. Podsho anga:

— Yaman sultonga borib, Guljamila qizini mening uchun so‘ragin! — deb, bir so‘z aytdi:

Ketar bo‘lsang, vazir, Yaman shahriga,
Bu arzimni borib aytgin bayona:
Husni oydan ortiq, kundan ziyoda,
Bor emish ul yurtda bir xo‘b jonona.

Qabul etsin biz g‘aribning so‘zini,
Shoh etarman Misr eliga o‘zini,
Tangrining buyrug‘i — bersin qizini!
Umidim bor kelsa o‘g‘il — nishona.

Agar amr aylarman sulton tilinda,
Jamiladek yo‘qdir Misr elinda,

Boshimni qo‘ymishman aning yo‘linda,
Ega bo‘lsin, kelsin taxt-u do‘kona.

Xazinam bor erur sonsiz, beadad,
Shohimardon, sendan istarman madad,
O‘g‘illi bandalar o‘lmas to abad,
O‘g‘ilsizlar tug‘mamishlar paymona.

Shoyad, mening haq yondirsa sirojim,
Endi sendan erur mening ilojim,
Osim aytar, bir o‘g‘illik tilanchim,
Men o‘lgandan so‘ng ega bo‘lar makona.

Alqissa, Osim podsho bu so‘zlarni aytganidan so‘ng, Qalandar vazir Yaman sultonining oldiga borib, aning so‘zining xabarini berdi. Yaman sultoni Osim podshoning yuborgan xabarini eshitgach, vazir-vakillarini yig‘ib:

— Guljamilani berayinmi yo bermayinmi? — deb, maslahat va kengash so‘radi. Alar:

— Bering! — dedilar. Yaman sultoni Guljamilani Osim podshoga bermoqchi bo‘ldi. Ul o‘n kun to‘y bo‘lib, o‘n moya (tuya) murassa’-zevar bo‘lib, qiziga:

— Bolam, Xudo yoring bo‘lsin! — deb, besh kalima so‘z aytdi:

Ayrildim deb qayg‘u chekma,
Bolam, Xudo yoring bo‘lsin!
Ko‘zingdan qonli yosh to‘kma,
Bolam, Xudo yoring bo‘lsin!

Tutgin bu nasihat-pandim,
Sensan jon ichra xursandim,
Ko‘ngildirki jon payvandim,
Bolam, Alloh yoring bo‘lsin!

Podshodan elchi keldi,
Mening aql-u hushim oldi,

Senga buyruq bo‘yla berdi,
Bolam, Alloh yoring bo‘lsin!

Bu dam g‘animatdir, o‘tar,
Kimsa bu jahonni tutar,
Har kim taqdiriga tortar,
Bolam, Alloh yoring bo‘lsin!

Sening poyoning yurmasam,
Bir toza majlis qurmasam,
Yaman der, ko‘rsam-ko‘rmasam,
Bolam, Alloh yoring bo‘lsin!

Alqissa, Yaman sulton bu so‘zini tamom qilganidan so‘ng, Guljamilani yo‘lladi. Guljamila o‘n kunda Osim podshoning yoniga yetdi. Osim podsho o‘n kun to‘y berdi. Andin so‘ng aqdi nikoh qilib, dudoqba-dudoq qo‘yib yotdi. Ul kecha Guljamila homilali bo‘ldi. Podsho yetti oy Guljamilaning yonida yotdi, sakkizinchi oy tashqariga chiqdi. To‘qqizinchi oy podshoning bir o‘g‘li bo‘ldi. Osim podshoning Abbos degan bir vaziri bor edi. U podshoning yoniga borib:

— O‘g‘ling bo‘ldi, muborak bo‘lsin! — deb, besh kalima so‘z aytdi:

Eshit, arzim, podshohim,
Tuganmas davlating keldi!
Ketdi boshingdan tumaning,
Endi ko‘p rohating keldi!

Ulusat, xalqing sevinchi,
O‘g‘il — yigitning tayanchi,
Guljamilaning quvonchi, —
Ko‘nglingning quvvati keldi!

Ham boqmish shohi, chiqdi haq,
Bosh-u ko‘zingga boqdi haq,

Sening chirog‘ing yoqdi haq,
Baxt-u saodating keldi.

Abbos aytar, orqatog‘ing,
Kamola yetishdi bog‘ing,
Tug‘di sening kular baxting,
Orqa himoyating keldi!

Alqissa, Abbos vazir bu so‘zini tamom etganidan so‘ng, Osim podsho o‘g‘li bo‘lganligi xabarini eshitib, xushvaqt bo‘lib, besh kalima so‘z aytdi:

Shukur haqning dargohina,
Boshdan g‘amim o‘tar bo‘ldi.
So‘nalar keldi joyina,
Gullar aro qo‘nar bo‘ldi.

Gulgun sharoblar ichildi,
Turli ma’rifat sochildi,
Botil bulog‘im ochildi,
Yer yuzi lolazor bo‘ldi.

Yana biza davron keldi,
Falak ko‘zim yoshin shildi,
Siyoh baxtim safid bo‘ldi,
Bu davlat menga yor o‘ldi.

Yana yaxshi bo‘ldi yomon,
Yana yugruk bo‘ldi chaman,
Bisyor bo‘ldi boshdan tuman,
Bu ko‘nglim navbahor bo‘ldi.

Osim aytar, ko‘ring bizni,
Eshiting bu doston-so‘zni,
Ul Yaman sultonining qizi —
Bu Guljamila yor bo‘ldi!

Alqissa, Osim podsho bu so‘zini aytgandan so‘ng, shahriga kirib, o‘n kun to‘y qilib, o‘g‘liga Sayfulmalik (deb) ot qo‘ydi. Shu paytda Qalandar vazirning ham bir o‘g‘li bo‘ldi, aning ismini Said deb qo‘ydilar. Sayfulmalik bilan Said o‘n ikki yoshga kirdilar, ikkisi ziyoda xursand va jo‘ra erdi. Bir kuni Sayfulmalik Said bilan birga bog‘ning ichiga sayr va tomosha qilib yurib, bir joyga borib yotdi. Tushida Sulaymon payg‘ambar Sayfulmalikka bir uzuk bilan bir to‘n nishona berdi. Sayfulmalik uzukni barmog‘iga solib, to‘nni kiyib, bog‘ning ichida yurar erdi. U qo‘lidagi uzukning ichida yana bir uzuk ko‘rdi. Aning ichida bir surat ko‘rdi. Ul Shohbol podshoning qizi Madhaljamol otliq pari erdi. Sayfulmalik Madhaljamolga oshiq bo‘lib, beqaror va beixtiyor yiqilib yotdi. Osim podsho o‘g‘lining yoniga kelib, nima sababdan yotganligini so‘radi, o‘g‘li javob bermadi. Anda podsho Saidga:

— Menga o‘g‘lim javob bermadi, sen so‘ragin, nima dardi bor ekan? — dedi. Said undan:

— Ey Sayfulmalik, nima darding bor? — deb so‘radi. Sayfulmalik tushida ko‘rganlarini Saidga aytib, bir so‘z dedi:

Said, senga arzim bayon aylasam,
Bir zavqli so‘naga tushdi nazarim.
Sheva birla, g‘amza birla yastanib,
Ko‘rgandan so‘ng oshdi oh ila zorim.

Armondir yor uchun jonim bermasam,
Besh kun o‘ynab-kulib, safo surmasam,
Har zamon, Said, men yuzun ko‘rmasam,
Qolmas, bu ko‘nglimda zarra qarorim.

Jon olmoqqa jallod ko‘zin suzarlar,
La’li, marjon, anbar socha tuzarlar,
Bular dinoridek belni uzarlar,
Shuldir mening ko‘ngil hushim, madorim.

Endi men ketarman yorning izidan,
Hech to‘ymasman aning shirin so‘zindan,

Quchoqlab bo‘ynidan, o‘psam yuzindan,
Ketmagay ko‘nglimdan ushbu xumorim.

Otasining oti podshoh Shohbol,
Joyi — Eram bog‘i, ul qaddi nihol,
Yorning ismin aytsam — ul Madhaljamol,
Sayfulmalik aytar yoz-u bahorim.

Alqissa, Sayfulmalik bu so‘zini tamom etgandan so‘ng, Said Osim podshoning yoniga kelib, Sayfulmalikning aytgan so‘zlarini arz qildi:

— O‘g‘ling Madhaljamol degan pariga oshiq bo‘libdir. U shuning uchun Eram bog‘iga ketmoqchi! — dedi. Podsho o‘g‘lining ketishini eshitib, anga nasihat qildi:

— Madhaljamol o‘tdan ungan parizod bo‘lsa, sen tuproqdan ungan odamzod bo‘lsang, ikkovingiz bir-biringizga loyiq emassizlar! — deb, bir so‘z aytdi:

Eram bog‘iga ketarsan,
Bilmasman, ne pesha, bolam!
Gar ketsang, qaytib kelmassan,
Chekarman andisha, bolam!

Zinnorimni bog‘lamoqdir,
Jigar-bag‘rim dog‘lamoqdir,
Kecha-kunduz yig‘lamoqdir,
Sen ketsang bu isha, bolam!

Bu so‘zimni fahm aylagin,
Nolishimdan vahm aylagin,
Turib omon, rahm aylagil,
Ko‘zdan oqqan yosha, bolam!

Bu kunim bo‘lmasin voyda,
Yetib bo‘lmas o‘n ikki oyda,
Misr qayda, Eram qayda?
Bormas so‘zing bosha, bolam!

Goho mastman, goho oyiq,
Arzim eshitgin, xaloyiq.
Tuproqqa o‘t bo‘lmas loyiq,
Yuz o‘gir bu isha, bolam!

Osam aytar chekib faryod,
Taqdiri haq bo‘lib ustod,
U — parizod, sen — odamzod,
Nechuk yo‘llar tusha(r), bolam!

Alqissa, Osim podsho bu so‘zini tamom etgandan so‘ng:

— Agar hur qizini istasang ham senga olib berayin! — dedi.

Sayfulmalik qasamyod qildi:

— Madhaljamoldan boshqasini olmasman. Madhaljamolning yo‘lida o‘lsam, murodimga yetganim! — dedi. U onasining oh-u zorlariga ham qaramay ketmoqchi bo‘ldi. Onasi o‘g‘liga nasihat qilib, besh kalima so‘z aytdi:

Q‘g‘il g‘arib otasini
Hargiz ko‘zdan solmas, bolam!
Eram bog‘iga ketganlar
Qaytib yana kelmas, bolam!

Yoqma firoqning o‘tiga,
Yetgin g‘aribning dodiga,
Bu emdirib oq sutiga,
Onang rozi bo‘lmas, bolam!

Otashga do‘nmasin siynang,
Sensiz holim bo‘ladir tang,
Sen ketgan so‘ng g‘arib onang
Xurram bo‘lib kulmas, bolam!

Zaharga do‘ndirma oshin,
Oqizma ko‘zindan yoshin,
Sahroda o‘lganning loshin
Hech bir kimsa bilmas, bolam!

Guljamila, tushdim ayri,
Uchar bo'ldi jonim tayri[1],
Hech kimarsa sendan g'ayri
Ko'zyoshlarim shilmas, bolam!

Alqissa, Sayfulmalik onasi Guljamilaning tavallosiga quloq solmadi, ketmoqchi bo'ldi. Osim podsho o'g'lining ketishini bilib, to'rt yuz kema chopdirdi. Kemaning ichiga yetti yuz yigitni saylab soldi, yuz yillik ham oziq soldi. Yana Sulaymon payg'ambarning uzugini qo'liga berib, "agar bir payt boshingga ish tushguday bo'lsa, shu uzukdan xosiyat ko'rarsan", dedi. Andin so'ng o'g'lini Xudoga topshirib, besh kalima so'z aytdi:

Ketar bo'lsang, bolam, Eram bog'iga,
Bolam, seni bir subhonga topshirdim.
Ul haqning habibi rasul payg'ambar,
Xizir, Ilyos, Sulaymonga topshirdim.

Muhammaddir bir Allohning habibi,
Tangrining qismati bermish nasibi,
Ul o'n ikki imom — olam tabibi,
Bolam, seni ul Luqmonga topshirdim.

Arzimni eshitgin sen qodir Alloh,
Yetishdi jonimga mehnat-u balo,
Hasan, Husayn, ul shahidi Karbalo,
Ali otlig' sher Yazdonga topshirdim.

Ko'zimning quvonchi, ko'ngil madorim,
Qora bosib qolmasin deb ro'zg'orim,
Qafas ichra to'tim, olg'ir shunqorim,
Tavakkaldir, bu g'afforga topshirdim.

Qorong'idir tubi og'och soyasi,
Nolishimdan erir tog'lar qoyasi,
Osim o'g'li, Misr elining egasi,
Ulug' pirim Sulaymonga topshirdim.

[1] **Tayr** — qush.

Alqissa, Osim podsho bu so‘zini aytgandan so‘ng, Sayfulmalik daryoga tushib, uch yil yurdi. Chin-Mochin qal’asi ko‘rindi. Bular xushvaqt bo‘lib borar edilar. Nogahon bir yel paydo bo‘lib, olamni tuman oldi. Sayfulmalik to‘nini boshiga burkanib, Xudoga nolish qilib, besh kalima so‘z aytdi:

Qodir Alloh, fazling bila afu ayla,
Biza bir himmat ber, qo‘yma bu zora.
Alg‘araz, yondirma furqatda bo‘yla,
Biza bir himmat ber, qo‘yma bu zora.

G‘ussa birla murodima yetmadim,
Ota-onam nasihatin tutmadim,
Yorim bila bir saroyda yotmadim,
Egam, bir himmat ber, qo‘yma bu zora.

Suv yuzinda chekar bo‘ldim faryodlar,
Kelmas menga el-kunimdan imdodlar,
O‘n ikki imom — yer yuzida ustodlar,
Biza bir himmat ber, qo‘yma bu zora.

Ne yovuz savdoga solding sarimni,
Endi men hech ko‘rmas bo‘ldim parimni,
Chaqirayin Shohimardon pirimni,
Biza bir himmat ber, qo‘yma bu zora.

Sayfulmalik aytar: tushdim yomona,
Bu ne ofat, olam to‘ldi tumana...
Chiqar-chiqmasligim bo‘ldi gumona,
Rahmon, bir himmat ber, qo‘yma bu zora.

Alqissa, Sayfulmalik bu so‘zini aytib, ko‘zini ochdi-ki, to‘rt yuz kema, yetti yuz yigit hammasi daryoga g‘arq bo‘ldi. Sayfulmalik, Said va Isfandiyor uchalasi bir og‘ochning ustida edi, daryo to‘lqini alarni kanorga chiqardi. Sayfulmalik daryoning chetida zor-zor yig‘lab, otasiga shamoldan bir salomnoma yubordi:

Shamol, Alloh haqi uchun
Kel, endi uchgin osmona.
Ota-onam, el-kunimga
Bir salom yetkaz nishona.

"O'g'ling ko'p jafolar ko'rdi", —
Degin, ani Alloh urdi.
Qibladan bir tuman turdi,
Yer yuzi to'ldi tumana.

Ko'k gurlab, bir balo keldi,
Falak qilchin ters chaldi,
To'rt yuz kema saf g'arq bo'ldi,
Bu so'zim qilgin bayona.

"Parini bormi ko'rganlar,
Yo himmat sendan, eranlar,
Koshki edi, men, yoronlar,
Kelmagay erdim jahona.

Sayra, Sayfulmalik, sayra,
Solding, falak, yordan ayro,
Do'stning ishi bo'ldi g'ayra,
Davron yetishdi dushmana.

Alqissa, Sayfulmalik bu so'zini tamom qilgandan so'ng, Said:

— Ey, Sayfulmalik, qaytaylik, yomon ish bo'ldi. Qaytmasak, biz ham o'larmiz, — dedi. Sayfulmalik:

— Men Madhaljamolning yo'lida o'lsam, ne armonim bor! — dedi.

Alqissa, Sayfulmalik, Isfandiyor, Said uchalasi yo'l yurar edilar. Barzangilar mamlakatining qirq qaroqchisi bularga yo'liqdi. Qaroqchilar bularni tutib, podsholarining oldiga olib bordilar. Alarning yemagi — odam eti, ichmagi — odam qoni edi.

Podsho:

— Uchalasini ham o'ldiring! — deb buyurdi.

Sayfulmalik barzangilar podshosiga “o‘ldirma!” deb yalinib, besh kalima so‘z aytdi:

Qurboning bo‘layin, go‘zal podshohim,
O‘ldirib, qolmagin nohaq qonima.
Bir oh ursam, tog‘ni qulatar ohim,
O‘ldirib, qolmagin nohaq qonima.

Yetim aylab, solgin meni molingga,
Bir boshim qurbondir sening yo‘lingga,
Nechuk kelib tushdim sening yo‘lingga,
O‘ldirib, qolmagin nohaq qonima.

Ibrohimdek tushdim sening noringga,
Mansurdek chekildim nohaq doringga,
Bir shunqorday ilindim-a to‘ringga,
O‘ldirib, qolmagin nohaq qonima.

Shahzodaman, tushdim senga nogohdan,
Barcha ishlar erur qodir Xudodan,
Yolvormoq — gadodan, yolqamoq — shohdan,
O‘ldirib, qolmagin nohaq qonima.

Shohi Osim o‘g‘li Sayfulmalikman,
Bir yor uchun siynalari tilikman,
Men yorima yetmay endi o‘likman,
O‘ldirib, qolmagin nohaq qonima.

Alqissa, Sayfulmalik bu so‘zini tamom etgandan so‘ng, podshohning bir vaziri turib:

— O‘ldirmang! — deb podshoga tavallo qildi. Podsho vazirning tavallosini qabul qilib, bularni o‘ldirmadi va:

— Bularni qizimning yoniga olib boring, qizimga xizmat qilsinlar, — dedi. Andin so‘ng bularni podsho qizining yoniga olib bordilar. Qiz Sayfulmalikni ko‘rib, oshiq bo‘lib, yiqilib qoldi. So‘ng o‘ziga kelib, bir gap qildi, yigit javob berib turdi:

Qiz:
Ey yigit, sen bir Allohning haqi-chun,
Kelgin endi, nikohingga ol meni!
Muhammad mustafo shafqati uchun,
Kelgin endi, nikohingga ol meni!

Yigit:
Yigit aytar, qo‘ling uzgin bu ishdan,
Ont icharman, nikohimga olmasman.
Butparastsan, din-imoning boshqadir,
Kufr qizini nikohimga olmasman!

Qiz:
Otamning ganjini senga bag‘shlayin,
Tilladan bir baland saroy boshlayin,
Ont ichayin, o‘z dinimni tashlayin,
Nurbad omon, nikohingga ol meni!

Yigit:
Cho‘x g‘azal so‘ylaram yorning sha’niga,
Yetib bo‘lmas ta’rifining soniga,
Jahd aylab borarman yorning yoniga,
Inshaalloh, andin g‘ayri qolmasman.

Qiz:
Yigit, bir so‘zim bor, kelmasin qahring,
Kun-kundan sayrasin oh ila zoring,
Deyursan: “Yorim bor, meni qo‘yvoring”,
Kelgin endi, nikohingga ol meni!

Yigit:
Seni ko‘rgan bilan ko‘nglim hech jo‘shmas,
Bu gavhar nodonning qo‘liga tushmas.
Bulbul bilan qarg‘a jo‘r bo‘lmas, uchmas,
Yur, ey nodon, taklifingga bormasman.

Qiz:
Kanizakday xizmatingda turayin,
Otamdan, onamdan aziz ko‘rayin,
Otamning qirq xazinasin berayin,
Kel, ey yigit, nikohingga ol meni!

Yigit:
Mening yorim mening uchun cho‘x zordir,
Siynasida bitgan olmai nordir,
Xazina istasang otamda bordir,
Yur, ey nodon, taklifingga bormasman!

Qiz:
Bu mastona ikki ko‘zim yoshlading,
Ketar bo‘lding, meni yolg‘iz tashlading,
Olmas bo‘lsang nega uvol ushlading,
Kelgin endi, nikohingga ol meni!

Yigit:
Sayfulmalik aytar, bu ne xayoldir,
Yorim husni oyday, qaddi niholdir,
Mening yorim, bilsang, Mudhaljamoldir,
Sendek kanizakni ko‘za ilmasman!

Alqissa, bu so‘zlarini tamom qilganlaridan so‘ng, shoh qizi yigitlarni o‘ldirmoqchi bo‘ldi. Ammo Xudo taolo aning ko‘ngliga rahm-shafqat solib o‘ldirtirmadi. Bular qizga uch oy xizmat qildilar. Bir kuni yigitlar qochdilar. Ular sol ustida suzib borardilar. Suv ustida bir bo‘lak jinlar duch bo‘lib, bularni tutdilar. Ko‘p azob berdilar. Bular jinlarning o‘ngida ketib borarkanlar, Sayfulmalik besh kalima so‘z dedi:

Qayda borsam ranj-u balo
Ayrilmas bo‘ldi qoshimdan.
Falaklar larzona do‘nar
Mening o‘tli nolishimdan.

Vayron ko‘ngil obod bo‘lmas,
G‘anim hargiz hech shod bo‘lmas,
Menga hech bir imdod bo‘lmas,
El-kunim, qavm-u xeshimdan.

Hech kim mendek pari suymas,
Yorning ishqi meni qo‘ymas,
Mendan g‘ayri kimsa yemas
Og‘u qo‘shilgan oshimdan.

Yor sabr-toqatim oldi,
Furqat yo‘liga soldi,
So‘nalar keldi, g‘arq bo‘ldi,
Seldek oqqan ko‘z yoshimdan.

Yor tomon bora bilmadi,
Jamolin ko‘ra bilmadi,
Sayfulmalik, ayrilmadi,
Bir tuman mening boshimdan.

Alqissa, bu so‘zdan so‘ng jinlar ham bularni o‘z podsholari yoniga quvib, eltdilar. Podsho taxtidan tushib, bularni kutib olib, salom berdi va bularning xabarini olib, mehribonchilik ko‘rsatdi.

Sayfulmalik podshodan:

— Siz odam zotidan bo‘lsangiz, bu jinlarning orasida nima qilib podsho bo‘lib yuribsiz? — deb so‘radi.

Anda podsho:

— Jinlarning dasturi shundoq ermish, bular odamzoddan podsho tutarlar. Men o‘zim bir bekning o‘g‘li erdim. Shikorda kezib yurganimda bular meni tutib olib, bunda podsho qilib qo‘ydilar. Bu yerda podsho bo‘lib yurganimdan o‘z yurtimda gado bo‘lib yurganim yaxshi edi, — deb yig‘ladi. Ul podshoning bir it boshli qizi bor edi. Shu qizni Sayfulmalikka berdi. Sayfulmalik uch kechagacha qizning yoniga bormadi, ko‘ngil olishmadi. Sayfulmalik podsho-

ning yoniga kelib, “Meni shu it boshli qizdan qutqargin!” deb, bir so‘z aytdi:[1]

Eshitgin arzimni, go‘zal podshohim,
Kel endi, bu g‘amdan ozod et meni!
Bir oh ursam, tog‘ni eritar ohim,
Kel endi, bu g‘amdan ozod et meni!

Inson it yonida maskan tutarmi?
Oshiq bo‘lgan o‘zin itga sotarmi?
Bulbul bilan zog‘ bir yerda yotarmi?
Kel endi, bu g‘amdan ozod et meni!

Ruxsat ber, ketayin yorning yo‘liga,
Tez yetayin bog‘i Eram eliga,
Bir shunqorman, tushdim sening qo‘lingga,
Kel endi, bu g‘amdan ozod et meni!

Odil shohlar g‘ariblarga daldadir,
Men bilmasman, yorim nechuk holdadir,
Onam yig‘lar, otam ko‘zi yo‘ldadir,
Kel endi, bu g‘amdan ozod et meni!

Koshki tug‘ilmagan bo‘lsam, ilohim,
Bir oh ursam, ko‘kka tegadi ohim,

---

[1] Shu epizod dostonning boshqa bir qo‘lyozmasida shunday berilgan: “Roviylar andoq hikoyat qilarkim, Xalap degan bir viloyat bor erdi. Jamoati kechasi it, kunduzi odam shaklida yurar edi. Ul viloyatda it boshli podshoning bir qizi bor edi. Xushro‘ylikda hech kim anga barobar kelolmas edi. Podsho Sayfulmalikka: “Senga shu qizni olib berayin” dedi va nikoh qilib, Sayfulmalikka topshirdi. Sayfulmalik podshoning ko‘ngli uchun qabul qildi. Ul qiz kechalari it, kunduzi odam shaklida yurar edi. Qiz:

— Ey Sayfulmalik, bir oh jigargohingdan tortding, yer-u ko‘k larzaga keldi! — dedi.

Shu payt Said:

— Bu yerdan ketaylik, podshoga arz etaylik, ruxsat bersin, bo‘lmasa uchovimizni ham bular o‘ldirar! — dedi. Sayfulmalik podshoga borib bir so‘z dedi.

Sayfulmalik aytar, go‘zal podshohim,
Kel endi, bu g‘amdan ozod et meni!

Adqissa, Sayfulmalik so‘zini tamom etdi. Podshoh bularga ruxsat berdi. Sayfulmalikka qarab:

— Ey Sayfulmalik, Eram bog‘i bu yerdan uch yarim yillik yo‘l turar, uch yili dengiz bilan, yarim yili tuz bilan! — deb, bir kemaga uch yillik oziq solib, bularni yo‘lladi. Bular uch yillab dengizda yo‘l yurdilar. Nogahon bir yerga yetganlarida, qibla tarafdan bir to‘fon paydo bo‘ldi. Olam zilzilaga tushdi...

Sayfulmalik to‘nini yopinib yotdi. Bir zamondan ko‘zini ochsa — kema halokatga uchragan emish. Said bilan Isfandiyor bir taxtaning ustida, o‘zi bir taxtaning ustida yotgan emish. Qazoyi taqdirga bo‘ysunib, ularning har biri har yoqqa ketdilar[1].

Endi so‘zni yana Sayfulmalikdan eshiting. Sayfulmalikning bir o‘zi bir taxtaning ustida ketib borar edi. Yuqoriga boqsa — ko‘k, oshoqqa (pastga) qarasa — suv. Shunda Xudodan madad tilab, Sulaymon payg‘ambarga yolvorib bir so‘z dedi. Ko‘r, boq, nimalar der:

Suv yuzinda bir taxtada qolmisham,
Yo Sulaymon, madad berar kuningdir!
Men bir dardli edim, endi o‘lmisham,
Yo Sulaymon, madad berar kuningdir!

Mening bundan qutulmog‘im gumondir,
Dunyo mana shu kun oxirzamondir.
Ustim — osmon, tagim — tubsiz ummondir,
Yo Sulaymon, madad berar kuningdir!

Suv yuzinda taxta mening, sol mening,
Qayg‘u bilan zabun o‘lmish hol mening,
Yopishibman, etak sening, qo‘l mening,
Yo Sulaymon, madad berar kuningdir!

[1] *Boshqa bir varianti:* “Bular uch yil yo‘l yurdilar. Suzib ketar ekanlar, yo‘lda bir shamol paydo bo‘ldi. Kema og‘di. Said, Isfandiyor suvga g‘arq bo‘ldilar (cho‘kdilar). Sayfulmalik bitta taxtaning ustida yolg‘iz qoldi...

Men bilmasman, Kun qayda-yu, Oy qayda,
O‘sib-ungan Vatan qaydadir, joy qayda,
Bir dengizga tushdim, qirg‘oq-soy qayda,
Yo Sulaymon, madad berar kuningdir!

Sayfulmalik, suv yuzida netaman?
G‘alat aylab, ne ish qildim, xato man,
Bir to‘lqin yetishsa, suvda ketaman,
Yo Sulaymon, madad berar kuningdir!

Alqissa, andin so‘ng taxtada necha ayyom o‘tdi. Nogoh bir yerga kelganida, ko‘rsa dengizning o‘rtasida bir daraxt bitmish, shoxlari osmon-falakka yetmish. Taxta borib, ul daraxtda qaror topmish. Sayfulmalik: “Bu daraxt suv ichida mador topmish, men ham mador toparman” deb yopishib, daraxtning boshiga chiqib, qaror topdi. Bir necha ayyom anda bo‘ldi. Kunlarning bir kuni g‘am bosib: “Chor atrofim suv bo‘lsa, endi men ham o‘likdirman” deb, Xudoga yolvorib bir so‘z aytdi:

Bir qulingman, rahm ayla men benavoga, yo rab,
Yeta bilmam tole’ga, uchsam havoga, yo rab,
Tegim tubsiz ummondir, tushsam oshoqqa[1], yo rab,
Rahmat ko‘zila bir boq baxti qaroga, yo rab,
Lutfing birla chiqargin meni qirog‘a[2], yo rab.

Jonim tandan chiqibdir, ma’zi quruq tilim bor,
Rohi ravon yurolmam, bir xoriston yo‘lim bor,
Bulbul bilan battolman, do‘st bog‘inda gulim bor,
Bundan qutulib bo‘lmas, endi menga o‘lim bor,
Lutfing birla chiqargin meni qirog‘a, yo rab.

Ne yerda mehnat bo‘lsa, keldi, menga jam’ bo‘ldi,
Bir kun ham shod bo‘lmadim, doim ishim g‘am bo‘ldi,
Zor yig‘ladim hamisha, yoqam choki nam bo‘ldi,

[1] **Oshoq** — past.

[2] **Qirog‘a** — qirg‘oqqa.

Qirq sonsiz boshim mudom, ishim-pesham shum bo‘ldi,
Lutfing birla chiqargin meni qirog‘a, yo rab.

Oshiq bo‘ldim men sanga, ayrilmadi malomat,
Dard-u alamdan o‘zga ko‘rmadim hech alomat,
Tubsiz dengizga tushgan qachon chiqmish salomat?
Qattiq kunga qolibman, pirim, sendan karomat,
Lutfing birla chiqargin meni qirog‘a, yo rab.

Sayfulmalik aytadir, sonsiz mening gunohim,
Tinmoq, qutulmoq yo‘qdir, qo‘l-oyog‘im guvohim,
Sendan o‘zga kimim bor, sensan pushti-panohim,
Bir shum tole’ bandaman, rahm aylagin, ilohim,
Lutfing birla chiqargin meni qirog‘a, yo rab.

Alqissa, Sayfulmalik yog‘ochning ustida qolaverdi. Yuqorini ko‘zlasa — ko‘k osmon, oshog‘ini ko‘zlasa — dengiz ko‘rindi. U g‘oyat mutaassir bo‘lib: “Ey poku parvardigor-o! Karim sen, rahim sensan! Ul yetti yuz yigitdan ayrildim, Said bilan Isfandiyordan ham ayirding. El-kun yo‘q, yema-ichma yo‘q. Shu yerda o‘ladigan bo‘ldim”, — deb, daraxtning ustida besh kalima so‘z aytdi:

Qodir Alloh, ne fe’limdan
Ochilmadi yo‘lim mening?
Endi bildim, yurmadi hech
Do‘stlar, shum iqbolim mening.

Bildimki, yor bog‘i uzoq,
Arzim eshitgin, ey Razzoq,
Tushdi oyog‘imga tuzoq,
Ochilmasdan yo‘lim mening.

Ustim — osmon, ostim — ummon,
Bo‘ldi g‘amdan dilim hayron,
Dod etarman, ayo Rahmon,
Nera yetsa, qo‘lim mening.

Ayrildim ulug‘ elimdan,
Hech kimsa bilmas holimdan,
Saidim ketdi qo‘limdan,
Ojiz tushdi holim mening.

G‘ussa tuxumin ekmakdan,
Ko‘zdan qonli yosh to‘kmakdan,
Kecha-kunduz oh chekmakdan,
Dol bo‘libdir belim mening.

Falak menga qaramadi,
Anga so‘zim yaramadi,
Yor ishqida sayramadi,
Lol bo‘libdir tilim mening.

Sayfulmalik, o‘pishmoqqa,
Yorim bilan quchishmoqqa,
Bir manzila yetishmoqqa
Yo‘qdir kema, solim mening.

Alqissa, Sayfulmalik so‘zini tamom qilgan edi, qudrati ilohiy bilan yog‘ochning ustiga bir qush kelib qo‘ndi. Sayfulmalik bu qushning oyog‘idan tutgan edi, qush qanot qoqib havoga ko‘tarildi. Hech qayerga qo‘nmasdan ikki kecha-kunduz uchdi. Oxiri Sayfulmalik qushga “qo‘ngin!” deb yolvorib, besh kalima so‘z aytdi:

Osmondan yerga qo‘ngin, qush, sen endi,
Haqning oti, Rahim, Rahmon haqiga.
Ummatining tavrin[1] najot aylagan
Ul rasuli faxri jahon haqiga.

Qardoshlari bilan ov qildi goh-goh,
Himmat sendan, Ya’qub o‘g‘li Yusuf shoh,
Surai “Tabarak”, “Yosin”-u “Toho”,
“Zabur”, “Tavrot”, “Injil”, “Furqon” haqiga.

[1] **Tavr** — bu yerda, xil, ko‘rinish, holat, harakat degan ma’nolarda.

Kel, qo‘n endi, bir Allohni suyarsan,
Maryam o‘g‘li Ruhullohni suyarsan,
Qirqlar piri Sulaymonni suyarsan,
Chiltan birla haftan, sixtan haqiga.

Yo Ayyub, yo Yunus — manzili daryo,
Ayo Shis, yo Idris, Jirjis-u Yahyo,
Tepasidan ari tushgan Zakariyo,
Ayo Muso, ibn Imron haqiga[1].

Sayfulmalik, din ishini bitirgan,
Zulfiqorin kufforlardan o‘tirgan,
Oshiqlarni murodiga yettirgan,
Haqning sheri Shohimardon haqiga.

Alqissa, Sayfulmalik so‘zini tamom etdi. Qush ani eltib, Qof tog‘ida tushirdi[2]. Sayfulmalik tog‘da zor-u sargardon kezib yurarkan, bir so‘z aytdi:

Tuganmas savdoga qoldim, yoronlar,
G‘am tumani ayrilmadi sarimdan,
Bir parining savdosida o‘rtandim,
Meni falak ayro soldi yerimdan.

Munglanib qolibdir yolg‘iz bu boshim,
Qani mening el-u kunim, qardoshim?
Yig‘lasam kim artar ko‘zdagi yoshim?
Hech imdod yetmadi do‘st-u yorimdan.

Yo‘ldoshim yo‘q, to‘g‘ri yo‘ldan ozarman,
Men bunda oh urib, yig‘lab kezarman,
Xabari yo‘q yorning oh-u zor bilan,
Kimga aytay bu nolai zorimdan.

---

[1] Bu yerda, Qur’onda tilga olingan payg‘ambarlar sanab o‘tilgan.

[2] Ba’zi qo‘lyozmalarda yog‘och ustidagi Sayfulmalikni Sulaymon alayhissalom qutqarib oladi.

Go‘yoki bo‘libman bir egasiz it,
Ota-onam menga berdilar o‘git.
Men sababli suvda yetti yuz yigit
Yo‘q bo‘ldi, yo tavba, bu shum korimdan.

Sayfulmalik aytar: sarg‘aysam, so‘lsam,
Firoqda o‘rtanib balki kul bo‘lsam.
Agar men yorimni ko‘rmayin o‘lsam,
Ilon, chayon paydo bo‘lar go‘rimdan.

Alqissa, bu so‘zni tamom etganidan so‘ng, Sayfulmalik bir chorboqqa duchor bo‘ldi, qopusini ochib, ichkariga kirdi. Shu yerda bir qora, quloqlari kulrang, tikka, tishlari oyboltasi kabi o‘tkir bir dev Sayfulmalikka siyosat qilib, qarshi oldi. Sayfulmalik ani qilichlashib[1] o‘ldirdi. So‘ngra, yana bir qopuni ochib, ichkariga kirdi. Qarasa, uyning ichida bir parivash qiz yotgan ekan. Sayfulmalik qizning qo‘lidan ushlagan edi, qiz uyg‘onib ketdi va Sayfulmalikning yuziga kulib boqdi.

Sayfulmalik undan:

— Ey qiz, nima uchun kulding, mening ustimdan kuldingmi? — deb so‘radi. Qiz:

— Bu uylar, bog‘lar devlarning makonidir, bu yerga hech odamzod qadam bosmas edi. Sen qanday qilib fe’ling ozib, adashib kelib qolding ekan, shunga hayron bo‘lib kuldim, — dedi. Shu yerda Safulmalik qizga bir necha savollar berdi, qiz javob qaytarib turdi.

Yigit:
Biruborim, bir Allohning haqi-chun
Kelgin, bu sirlarni menga qil bayon!
Tangrining qudrati ro‘y berib shu kun,
Men seni uchratdim bog‘da nogahon.

Qiz:
Otim Malikadir, aslim parizod,
Manzilim so‘rasang — Eram bog‘idir.

[1] Ba’zi qo‘lyozmalarda Sayfulmalik devni tosh bilan urib o‘ldiradi.

O‘n bir yilki, tushdim devning qo‘liga,
Siynam uzra ayroliqning dog‘idir.

Yigit:
Shuni aytib, ketdi aql-u xayolim,
Husni oydan yorug‘ qaddi niholim,
Bilay, tanirmisan Madhaljamolim,
O‘likmi, tirikmi — bormudir omon?

Qiz:
Shu savdoga tushdi mening bu jonim,
Nolishimdan arshga chiqar fig‘onim,
Madhaljamol — mening sutdosh dugonam,
Siynamni kuydirgan shuning dog‘idir.

Yigit:
Otam otin aytsam — Osimdir, podshoh,
So‘zlarim eshitsa, aylagay oh-voh,
Saidday do‘stimni g‘arq qildi daryo,
Bilmadim alardan bir zarra nishon.

Qiz:
Pari aytar, yotar edim bir zamon,
Bir dev kelib, olib qochdi nogahon,
Devlar dushman bo‘ldi otamga yomon,
Bir-birin o‘ldirar, shundog‘ yog‘idir?

Yigit:
Ota-onam anda yig‘ladi-qoldi,
Isfandiyor otlig‘ bir jo‘ram o‘ldi,
To‘rt yuzta kemamni daryo g‘arq qildi,
Ayrilmas sarimdan g‘ussai tuman.

Qiz:
O‘n bir yilki, shunda mening makonim,
Uyda qoldi bori asbob-do‘konim,

Ayriliq dardidan o‘rtandi jonim,
Kecha-kunduz chekkanim — dil ohidir.

Yigit:
Men yorim sha’niga g‘azal aytarman,
Sabr aylasam, do‘st qo‘lidan tutarman.
Devqo‘lidan seni ozod etarman,
Ma’lul o‘lma, qayg‘u chekma bir zamon.

Qiz:
Malika der, bundaliging bildirsang,
Dushmanni yig‘latib, do‘stni kuldirsang,
Aylanib-o‘rgilay, koshki, o‘ldirsang,
Rahm aylasang, bir muruvvat chog‘idir.

Yigit:
Shoh Osim o‘g‘liman, Sayfulmalakman,
Bir yor uchun mudom umri halakman.
Bilmasman, bir sho‘ri savdo, bo‘lakman,
Oqar ko‘zlarimdan qonli yosh ravon.

Alqissa, bu so‘zlarini qilganlaridan so‘ng Sayfulmalik bilan Malika ikkovlari aka-singil tutindilar.

Sayfulmalik:

— Seni olib kelgan devning nomi nima? — deb so‘radi.

Malika:

— Aning nomini Devasbat derlar, u tamomi devlarning podshohidir, — dedi.

— Hozir u qayerga ketgan?

— Devasbatning peshasi — olti kun mening yonimda, olti kun shikorda bo‘lur, — dedi Malika. Sayfulmalik qat’iy qilib:

— Sen endi g‘am yemagin, devni men o‘ldirurman, — dedi.

Malika:

— Nechuk o‘ldirursan?

— Ertaga dev kelganda sen uning oldiga chiqib, yuklarini tushirib, qo‘l-oyog‘ini uqalab, mehribonchiliklar qilgin. Agar

u boyakbor: "Sen bir yerdan o'zingga ermak topdingmi?" deb so'raydigan bo'lsa, sen unga: "Men otamdan, onamdan ayrilib, bitta seni kutib o'ltirurman. Endi sen menga bundoq achchiq so'zlarni aytadigan bo'lsang, mening holim ne kechur?" — deysan. Shunda aning senga rahmi kelur. Devning joni o'zining tanida emas, g'ayri yerda bo'lar. Andin so'ng sen devdan joni qayerdaligini so'raysan.

Bu so'zlarni Malikaga o'rgatib, Sayfulmalik o'zi pinhon bo'lib, yashirinib (bukib) yotdi. Uch kundan so'ng dev keldi. Malika devga peshvoz chiqib, "keldingmi, jonim?" deb, shirin gaplar aytib, yuklarini tushirib, qo'l-oyog'ini uqalab, mehribonchiliklar qildi.

Dev Asbet:

— Sen bir o'zingga ermak topdingmi? — deb so'radi. Anda Malika:

— Men otamdan, onamdan, elimdan ayrilib, bitta seni deb o'tiribman-ku! Agar sen menga bundoq tuhmat gaplarni aytsang, mening holim ne kechar? — deb yig'ladi. Devning anga rahmi keldi. Shunda malika devdan:

— Sening joning qayda? — deb so'radi.

Shunda dev:

— Qulzum daryosining bo'yi qirq qulochdir, daryoning tubida qirq quloch keladigan quduq bor. Shu qirq qulochlik quduqning tagida bir qizil sandiq bor. Uning ichida bir ko'k kaptar bor. Shu ko'k kaptar — mening jonimdir, anga odam bolasining qo'li yetmas. Magar Sulaymon payg'ambarning uzugi bo'lsa, jonim suv yuziga chiqar, — dedi. Andin so'ng Malika bilan dev ikkovi uxlashga yotdilar. Ammo deb uxlab, beixtiyor bo'lganida, Malika Sayfulmalikning yoniga kelib, devning joni qayerdaligini aytdi.

Sayfulmalik Sulaymon payg'ambarning uzugini daryoga tashlab, sandiqni chiqarishni hukm qildi. Sandiqning og'zini ochib ko'rsalar, bir ko'k kaptar uxlab yotgan erkan. Ul kaptarning kallasini kesdi[1]. Shu zahoti dev Asvat tog'ning bir bo'lagiday bo'lib,

[1] *Boshqa bir variantda:* "Sandiqning ichidan bir oltin qafas chiqdi. Uni ovora-ovora bo'lib sindirdi. Ichidan bir ko'k kaptar chiqdi. Ani tutib, ikki toshning orasida yanchdilar".

dumalab o'ldi. Andin so'ng Sayfulmalik: "Ey bevafo dunyo, sen hech kimga vafo qilmading!" — deb bir so'z aytdi:

Kimga vafo qilding, bevafo dunyo,
Avval boshda Odam Atoni netding?
Ul Odamning chap yonindan xalq bo'lgan
Xayrunnisa Momo Havvoni netding?

Odamdan so'ng yerin Shish nabi oldi,
Hobil Qobilini tosh bilan otdi,
Solihning tuyasi toshdan xalq bo'ldi,
Ko'zidan qon oqqan Yahyoni netding?

Fir'avn qahr ayladi, shahardan chiqdi,
Necha yil Shuaybning qo'yini boqdi,
Do'sti uchun Nil ostidan kez chiqdi,
Rabb erani degan Musoni netding?

Kufforlar yig'ildi tegra-tashiga,
Ari chekdi Zakariyo boshiga,
Aql yetmas Yaratganning ishiga,
Ikki teng bo'ldilar, sen ani netding?

Muhammad ummati aslimiz bashar,
Zotiga fikr etmang, aqlingiz choshar,
Otasi qirqinda, o'g'li yuz yashar,
Ul Aziz payg'ambar Eshonni netding?

Sayfulmalik, bu dunyoda kim qoldi?
Iskandar Zulqarnayn yer yuzin oldi,
Ne jononlar yer tagida qum bo'ldi,
Ul Muhammad rasulullohni netding?

Andin so'ng Sayfulmalik bilan Malika ikkisi qochib ketdilar. Bular borarkanlar, Malikaning ko'ngli xurram bo'lib, Sayfulmalikni ta'rif qilib, besh kalima so'z aytdi:

Shukur, Sayfulmalik bizni
Bu g‘amdan ozod ayladi.
Ul dev Asvatni o‘ldirib,
G‘amgin ko‘nglim shod ayladi.

Yavmi arosat kelguncha,
Isrofil surin chalguncha,
To oxirzamon kelguncha
O‘zina bir ot ayladi.

Alloh eshitsin ohini,
Haq yetirsin hamrohini,
O‘ldirib devlar shohini
Dev ahlini mot ayladi.

O‘n bir yil men bo‘ldim g‘arib,
Gul yuzim so‘ldi sarg‘arib,
Qiyomatlik bo‘layin deb
Ahd-u qasamyod ayladi.

Malika der: bizni ko‘rib,
Mening g‘arib holim so‘rib,
Uzukni suvga qo‘yvorib,
Bizga e’tiqod ayladi.

Alqissa, Malika bu so‘zini tamom etganidan so‘ng, ikkisi kecha-kunduzlab qochdilar. Yura-yura, Malikaning oyoqlari qavarib ketdi. Sayfulmalikning orqasiga yopishib avqot (tanaffus) etdi. Oxiri bir ulug‘ yo‘l ustiga borib, charchab, yiqilib qoldilar. Bularning yoniga ko‘p karvon kelib tushdi, hammasi qora kiyingan. Tamomi nimarsalari ham qora. Bu ikkisi karvonboshining oldiga bordilar. Sayfulmalik:

— Bu ne voqea, hamma nimarsalaringiz qora? — deb so‘radi.

Karvonboshi:

— Bizning podshomizning bir qizi bor edi, ismi Malika edi. Ul qiz yo‘qolganiga ko‘p vaqtlar bo‘ldi. Uning motamiga shunday

kiyinganmiz, — deb javob berdi. Bular, karvon — Malika otasiga tegishli ekanini bilib, ko‘p hushhol bo‘ldilar.

Sayfulmalik:

— Endi sizlar motam tutmang, qora kiymang. Men Malikani devdan olib qaytdim, ani Devasvat olib ketgan ekan. Mana shu turgan Malikaning o‘zidir! — dedi. Karvonboshi bundan ko‘p shod bo‘ldi.

Alar bu ikkisini ikki tuyaga mindirib, olib ketdilar.

Malikaning otasi Rabbi Malik podshoning viloyatiga bir manzil yo‘l qoldi. Malika karvonboshiga:

— Otamga borib, bizdan xabar yetkaz! — dedi. Karvonboshi podshoning yoniga borib bir so‘z aytdi:

Eshit arzim, podshohim,
Cho‘x oh-u zorlaring keldi.
O‘n yildir, ayro tushgan
Bir g‘arib nochoring keldi.

Ochilibdir bog‘liq baxti,
Bunyod bo‘ldi kulli taxti.
O‘n besh yoshda ayni vaqti,
Bir fasli bahoring keldi.

Ayroliqdan bag‘ri kabob,
Olgin endi mendan javob.
Jamoli misli oftob,
Bir chashmi xumoring keldi.

Qolmadi siynatda dog‘ing,
Ochildi boqiy bulog‘ing.
Ajab tar g‘unchali bog‘ing,
Ul guli-gulzoring keldi.

Podshohim, eshit so‘zi,
Mohi munavvardir yuzi,
Misoli jalloddir ko‘zi,
Bir chashmi xunxoring keldi.

Bozirgon der, eshit so‘zim,
Malikani ko‘rdi ko‘zim,
Tushdi oy yuziga yuzim,
Bir zulfi totoring keldi.

Alqissa, Bozirgon bu so‘zini tamom etganidan keyin, Rabi’ Malik podsho Bozirgonga bir ot berdi. Andin so‘ng podsho lashkarini yig‘ib, Malikaning kelganiga xushvaqt bo‘lib, o‘n kun to‘y bo‘lib, Xudoyi tarqatdi. So‘ng Rabi’ Malik Malikaning yoniga kelib, ani shahar tashqarisidagi boqqa olib borib, boshidan o‘tganlarini so‘radi:

— Seni olib ketgan kim edi? Keltirgan kimdir?

Malika:

— Ey ota, albatta men yuz dardga duch bo‘ldim. Meni keltirgan yigitning xabarini olib, sarpo kiydirib, xush qilmadingizmi? — dedi. Rabi’ Malik Sayfulmalikning yoniga kelib:

— Menga xabaringni ber (o‘zingni tanishtir), — dedi. Anda Sayfulmalik javob berib, boshidan o‘tganlarni aytib, podshoga qarab besh kalima so‘z aytdi:

O‘n ikki yil bo‘ldi, Misr yurtidan
Falak bizni quvib judo ayladi.
Men o‘sha vaqt Misr elida shoh edim,
Endi taqdiri haq gado ayladi.

Bir sirga o‘g‘radim, beg‘am yotirdim,
Said otli bir jo‘ramni yitirdim.
To‘rt yuzta kemamni suvga botirdim,
Naylay, taqdiri haq gado ayladi.

Orzu aylar meni Misrning eli,
G‘am bila bukildi otamning beli.
Misr elining xoni, begi, vakili,
Haq amri-la bizni qazo ayladi.

Osim podshoh edi otamning oti,
Onam Guljamila chekar faryodi,

Otam ermish Yaman Sulton domadi[1]
Bu so‘zni deb oh-u nido ayladi.

Sayfulmalik derlar otamo mening,
Madhaljamol derlar yorima mening,
Ota-onam yondi o‘tima mening,
Nolishimdan tog‘lar sado ayladi.

Alqissa[2], Sayfulmalik bu so‘zni tamom qilganidan so‘ng, Rabi’ Malik ani bir yurtga podsho qilib belgiladi. Bir kuni Sayfulmalik o‘tirib, Saidni yodiga olib, yig‘lab yubordi. Sayfulmalikni yig‘laganini Malika ko‘rib, sahroga chiqib:

— Ey karamli podsho, Said do‘sting o‘lik bo‘lsa, jon bersang, tirilar, shu bugun diydoriga yetarsan! — deb, Xudoga nolish qildi. Malikaning duoyi iltijosini Xudo taolo qabul ayladi. Bir kuni Said yetishdi.

Sayfulmalik Saiddan:

— Mendan ayrilganingdan keyin boshingdan ne ishlar kechdi? — deb savol so‘radi, Said javob berib turdi:

Sayfulmalik:
Qurboning bo‘layin, Said vazirim,
Ne ish tushdi bosha, bayon aylagin.
Tangri seni menga qaytadan berdi,
Ne ish tushdi bosha, bayon aylagin.

---

[1] **Domad** — kuyov.

[2] Ba’zi qo‘lyozmalarda shu o‘rinda shunday epizod ham bor: “Andin so‘ng podsho bu javobni eshitgach, “qizimga munosib yigit ekansan” deb, otiga minib, ravon bo‘ldi. Shaharga kelgach, podsho: “Ey Sayfulmalik, ul ko‘ringan Malikaning bog‘idir. Shaharni xohlamasang, biz bilan yur. Sahroni havolasang, bog‘da bo‘l!” — dedi. Sayfulmalik “Sahro yaxshi!” dedi. Podsho Sayfulmalikni Malikaga topshirdi. Malika Sayfulmalikni ovga chiqarib, “Ko‘ngling ochilsin!” deb, shikorga yubordi.

Endi Saiddan so‘z eshiting. Said taxta ustida borib, bir shahardan chiqdi. Alg‘araz, shu atrofda yurgan barzangilarga uchradi. Ko‘rmagan azoblarini ko‘rib, qo‘shilib kelayotgan edi, Sayfulmalikka uchradi. Ikkovi ko‘rishdilar”.

Said:
Qurboning bo‘layin, go‘zal podshohim,
Barzangilar kelib, tashim[1] oldilar.
O‘zim urib, qo‘l-oyog‘im bog‘labon,
Eltib meni yana suvga soldilar.

Sayfulmalik:
Bir daraxt uchradi, o‘zim yopishdim,
G‘ayrat etdim, qo‘llarimni qovshirdim.
Malikani otasiga topshirdim,
Sen ham ko‘rganingni bayon aylagin.

Said:
Barzangilar menga ayladi qahr,
Yeganim — og‘udir, ichganim — zahar,
Uch kundan so‘ng bir zarra nahar[2]
Qochar deb oyog‘im mahkam qo‘ydilar.

Sayfulmalik:
Qahba falak qalamini ters chaldi,
Shukrillohkim endi Saidim keldi,
Malika bizlarga yaxshilik qildi,
Sen ham ko‘rganingni bayon aylagin.

Said:
Tavakkal ayladim, bir kecha qochdim,
Kecha-kunduz yurib, ko‘p tog‘lar oshdim,
Andin so‘ng bir bo‘lak devlara tushdim,
Alar ham bir qafas ichra soldilar.

Sayfulmalik:
Sayfulmalik aytar, cho‘x ish bitiring,
Yorligimiz parizoddan o‘tiring,
Qayg‘u chekmang, murodga ham yetiring,
Ne istaging bordir, bayon aylagin.

[1] **Tashim** — atrofimni o‘rab oldilar.

[2] **Nahar** — nahorda, ertalabki ovqat, degan ma’noda.

Said:
Said aytar, dushman birla duchlashdik,
Zolim barzangining qo'liga tushdik.
Shukrillohkim, ayroliqdan qovushdik,
Raqiblarning yuzi qora bo'ldilar.

Alqissa, Said, Sayfulmalik bu so'zlarni aytib bo'ldilar.

"Malikani ko'raylik" deb, Madhaljamol qirq kanizi, doyasi bilan keldi. Madhaljamol Malika bilan ko'rishib, xushvaqt bo'lib o'tirdilar.

Malika:

— Ey Madhaljamol, sen Sayfulmalikka tekkin! — dedi. Bu gapga Madhaljamolning qahri kelib:

— Sayfulmalik — bir odamzod. U tuproqdan, men o'tdan ungan parizod bo'lsam, u mening tengim, loyig'im emas! — deb Malikaga gap qildi. Shunda ham Malika Madhaljamolga yuz tutib, "Sayfulmalikka tekkin!" deb, tavallo qilib, besh kalima so'z aytdi:

Ota-ona, el-avloddan
Sening uchun ayrilgandir.
Tilla saroy, oq o'tovdan
Sening uchun ayrilgandir!

Xabar ol oh-u zorindan,
Kechibdir nomus-orindan,
Og'ir xazina — barindan
Sening uchun ayrilgandir.

Turli ma'rifat sochayin,
Kafan to'nini bichayin,
Ishonmasang, ont ichayin,
Sening uchun ayrilgandir.

Malika der ko'ngil olib,
Bu g'ariba rahm qilib,

O‘n uch yildir, gado bo‘lib,
Sening uchun ayrilgandir[1].

Alqissa, Malika so‘zini tamom qildi, Madhaljamol aning so‘zini qabul qilmadi. U “tashqarida yurgin!” deb quvlab, ko‘p so‘kdi. Malika Sayfulmalikning yoniga borib, aytdi:

— Men Madhaljamolga sening so‘zlaringni aytdim, qabul etmadi. “U — tuproqdan ungan odamzod bo‘lsa, Men — o‘tdan yaralgan parizod bo‘lsam, men uning tengi, loyig‘i emasman” deydir.

Sayfulmalik dedi:

[1] Qo‘lyozmalarning birida bu epizodning shunday bir varianti bor: “Bad’al-jamol (Madhaljamol) otasidan ruxsat olib, Malikani ko‘rmakka keladi. Ularning oldiga Malika qorovul yuboradi. Qorovul Madhaljamolning kelayotganidan Malikaga xabar beradi. Malika Sayfulmalikka: “Madhaljamol kelur, men aning oldiga chiqaman. Parizod odamni hurkadi”, deb, Madhaljamolning oldiga chiqib, Sayfulmalikni ta’rif qilib, shu so‘zlarni aytadi:

Opajon, bir yigit Misr elidan
Seni deb, bu makona kelibdir.
Tilla saroyindan, oq o‘tovidan
Sevgilim deb yona-yona kelibdir.

Xabar olgin aning oh-u zorindan,
Sen uchun kechibdir kulli borindan,
Og‘ir xazinadan, bari-barindan,
Jondan kechib, oshig‘ina kelibdir.

Arzini eshitgin aning tilindan,
Sen deya kechibdir o‘ba-elindan,
Bek-u podishodan, xon-u qulidan,
Yorin tashlab, ul ravona kelibdir.

Amr aylabon gulgun sharob ichmoqqa,
Oshiq kerak mol-u jondan kechmoqqa,
Sevgilining nozik belin quchmoqqa
Jannat deya, jovidona kelibdir.

Malika der, uzoq yo‘llardan oshib,
Kechalar tinmasdan qaynabon-jo‘shib,
O‘n uch yildan beri o‘rtanib-pishib,
Jon bermoqqa ul qurbona kelibdir.

— Sen shu yerda o‘tir, men o‘zim u bilan gaplashayin.
— Joningga xavfing kelsin, seni taqiq o‘ldirur!
— Meni Sadhaljamol o‘ldirsa ne armondir!
Shunda Malika:
— Bormagin, u seni o‘ldiradi, — deb yig‘ladi. Sayfulmalik:
— Sen menga bir oq fotiha bergin! — dedi.
Malika beiloj qolib:
— Xudo yoring bo‘lsin! — deb, zor-zor yig‘lab, besh kalima so‘z aytdi:

Haq panohinda asrasin
Ul rahim-u rahmon seni.
Tortar tuproq, chekar g‘aming,
Qo‘ymas ajal zamon seni.

Oshno tutding sen yotlarni,
Vayron etding obodlarni,
Borsang, o‘ldir jallodlarni,
Qo‘yvormaslar omon seni.

Yor bilan safo surar deb,
Bir toza majlis qurar deb,
Yanada meni ko‘rar deb,
Etmagayman gumon seni.

So‘ldi endi umring guli,
Uchirma bog‘dan bulbuli,
Tegar senga ajal yeli,
Urar bodi xazon seni.

Malika der, amr — Allohdan,
Yuraging berkdir noladan,
Saqlasin yuz ming balodan,
Ul shohi Sulaymon seni.

Alqissa, Malika bu so‘zni aytgandan so‘ng, Sayfulmalik yuziga parda chekib, qo‘liga dutorini olib, Madhaljamolning yoniga ketdi.

Endi xabarni Madhaljamoldan oling. U Malikaning so‘ziga achchig‘i kelib, “xayfki, dugonamsan, yo‘qsa, meni bir odamzodga loyiq ko‘rganing uchun boshingdan po‘stingni shilar edim”, deb ketadigan bo‘ldi.

Kanizlari:

— Ey Madhaljamol, avval kelmaslik kerak edi, endi qaytib ketma, u bir odamzod bo‘lsa, bizni ko‘zi birla qisa bilmas. Agar beadab bo‘lsa — aning piri tayoqdir. Bog‘ni sayr etaylik, andin so‘ng ketarsan! — dedilar.

Madhaljamol yuziga to‘qqiz qavat qilib parda tutdi. Shu payt Sayfulmalik ham boqqa kirib keldi. Unga Madhaljamolning ko‘zi tushdi. “Ul yurgan chi koradir?” deb kanizlariga aytdi. Kanizaklarining har birida quloch yarim tayoq bor edi. Madhaljamol “uringlar” degach, ular Sayfulmalikni ancha urdilarki, dodini Xudo bersin. Shul payt Sayfulmalik kanizlarga “Ey singillarim, endi urmanglar” deb, yolvorib, zor-zor yig‘lab, bir so‘z aytdi:

Arzim eshit, ey kanizlar,
Meni urmang, jigi-jigi.
Bir musofir edik bizlar,
Meni urmang, jigi-jigi.

Tayoq zahmi o‘tdi tandan,
Men rozi emasman sandan,
Ne yoziq topdingiz mandan,
Meni urmang, jigi-jigi.

Aqlim ketdi, hushim ketdi,
Zahmi xo‘p jonimdan o‘tdi,
Bekangizga xabar yetdi,
Meni urmang, jigi-jigi.

Qirqi qirq yerdan dog‘ soldi,
Badanlar jarohat oldi,
Jon chiqmoqqa yaqin qoldi,
Meni urmang, jigi-jigi.

Sayfulmalik qilar taajjub,
Oshiqning yo‘qdir iloji,
Et shirindir, tayoq achchiq,
Meni urmang, jigi-jigi.

Alqissa, Sayfulmalikning bu so‘zini eshitib Madhaljamol “urmang” deb ishora qildi. Kanizlar turdilar. Madhaljamol “Oshiq orsiz kerak” deb, hovuzning boshiga borib o‘tirdi. Sayfulmalik aning qarshisida o‘tirib, savol tashlab turdi, Madhaljamol javob berdi:

Sayfulmalik:
Qurboning bo‘layin, nozli parizod,
Kel, bir kecha meni mehmon aylagin!
Sening uchun chekdim oh ila faryod,
Kel, bir kecha meni mehmon aylagin!

Madhaljamol:
Basharmisan, hayvonmisan, nimasan?
Chekin bundan, xavfing kelsin joningga!
Jallodlar yig‘ilib, seni o‘ldirar,
Chekin bundan, xavfing kelsin joningga!

Sayfulmalik:
Sening uchun kezdim tog‘larda, tuzda,
Parim, o‘zing bilgin, ixtiyor sizda.
Ne gunoh, ne taqsir topdingiz bizda,
Kel, bir kecha meni mehmon aylagin!

Madhaljamol:
Ibrohimday seni otashga solsam,
Jirjis kabi seni yuz pora qilsam,
Sen bir gado bo‘lsang, men bir shoh bo‘lsam,
Chekin bundan, xavfing kelsin joningga!

Sayfulmalik:
Angla so‘zim, sening fahming yo‘qmidir,
Meni o‘ldirursan, vahming yo‘qmidir,

Shoh bo‘lsang, gadoga rahming yo‘qmidir?
Kel, bir kecha meni mehmon aylagin!

Madhaljamol:
Ey yigit, qolmagin oh bila zora,
Bu yerda topilmas dardingga chora,
Mansuri Xallojdek chekurman dora,
Chekin bundan, xavfing kelsin joningga!

Sayfulmalik:
Harna jabr aylasang — tutarman sabri,
Topilmas bu yerda g‘aribning qabri,
Oshiqqa rohatdir ma’shuqning jabri,
Maskanimni choh-u zindon aylagin!

Madhaljamol:
Hukm aylasam tog‘-u toshni yiqarman,
Ko‘p lof etma, qahrimni men to‘karman,
Boshing kesib, loshing o‘ta yoqarman,
Chekin bundan, xavfing kelsin joningga!

Sayfulmalik:
Sayfulmalik aytar, suraylik davron,
Qochib bo‘lmas agar yetishsa farmon.
Ey yor, sening jafong — dardima darmon,
Kel, bir kecha meni mehmon aylagin!

Madhaljamol:
Madhaljamol aytar, arzing bilarman,
Odamzodni nechuk mehmon qilarman,
Parilarning ta’nasiga qolarman,
Chekin bundan, xavfing kelsin joningga!

Alqissa, Sayfulmalik va Madhaljamol birlan bu so‘zni aytishgandan so‘ng, yuzidan pardasini oldi. Sayfulmalikning yuzini ko‘rgach, Madhaljamol beixtiyor oshiq bo‘lib, yiqildi va behush

bo‘lib yotdi. Safulmalik aning yuziga uch bora nazar soldi. Andin so‘ng Malikaning yoniga qaytdi.

Sayfulmalik dedi:

— Madhaljamol meni o‘ldiraman deb siyosat qildi. Men aning siyosatlaridan qo‘rqmadim. Oxiri yuzimdan pardani oldim. U menga oshiq bo‘lib yiqildi. Endi u mening izimdan kelmasa, men Madhaljamol deb uzatgan oyog‘imni yig‘masman!

Sayfulmalik shunday deb, bir chiroyli qasrning ichida yotdi. Andin so‘ng Madhaljamol o‘ziga kelib, yuzini yirtib, sochini yoyib, yoqasini chok etib, Malikaga:

— Ey Malikajon, men noma’qul ish qilib qo‘ydim. Sayfulmalik do‘stingni bu yerga keltir endi, — dedi:

Qurboning bo‘layin, Malika xonim,
Rahm aylagin, so‘rgin mening holimni.
Bilmaslikdan aytdim bir necha so‘zlar,
Baxsh ayladim, kelsin, bosh-u molimni.

Bir taqsirim bordir, yor kelib kechsin,
Nasihatim budir: kelsin-u quchsin,
Alifdek qomatim, inja bel uchun
Yor ko‘rmasa nechuk mening holimni.

Jonim fido bo‘lsin qadam yo‘liga,
Baxsh aylayin tanim, netsa, mayliga,
Chirmashsin u yorning inja beliga,
Bog‘bon bo‘lsin, tersin toza gulimni.

Ko‘p pushaymon bo‘ldim aytgan so‘zimdan,
Nurbad omon, tash ketmasin ko‘zimdan,
Quchoqlab bo‘ynimdan, o‘psin yuzimdan,
Emaversin labim uzra bolimni.

Budir mening shahar, vatan, makonim,
Ko‘nglimning oromi, dini-imonim,
Madhaljamol aytar: Malika jonim,
O‘ldirsa, olmasman yordan qo‘limni.

Alqissa, Madhaljamol bu so‘zini tamom etgandan so‘ng, Malika:

— Sen shu yerda o‘tir, men Sayfulmalikni boshlab kelaman, — dedi.

Madhaljamol:

— Tezroq keltir, yo‘qsa jonim chiqib, yuragim yorilar, — dedi. Malika borsa, Sayfulmalik hujra ichida uxlab yotgan ekan. Malika Sayfulmalikning bosh uchiga borib, ani uyg‘otmoq bo‘lib, bir necha so‘zlar aytdi:

Uyg‘on, Sayfulmalik, uyg‘on!
Yorim beri kelsin dedi.
Chiqarsin ko‘nglindan fikrin,
Tavallamni olsin dedi.

Urdi bosha mehnat toshin,
Uchirmasin ko‘ngil hushin,
Men G‘aribning ko‘zda yoshin
Rahm aylab,
to‘kmasin, dedi.

Do‘st baxtini istar sendan,
Bormasang, jon chiqar tandan,
Ne maqsadi bo‘lsa, mendan
Uyalmasin, olsin dedi.

Kelsin tomosha o‘ynima,
Kirsin mevali qo‘ynima,
Ikki qo‘lini bo‘ynima
Aylantirib, olsin dedi.

Sevimli yor yig‘lamasin,
Qora baxtim bog‘lamasin,
O‘zgalarni chog‘lamasin,
Xurram bo‘lib kulsin dedi.

Malika der tildan tila,
Yuzi mengzar qizil gula,
To o'lguncha bizing bila
Bir xilvatda bo'lsin dedi.

Alqissa, Malika bu so'zini tamom qilgach, Sayfulmalik uyg'ondi va shunday dedi:

— Ul pari g'alat aytibdir. Men shu pari qizin deb ota-onamni yig'latib, yetti yuz yigitning qoniga, umriga, o'limiga sababchi bo'lib, o'n uch yillab jafo chekib keldim. U esa mening sadoqatimni bilmadi, men ham qo'l tortdim ul bevafodan! — deb, bir so'z aytdi:

Qo'lim tortdim bevafodan,
Men ketarman elga, beklar.
Mojaro bo'ldim olamga,
Tushdim tildan tilga, beklar.

Bulg'andim g'amning gardiga,
O'rtandim hijron dardiga,
Ketarman Misr yurtiga,
Men ketarman elga, beklar.

Uyida kelsa qah(a)ri,
Axir nechuk chekar zori,
Mudom raqibning xumori
Sher qilar do'st bilan, beklar!

Tutmasman qo'sha norindan,
Kechmisham guluzorindan,
Kishi bevafo yorindan
Qiyilarmi bo'yla, beklar.

Sayfulmalik, fahm etmadi,
Nolishimdan vahm etmadi,
Bevafo yor rahm etmadi,
Men musofir qula, beklar.

Alqissa, bu so‘zni Sayfulmalik aytganidan so‘ng, Malika turib ketaverdi. Madhaljamol yoniga kelib:

— Baxtingga qora chekildi, Sayfulmalik sendan o‘pkalab ketmoqchi bo‘layapti! — dedi. Bu so‘zni eshitgan Madhaljamolning joniga o‘t tushib, yuragi yorilib, Sayfulmalikning yoniga keldi va yig‘lab-yolvorib, bir so‘z aytdi. G‘azali Madhaljamol bu turur:

Gina qilma mening hazil so‘zimni,
Qurboning bo‘layin, qayga ketarsan?
Bo‘yla qora qilma mening yuzimni,
Qurboning bo‘layin, qayga ketarsan?

Bu aziz tanimning shahri seniki,
Bu toza bog‘imning nori seniki,
Bitgan hosillarim bari seniki,
Qurboning bo‘layin, qayga ketarsan?

Yuz ishva-karashma, nozim seningdir,
Suhbatim, dutorim, sozim seningdir,
Bog‘ ichinda olma, yozim seningdir,
Qurboning bo‘layin, qayga ketarsan?

Madhaljamol aytar: sayraydi tilim,
Bog‘im ichra mening ochilmish gulim,
Emsangiz — labim bor, quchsangiz — belim,
Qurboning bo‘layin, qayga ketarsan?

Alqissa, Sayfulmalik Madhaljamolga:

— Senga nima kerak? — dedi.

Madhaljamol dedi:

— Mening keragim sensan!

Andin so‘ng Sayfulmalik aytdi:

— Ko‘p yolvording, mayli, sening gunohingdan o‘tayin!

Madhaljamol turib ta’zim qildi. Ikkisi qo‘lni-qo‘lga berib, quchishib, qirq kecha-kunduz tongning otganini, kunning botganini bilmay yotdilar. Andin so‘ng Madhaljamol:

— Odamzod ko‘p bevafo bo‘larmish, — dedi. Shunda Sayfulmalik yoriga vafodorligini bildirmoq uchun besh kalima so‘z aytdi:

Oh urib, bo‘lma ma’lul, jon zori, sendan kechmanam,
O‘zga yordan bo‘lmisham bezori, sendan kechmanam.
Yuzi gulgun, sochi gul, ruxsori, sendan kechmanam,
O‘zgalardan bo‘lmisham bezori, sendan kechmanam.

Ul Xalilulloh kabi o‘tga solib kuydirsalar,
Ham g‘azab birla mening ikki ko‘zim o‘ydirsalar,
Berahmlar chun Nasimiydek terim so‘ydirsalar,
Bu shirin jondan kecharman, yor, sendan kechmanam.

Chunki bundan o‘zga yerda istamasman suhbate,
Hech kima bermas Xudo chun menga bergan davlate,
Sen uchun ko‘p chekarmen dard-u hijron, mehnate,
Jumla olamdan kecharman, yor, sendan kechmanam.

Bir necha kun yig‘labon, istar edim sendan xaray[1],
Aylamam sabr-u qaror gar solsalar tilla saroy,
Magar ayro solsa sendan meni bir kun ul Xudoy,
Jumla olamdan kecharman, yor, sendan kechmanam!

Alqissa, bu so‘zni Sayfulmalik aytgandan so‘ng, Madhaljamol ishondi.

Kunlardan bir kuni Madhaljamolning enagasi Gulza’faron “Malikani ko‘rayin, ham Madhaljamolni olib kelayin” deb, shohdan ruxsat tilab, hassasini qo‘liga olib, belini bukib, merganchilab[2] yo‘lga ravona bo‘ldi. U kelib, Malika bilan so‘rashdi. “Madhaljamol qani?” dedi. Malika “Ko‘shkning ustida yotibdi” dedi. Enaga bu so‘zni eshitgach, qo‘liga hassasini olib, ko‘shk tomon yurish qildi.

Madhaljamol qarasa, enaga bu tomonga kela turur. U Sayfulmalikka:

[1] **Xaray** — madad, kuch, umid, ilinj degan ma’nolarda.

[2] **Merganchilab** — mergan kabi mo‘ljal olib, degan ma’noda.

— Anov kelayotgan mening enagamdir. Sen shu yerda tur. Men enamga bir necha so'zlar aytib, aldab, qaytarib yuborayin! — dedi. Andin so'ng Madhaljamol enagasining oldidan chiqib, yuzini yirtib:

— Malikaning kelgani qursin! — dedi.

— Ha, nima balo bo'ldi?

— Sayfulmalik degan bir odamzod menga oshiq bo'lib kelibdir. Men ani ko'rib oshiq bo'libman, — deb Sayfulmalikning ta'rifini qildi. Anda enagasi:

— Ey qizim, sening yuzing Hindistonning olmasi kabi erdi, za'faron kabi so'libdir. Endi sen qayg'u chekma, oshig'ingni keltir, men ham ko'rayin, yaxshi yigit bo'lsa, otang musulmonchilik yo'li birla nikoh qilib bergay! — dedi. Madhaljamol kelib, Sayfulmalikni enagasining yoniga olib bordi. Enaga kampir Sayfulmalikni ko'rib, anga oshiq bo'lib, bir so'z aytdi:

Musulmon yurtidan kelgan odamzod,
Xush kelibsan bizning ela, sultonim!
Seni ko'rib kechdim kulli borimdan,
Rahm ayla xursand qila, sultonim!

Seni ko'rib tushdim qayg'uga, yasga[1],
Sirim fosh ayladim dushmanga, do'stga,
Qizil yonoqlardan bergin bir bo'sa,
Uch bukilib qaddi dola, sultonim!

Tutarman etaging, ayrilmam sendan
Kel, bir dam rahm ayla jon chiqmay tandan,
Bir shavvozman, har ne topilar mendan,
Har ne maqsadingni tila, sultonim!

O'z yurtimda men ham sultonman, bekman,
Bular — kanizakdir, men-chi, buyukman,
Har ne o'n besh qizdan men o'zim egman[2],
Bog'bon bo'lgin toza gula, sultonim!

---

[1] **Yas** — motam, musibat, qayg'uli holat.

[2] **Eg** — yaxshi, afzal (qadimiy turkiy so'z).

Podshodirman, raiyatim, elim bor,
Nazar ayla, qildan nozik belim bor,
Men bir bog‘bon, toza, tar, sunbulim bor,
Bulbul bo‘lib qo‘ngin gula, sultonim!

Gulza’faron aytar, holim parishon,
Yuzingni bir ko‘rib, bo‘lmisham hayron.
Inshaalloh, senga navbatdir, davron,
Kel aylanib necha bila, sultonim!

Enaga bu so‘zlarni tamom qilgach, Madhaljamol dedi:

— Ey, ena, tishing tushib, sochlaring oqarib, vaqting o‘tgandir sening. Ming gulimdan bir gulim hali ochilmagan deb maqtanasan, bu ishing qabohat-ku, axir, — dedi. Shunda Gulza’faron enaganing qahri kelib, “sen pari bo‘lsang, men ham parilar avlodidan edim, odamzodga oshiq bo‘lish biz parilarning qismati, shu yigitni mendan qizg‘anding, sening bu ishing qabohatdir! — deb, qizga siyosat qildi. Madhaljamol “Xom xayolga berilma!” deb enagasini noma’qul ishdan qaytarish uchun bir nimarsalar deb, izza qilib turdi, enaga ham qahr bilan javob berib turdi:

Madhaljamol:
Xom xayolga tushma, bunda,
O‘z yo‘lingga yurgin, qari!
Ketib qolmish yuzing nuri,
Oyna olib ko‘rgin, qari!

Gulza’faron:
Qiz bola, haddingdan oshma,
Inshaalloh, yo‘l meniki!
Dunyoga hukm aylarman,
Ra’iyat-u el meniki!

Madhaljamol:
Joningda yo‘qmi huzuring?
Kuyovga tushdi nazaring,

Qirq kechadan yo‘q xabaring,
Menga javob bergin, qari!

Gulza’faron:
Ochilgan siyoh baxtimdir,
Qurilgan tilla taxtimdir,
Haliyam qizg‘in vaqtimdir,
Guldan inja bel meniki!

Madhaljamol:
Qarilardir sening yoring,
Bu so‘zga kelmasin qahring,
Qani nomus ila oring,
O‘zingga tig‘ urgin, qari!

Gulza’faron:
Yoshlikdan avrab-saqladim,
Men seni yaxshi charxladim,
Enaga haqin oqladim,
Ul xonimon, mol meniki!

Madhaljamol:
Qari buncha yonib-pishmas,
Bo‘lmas ishga boshin qo‘shmas,
Kuyoving-ki, nikoh tushmas,
Osiy bo‘lma, turgin, qari!

Gulza’faron:
Gulza’faron, o‘zlarimda,
Xilof bo‘lmas so‘zlarimda,
Shams-u qamar yuzlarimda,
Mengli-mengli xol meniki!

Madhaljamol:
Dedi so‘zni Madhaljamol,
Yorim bilan qildim visol,
Qariniki ko‘hna xayol,
O‘z ishingga borgin, qari!

Alqissa, Madhaljamol bilan Gulza'faron bu so'zlarni aytganlaridan so'ng, enaga:

— Bu so'zlaring bilan Sayfulmalikdan qo'l uzib ketmasman. Men sening muhabbating chinmi yoki havasmi — shuni bilmoq uchun sinab aytgan edim. Endi men Sayfulmalikning oldiga borib, uni ham bir sinab ko'rayin qani, — dedi. Andin so'ng ular Sayfulmalikning oldiga borib o'tirdi va unga oshiq bo'lib qolganini aytdi[1]. Shunda Sayfulmalik enagaga bir pora maslahat berib, "Qari kampir, sening ishing qabohatdir", deb bir g'azal aytdi, g'azali Sayfulmalik bu turur:

Oqil bo'lsang ishoratga tushungan,
Sening qishing kelib, yozing ketibdir.
Bir paytlar sen so'na qo'ngan gul eding,
Endi qarg'a qo'nib, g'ozing ketibdir.

Kampir, sen oqizma ko'zdan yoshingni,
Urmagin boshingga mehnat toshini,
Uchiribsan yoshlik degan qushingni,
Qo'ldan qochib, bahri-bozing ketibdir.

Endi senga ajal domin quribdir,
Avvalda ul sening safong suribdir,
Kampir, sening baxting xazon uribdir,
Suhbat-u torlaring, sozing ketibdir.

Bulbuling uchibdir husn bog'ingdan,
O'rtanibdir joning hijron dog'indan,
Hey, xabaring bormi soching oqindan,
Dandoning tushibdir, ko'zing ketibdir.

Sayfulmalik aytar: rohating qayda?
Majlising, tomoshang, suhbating qayda?
Kampir, sening yoshlik lazzating qayda?
Taoming qochibdir, tuzing ketibdir.

[1] Ba'zi qo'lyozmalarda shunday yo'l bilan Sayfulmalikni ham sinab ko'rishni Malika maslahat beradi.

Alqissa, Sayfulmalik bu so‘zlarni aytib bo‘lganidan so‘ng, enaga:

— Men sizlarni sinagan edim, endi Shohiqbol shohning yoniga borib, ikkoving uchun oq yo‘l, fotiha olaylik, — deb yo‘lga chiqdilar. Bog‘i Eramga yetganlarida Sayfulmalik: “Men bu bog‘ni tomosha qilib, izingizdan boraman” deb, boqqa kirib ketdi. Sayfulmalik bog‘ ichida kezib yurgan edi, uning yoniga oltita dev yetib keldi. Ular Sayfulmalikni tutmoqchi edilar. Sayfulmalik alarga qarab bir so‘z aytdi:

Devlar, siz tashda kovlaning,
Zararim tegar sizlara.
Hazling bo‘lsa bizlar bilan,
Bog‘dan chiqarsiz tuzlara.

Men sizlarga sirim aytmam,
Bunday haromlikni suymam,
Etingizni yesam to‘ymam,
Bulbul — gula, gulyuzlara.

Dev ahli bu boqqa kelmas,
Bog‘ saylining qadrin bilmas.
Devning e’tibori bo‘lmas,
Ishonmam yolg‘on so‘zlara.

Bilganman devning ra’yini,
Sayl etdim dilbar joyini,
Yorimning xokipoyini
To‘tiyo qilam ko‘zlara.

Sayfulmalik der tilinda,
Qilich bog‘liqdir belimda,
Uzugi bordir qo‘limda,
Sulaymon yordir bizlara.

Alqissa, Sayfulmalik bu so‘zini tamom etdi. Devlar: “Biz sizga tegmasmiz” deb ont ichib, alar ichida Devajdar degani besh kalima so‘z aytdi:

Valloh, biz hech vaqt ham tegmasmiz siza,
Yigit, endi biza to‘g‘ri kel, to‘g‘ri.
Tutar gumon qilma, ishongin biza,
Yigit, endi biza to‘g‘ri kel, to‘g‘ri.

Qo‘rqmagin, biz sizga bermasmiz ozor,
Ont icharmiz ishonmasang sad-hazor,
Tegsak, tangri bo‘lar bizlardan bezor,
Yigit, endi biza to‘g‘ri kel, to‘g‘ri.

Seningdek bir yorda oh-u zorim yo‘q.
Bu vatanda manzilim yo‘q, dorim yo‘q.
Men ham sendek, nomusim yo‘q, orim yo‘q,
Yigit, endi biza to‘g‘ri kel, to‘g‘ri.

Dev ahlini bilsang, Sulaymon birdir,
Chaqirsa — qaytamiz, biza dastgirdir,
Valloh so‘zim birdir, iqrorim birdir,
Yigit, endi biza to‘g‘ri kel, to‘g‘ri.

Devajdar der: magar muruvvat chog‘i,
No‘sh etarman agar ne tutsa soqiy,
Ishon endi biza Sulaymon haqi
Yigit, endi biza to‘g‘ri kel, to‘g‘ri.

Alqissa, dev Ajdar bu so‘zini tamom etganidan so‘ng, Sayfulmalik ishonib, to‘g‘ri bordi. Devlar ani aldab tutib, qo‘llarini bog‘lab, zulm qilib, osmonga olib qochdilar.

Sayfulmalik osmon-falaklab borar ekan, devlarga yolvorib, bir so‘z aytdi:

Bizni olib qochgan dev, bizga bundoq kor etma,
Ishq mayidan ichmisham, meni badxumor etma,
Qahringni menga solib, jismimni afgor etma,
Panjangni qattiq qisma, jonima ozor etma.
Yorimdan yiroq solib, sevgilimga zor etma.

Men bir shahzoda edim, bor edi taxtim-tojim,
Xizmatimda ming g‘ulom sonsiz qilardi ta’zim,
Ishq dardiga uchradim, topilmadi ilojim,
Bog‘i Eramda qoldi shundoq nozik mijozim,
Yorimdan yiroq solib, sevgilimga zor etma.

Men bir dardli qul endi, bu dardim bo‘ldi besh-a,
Charxi falak jabr etib, ko‘zni to‘ldirdi yosha,
Yetolmadim muroda boshni ursam ham tosha,
Do‘stlar, burnim qonadi og‘zim yetganda osha,
Yorimdan yiroq solib, sevgilimga zor etma.

Ishq yo‘lida val-ayyom men ham Majnun misoli,
Pirim mening Sulaymon may berdi bir piyola,
Goh xud man, goh behudam, goh gadoman xiyola,
Toqqa dengiza urib, qolma yana uvola,
Yorimdan yiroq solib, sevgilimga zor etma.

Sayfulmalik aytadur: men bir baxti qoraman,
Dev qo‘lida mubtalo, bilmam qayga boraman,
Peshonamda ne bo‘lsa, iqbolimdan ko‘raman,
Tut qo‘limdan, Sulaymon, shu kun bir bechoraman,
Yorimdan yiroq solib, sevgilimga zor etma.

Alqissa, devlar Sayfulmalikning so‘ziga quloq osmadilar, maskanlariga borib qaror etdilar. Sayfulmalik bu yerda ham alarga, “Sulaymonni tilga olib ont ichgansizlar, ontingizdan topilib, meni ozod aylang!” deb, besh kalima so‘z aytdi. G‘azali Sayfulmalik bu turur.

Bir kun bizga uchradingiz,
Keling, bizni ozod aylang!
Sulaymonga so‘z berdingiz,
Keling, bizni ozod aylang!

Bu ish sizga emas himmat,
Aldab tutmoq — erur illat,

G‘animatdir, bu g‘animat,
Keling, bizni ozod aylang!

Bu shirin jonimga qizmang,
Muhabbat rishtasin uzmang,
Adab-iqroringiz buzmang,
Keling, bizni ozod aylang!

Beiqrorning qora yuzi,
Yorimning yo‘ldadir ko‘zi,
Mahshar kuni yo‘qdir so‘zi,
Keling, bizni ozod aylang!

Sayfulmalik der, bu yerda
O‘z tilimdan qoldim darda,
Bu ishlar yarashmas birda,
Keling, bizni ozod aylang!

Alqissa, so‘z shu yerda tursin. Endi xabarni Madhaljamol bilan enagadan oling. Alar Shohiqbol podshoning yoniga bordilar[1]. Anda Gulza’faron enaga dedi:

— Ey podshohim, Misr viloyatidan bir Sayfulmalik degan yigit Madhaljamolga oshiq bo‘lib kelibdir.

Shohiqbol dedi:

— Ey Madhaljamol, ul yigitni sen o‘zingga munosib ko‘rgan bo‘lsang, yaxshi. Sen ma’qul desang, men seni unga musulmonchilik yo‘li birlan uzatay.

Madhaljamol Malikaga:

— Ey Malika, borib Sayfulmalikni Bog‘i Eramdan keltirgin! — dedi. Malika borib, Sayfulmalikni Bog‘i Eramdan izlab, topmadi. U Madhaljamolning yoniga kelib, “yoringni topmadim”, deb, zor-zor yig‘lab, bir so‘z aytdi:

Ko‘zladim Bog‘i Eramni, oh-u zoring topmadim,
Joning ko‘rki, quvvating ham ixtiyoring topmadim,

[1] Ba’zi qo‘lyozmalarda Said va Malikaning ham birga borgani aytiladi.

Almudom ul saqlabon ganj uzra moring topmadim,
Dunyo ichra lazzating, kayfing, xumoring topmadim.
Ohkim, Madhaljamol, men nozli yoring topmadim.

Bilmadim, Yunus kabi daryoda baliq yutdimi?
Yo tutib Yusuf kabi biroz diramga sotdimi?
Bilmadim, Tohir kabi daryoda — suvga otdimi?
Yo dam-e, men bilmadim, bog‘ ichra devlar tutdimi?
Ohkim, Madhaljamol, men nozli yoring topmadim.

Yo esa barqi ajalga, bilmadim men, botdimi?
Ishq tumani boshidan yo serpilib, yo ketdimi?
Yo kezarda bog‘ ichinda g‘ayri dushman tutdimi?
Yoki odamzodlik ila va’dasin unutdimi?
Ohkim, Madhaljamol, men nozli yoring topmadim.

Ko‘rmadik yoring kabi bir booqil-u boadab,
Bo‘ldi ayroliq bugun, tangri sanga qildi g‘azab.
Bu uzun ayrolig‘a bo‘lgan ekan kimlar sabab?
Topayin deb yoringi yeldim, yugurdim har taraf,
Ohkim, Madhaljamol, men nozli yoring topmadim.

Topmadim deb bu Malika har zamon qildi nido,
Nolishimdan yetti qat, to‘qqiz falak qildi sado,
Yoringi sendan bugun taqdiri haq qildi judo,
Furqat ichra kuydirib, jabri sitam etdi ado,
Ohkim, Madhaljamol, men nozli yoring topmadim.

Alqissa, Malikadan bu gapni eshitib, Madhaljamol otasi yoniga borib, oh urib, “yorimni kimlardir tutib, olib ketdimi, hech qayerda yo‘q” — deb, besh kalima so‘z aytdi:

Bu ne sirdir, ko‘rinmading ko‘zimga,
Gul yuzli yor, ne savdoga duch bo‘lding?
Quloq solgin faryodima, so‘zima,
Gul yuzli yor, ne savdoga duch bo‘lding?

Yo bir bevafolik rasmin tutdingmi?
Bilolmadim, yiqildimi-yitdimi?
Yo bir haromidan zarar yetdimi,
Gul yuzli yor, ne savdoga duch bo'lding?

Seni topmay, men bu jonni naylayin,
Aysh-u ishrat shumi, ani naylayin?
Sen bo'lmasang, xonumonni naylayin?
Gul yuzli yor, ne savdoga duch bo'lding?

Bog' sayliga kirding, ko'ngil chog'lading,
Yo choha solinding yoki bog'landing,
Ayroliq dardida yonding, dog'landing,
Gul yuzli yor, ne savdoga duch bo'lding?

Madhaljamol aytar, bo'ldim ovora,
Yo Xalildek kofir otdimi nora,
Yo Jirjisdek seni qildimi pora,
Gul yuzli yor, ne savdoga duch bo'lding?

Alqissa, Madhaljamol so'zini tamom qildi. Shohiqbol podsho:

— Yana nima bo'ldi? — deb so'radi.

Madhaljamol:

— Mening yorim bog' saylida yurgandi, endi topilmayapti, — dedi. Podsho:

— U odamizoddir, qornini to'ydirib, biror joyda uxlab yotgandir? Axtaringlar! — deb buyruq berdi. Majhaljamol, Said, Malika yana bog'i Eramni axtardilar, ammo Sayfulmalikni topmadilar. Bular axtarib-kezib yurib, bir bo'lak odamlarga duch keldilar. Madhaljamol alarga qarab, "shoyad yorimdan bir xabar bilsalar" deb, so'roq solib, zor-zor yig'lab, bir nimarsalarni aytdi:

Yorim yitirmisham Eram bog'inda,
Ko'rgan-bilgan bormi, ayting, yoronlar?
So'roq solib chiqdim aning dog'inda,
Ko'rgan-bilgan bormi, ayting, yoronlar?

Qazo yetib, mavt sharobin ichdimi,
Yo boshqa yor topib, mendan kechdimi?
Yoki qanot bog‘lab ko‘kka uchdimi,
Ko‘rgan-bilgan bormi, ayting, yoronlar?

Izlasam, topilmas yorimning izi,
So‘roq solsam kerak qishi va yozi,
Bag‘rima o‘t solib, yondirdi bizi,
Ko‘rgan-bilgan bormi, ayting, yoronlar?

Madhaljamol deyar: bo‘ldim ovora,
Ishq xanjari qildi bag‘rimni yara,
Topmasam, chekilar baxtimga qora,
Ko‘rgan-bilgan bormi, ayting, yoronlar?

Alqissa, Madhaljamol so‘zini tamom etdi. Hech xabarini bilgan odam chiqmadi. Topilmayotganini shohga bildirib turdilar. Shohiqbol podsho: “Hamma Sayfulmalikni izlasin!” deb parilarni yig‘ib, barcha pari-parizodlarga buyruq berdi. Hamma ko‘zlamoqqa chiqdilar. Topolmasdan qaytib kelayotganlarida nogoh yo‘lda bir cho‘ponga uchradilar. Shohiqbol podsho andin ham so‘ragan edi, cho‘pon ko‘rgan-bilganlarini aytib, bir so‘z dedi:

Kun bugun olti sonli dev,
Bir odam olib qochdilar.
Qo‘lin-oyog‘in bog‘labon
Qalqib havoga uchdilar.

Olib keldilar ul tog‘a,
Eltib soldilar tushova,
Sayr etib yurgan bu bog‘a,
Nogahondan yopishdilar.

Kezdilar bog‘ni borlabon,
Bars-u yo‘lbarsni chorlabon,
Haybat qildilar gurlabon,
Havoga bulutday uchdilar.

Dard-u mehnat tayyor etib,
Azob-sitam bisyor etib,
Tegmasmiz deb iqror etib,
So‘ng so‘zlaridan kechdilar.

Cho‘pon deyar, tutib motam,
O‘sha dardlardan chekdim g‘am,
Tegmaymiz deb, oltisi ham,
Sulaymonga ont ichdilar.

Alqissa, cho‘pon so‘zini tamom etdi. Shohiqbol podsho:

— Qur’andozlar, qur’a oching, munajjimlar, kitob qarang, kimlar olib ketdi ekan? — dedi.

Alar shoh buyrug‘iga ko‘ra qur’a tashlab, kitob ko‘rib bo‘lib dedilar:

— Dev Asvadning inisi Dev Ajdar olib ketibdi, — dedilar.

Shohiqbol yigirma ming lashkar birla dev Ajdarning ustiga bordi. Bir manzil yo‘l qolganida, podsho ikki vazirini yuborib: “Olib qochganing mening odamim edi, qaytarib, sog‘-salomat bersin, yo‘qsa men shahar tashqarisidaman, urushga chiqsin!” — dedi va besh kalima so‘z aytdi:

Dev ahliga boring, ikki vazirim,
Yuborsin odamim, yo‘qsa so‘yarman!
Xavf solib devlarining joniga,
Birin qo‘ymay, hammasini qirarman!

Gavdasidan shirin jonini uzib,
Qattiq yoyga, kaymir o‘qlara tizib,
Qal’alarin yiqib, kandini buzib,
Bolalarin yig‘ib, o‘ta urarman!

Yurmisham qirq minglab qo‘shin shay qilib,
Maydon ichra g‘o‘chchoqlarni toy qilib,
Ola ko‘zli yesirlarin poy qilib,
G‘azab aylab, erkaklarin qirarman!

Ayroliqdan shirin jonim kuydirib,
Madhalimni bunda yolg‘iz qo‘ydirib,
Dev podshohning ikki ko‘zin o‘ydirib,
Loshin o‘ta yoqib, xamin sararman[1].

Bu so‘zlarni dedi podsho Shohiqbol,
Kelmas podsho deya, etmas u xayol,
Yorsiz qaror topmas ul Madhaljamol,
Shul sababdan lashkar chekib surarman.

Alqissa, vazirlar Shohiqbol podshoning nomasini dev Ajdarga eltib berdilar. Dev Ajdar Shohiqbolning bu nomasini o‘qib, undagi so‘zlardan qahrlanib, badanidan tuklari teshib-teshib chiqdi. Vazirga: “Hayfki, “elchiga o‘lim yo‘q” derlar, bo‘lmasa seni o‘ldirar erdim. Endi senga beradigan odamim yo‘q. Agar podshohing urushga xumor bo‘lsa — mana maydon, urush qilamiz, — dedi va Shohiqbol podshoga siyosat qilib, bir nimarsalarni aytdi:

Nomus etsa, quvonmasin shohingiz,
Savash hunar bo‘lsa, maydona kelsin!
Magar sizning dugushmakdir ra’yingiz,
Savash hunar bo‘lsa, maydona kelsin!

Podshoning urgani, ko‘r, nechuk lofdir,
Yolg‘oni yo‘q, so‘zim to‘g‘ridir, sofdir,
Har bir devim bordir, yuz mingga tobdir,
Savash hunar bo‘lsa, maydona kelsin!

Bu so‘zim — olay men og‘amning qonin,
Kesaram kallasin, uzaram jonin,
Yig‘nab-yig‘nab kelsin qo‘shinin borin,
Savash hunar bo‘lsa, maydona kelsin!

Agar savashsangiz, olamning tuzi,
Bir Allohdan boshqa qo‘rqitmas bizi,

[1] **Xamini sarmoq** — terisini oftobda quritaman, degan ma’noda.

Podshoga de: ko‘zga ilmasman sizi,
Savash hunar bo‘lsa, maydona kelsin!

Dev Ajdar der, do‘st-u yora quldirman,
G‘o‘chchoqlari qal’alarin qoldirmam,
O‘rdasini qirib, odam qoldirmam,
Savash hunar bo‘lsa, maydona kelsin!

Alqissa, dev Ajdar so‘zini tamom etdi. Vazir “ish qabohat bo‘ldi!” deb, iziga qaytib, podshoga xabar berdi. Shohiqbol podsho darg‘azab bo‘lib, yana jar chekib, devlarning ustiga borar bo‘ldi. Ajdar dev ham qarshi chiqib, yer yuzini tuman qoplab oldi. Oxiri dev Ajdarni bosdilar. Bir yuz devni qirib tashlab, Sayfulmalikni olib qaytdilar.

Madhaljamol Sayfulmalikka peshvoz chiqib, “yorim keldi!” deb xushvaqt bo‘lib, besh kalima so‘z aytdi:

Xaloyiqlar, ko‘ring, mening
Ul yo‘qotgan yorim keldi!
Ko‘zim nuri, dil quvonchi,
Ko‘ngil ixtiyorim keldi!

Keldi uchib ketgan bozim,
Abri nayson, bahor-yozim.
Ko‘ngil hushim, qo‘lda sozim,
Suhbatim, dutorim keldi!

Tildagi zikri dostonim,
Ham shami-shabistonim,
Toza gulim, gulistonim,
Ham yozim, bahorim keldi.

O‘n bir yildir bo‘ldim g‘arib,
Keldi jahonni axtarib,
Ota-onasin safil qilib,
Bir dalli-bemorim keldi.

Durri ma'rifat sochildi,
Ne gulgun sharob ichildi,
Bog' ichra bahrim ochildi,
Ham gulim, gulzorim keldi.

Malhaljamol aytar, vaqtim,
Ochilibdir bog'im, baxtim,
Bunyod bo'ldi tilla taxtim,
Shaharim, bozorim keldi!

Alqissa, Madhaljamol bu so'zini tamom etdi. Shohiqbol podshoh nikoh o'qitib, qizini Sayfulmalikka berdi. Oshiqlar murod-maqsadlariga yetdilar. Jafo chekdilar — rohat ko'rdilar. Andin so'ng Sayfulmalik:

— Ey podshohim, Saidga ham Malikani olib bersangiz! — dedi. Shohiqbol podsho:

— Yaxshi bo'lar, — dedi. Bu ikkisi ham murod-maqsadlariga yetdilar. Andin so'ng Sayfulmalik ruxsat so'radi. Podsho ruxsat berdi va:

— Bir oltin taxtga to'rtovini ham mindirib, Misrga uchinglar, — deb devlarga buyruq berdi. Devlar taxtni olib, Misr eliga uchdilar. Misrga yetib borganlarida Sayfulmalik xushvaqt bo'lib, bir so'z aytdi.

Aytsin, boqali:

Shukur, Said, Misr yurti ko'rindi,
Xudo bizi shu makona yetirdi.
.....
.....[1]

Pirim Shohimardon, kavsar chog'idir,
Sayilgohi sakkiz jannat bog'idir,
Ayroliqning ishi mudom og'udir,
Xudo bizi shu makona yetirdi.

[1] Qo'lyozmalarda shu ikki satr yo'q.

Ota-onam, qardosh-tuqqan bormidir,
Alar mening diydorima zormidir?
Sog‘midir, salomat yoki xormidir?
Xudo bizi shu makona yetirdi.

Said, Isfandiyor, Malikajonni,
Sizga qurbon etay bu xonimonni,
Sayfulmalik oldi Madhaljamolni,
Xudo bizi shu makona yetirdi.

Alqissa, Said kelib, podshoni qutlab, besh kalima so‘z aytdi:

Podshohim, xabar oling,
Suyunchi, madoring keldi!
Xushbaxt bo‘lib, o‘ynab-kuling,
Ochilgan gulzoring keldi.

Xo‘p ochilgan bahr-u bozing,
Qo‘lingda suhbating, sozing,
Sayfulmalik, ko‘rar ko‘zing,
U sabri-qaroring keldi.

Avliyolar madad bergan,
Barzangidan jabr ko‘rgan,
Oxirida ishrat surgan,
Bir shirin guftoring keldi!

Cho‘llar kezgan, tog‘lar oshgan,
Suvga kirib, mavjga tushgan,
Said aytar, ayro tushgan
Orzuli diydoring keldi!

Alqissa, Osim podshoh Sayfulmalikka peshvoz chiqdi. Ko‘rishib, quchoqlashib, qirq kecha-kunduz to‘y-tomosha qildilar. Oshiq-ma’shuqlar murodlariga yetdilar.

MUNDARIJA

Turkman mumtoz she'riyati gulshanidan guldasta.
(Bahodir Karimov) 3

JAHONSHOH HAQIQIY

Olim To'rayev tarjimalari

Molina 8
Hayronidir 9
Ayladi xarob 10
Ne yerda bor 11
Johi ko'nglimning 12
Ahli jannatning 13
Mening 14

Ergash Ochilov tarjimalari

Ruboiylar 15

BAYRAMXON TURKMAN

Olim Usmon tabdili

Xiromonginam 25
Yor ilgidan 26
Faryod qilay 27
Asar andan 28
Benavolarga 29
Topilmas 30
Hijron emish 31

Olim To'rayev tarjimalari

Bo'lmadi hargiz 32
Soching 33
Ko'zlaring 34
Gadolarg'a 35
Bo'lg'aymen 36
Ruboiylar 37
Zafarnoma 39

Ergash Ochilov tarjimalari

Ruboiylar 41

ABDURAHIMXON TURKMAN

Olim To'rayev tarjimalari

Ruboiylar 46
G'azal 48
G'azallardan baytlar 49
Turli baytlar 50

SHOBANDA

Olim To'rayev tarjimalari

Oshi bo'lmasa 52
Kam bilar 53
Sevar yorim Mangli 54
Inson uchrashsa 55
Koshki biz 56
Jafo ayladi 57
Na bilsin 58
O'tdi, qolmadi 59

SHAYDOYI

Tillarim 61
Parizodimning 62
Kelin 63
Nozlar bilan 64
Bo'stondir bugun 65

MA'RUFIY

Boshi kerak 67
Vatanim qoldi 68
Zamondir dema 69
Hol qolmas 71
Yotmagil 72
Istar ko'ngil 73
Dunyoning 75

MAHMUD G'OYIBIY

Kelganda bordir 78
Yor, hey 80
Yorsizlarning dardini 81
Sho'xi zebolar yana 82
Ayon etma, ayon etma 83
Boqasan 84
O'par shirin dudog'ingdan 85

MUROD TOLIBIY

Hech topmadim bahona 87
Beor bo'lsa 89
Davron yo'liqsa 90
Keldim 92
Bo'lar 93

KAMINA

Zulfin 95
Ichinda 96
Inonmas 97
Arzim aytayin 98
Borinda 100
So‘zim bor sanga 101
Chiqdi-da, ketdi 102
Yonima 103
Shul yor o‘ldirdi 104
Ishonmas 105
Sevgilim 107

SAYIDIY

Ayrildik 109
Bozlarim qoldi 111
Mangzar 113
G‘animat 115
Muborak bo‘lsin 116
Soat kutsa kerakdir 117
Bir juvon 119

GURT O‘G‘LI

Kerakmas 121
Oting qoldi 123
Tog‘ ustida tog‘ qo‘yib 124
Qora bo‘lar libosi 126
Hol bo‘lar 127
Bo‘lmas 128
Yanglig‘ 129

ZINHORIY

Qolsang netar 132
Rang keldi 133
Pul bo‘lsa 135
Ko‘rmadim 136
Bilmadi 138
Yondim yoronlar 139
Bo‘larsan 141

KOTIBIY

Beglar 144
Muhabbati oz bo‘lar 146
Suraver 147
Soling sening 148
Noahillik elga yarashmas 149

ZALILIY

Meni 151
Yaxshidir 152
Sening 153
Bo‘lar endi 154
Holim bordir 155
Ichinda 157
Yor, sendan 159
Afo manga. *Sevara Ali tarjimasi* 160
O‘zga dam bo‘lmas. *Sevara Ali tarjimasi* 161

DO‘STMAMMAT

Olim To‘rayev tarjimalari

Yondirar 163
Xizmatkor bo‘lar 165
Ayrildim 166
Dilbar 167
Bayon aylagin 168
Mehmon bo‘lsam 169

MATAJIY

Kim kelar 171
Yiroqda turma 172
Tishlaringga 174
Xor bo‘lsa 175
Demak bo‘lmas 177
Oypari 178
Qo‘ldan ketar 179

OSHIQIY

Keltirar 181
Bo‘lmasa 183
Bo‘lsa 184
Parizod 186
Davron topilmas 187
Jam bo‘lar 188

Mehmon topilmas 189
Dema yoz kelar 190
Yoqar ketar 191

MISKINQILICH

Tog'lar 193
Seni 194
Bo'ldim endi 195
Topmadim 197
Chorasiga 198
Yanglig' 199

ORIF

Jonon kerakdir 202
Qolgan nishondir 204
Hayron bo'lmasa 205
So'zi bir bola yaxshi 207
Osh ustida 208
Abasdir 210

DAVLATMAMAT BOLQIZIL

Kezgan yerlarim 212
Noring sening 213
Qiz kelar 214
Orangizda 215
Bibining 216
Orzixon 217
Kunlarim 218

ABDUSATTOR QOZI

Jangnoma. Takalarning urush qissasi kitobi 219

MA'RUFIY

Muzaffar Ahmad tarjimasi

Sayfulmalik va Madhaljamol 233

T 89 Turkman mumtoz she'riyati antologiyasi [Matn]: nazm/to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Bahodir Karim. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 296 b.
ISBN 978-9943-8721-5-8

UO'K 821.512.164-1
KBK 84(5Tur)-5

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

TURKMAŅ MUMTOZ SHE'RIYATI ANTOLOGIYASI

98-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Sunnat Xo'jaahmedov*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Gulchehra Gulyamova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 18,5. Nashriyot-hisob tabog'i 10,54.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 164-1/22. Buyurtma raqami № 22-381

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

TURKMAN MUMTOZ SHE'RIYATI ANTOLOGIYASI